

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

UIF: 6.1

SJIF: 5.7

SIS: 1.9

Cite Factor: 0.89

ASI-Factor: 1,3

ISI Factor: 0.96

2023/02

VOLUME 4

ISSUE 2



*We increase scientific
potential together!*

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences





ISSN 2181-1385

VOLUME 4, ISSUE 2

FEBRUARY, 2023



www.ares.uz

EDITOR-IN-CHIEF

G. Mukhamedov

Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

EDITORIAL BOARD

U. Khodjamkulov

Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Botirova

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

B. Eshchanov

Associate Professor, Doctor of Physical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Madayeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

R. Bekmirzayev

Professor, Doctor of Physical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

G. Nurshiyeva

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Kazakhstan

I. Tursunov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Gaffarova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Y. Safronova

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

G. Ruzmatova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

N. Shermuhamedova

Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

B. Khusanov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

K. Tulantayeva

Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, National University of Kazakhstan

O. Naumenko

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Science and Technology MISIS

M. Rakhimshikova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

Kh. Paluanova

Associate Professor, Doctor of Sciences in Philology, Uzbekistan State World Languages University

M. Gulyamova

Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University

N. Makhmudova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

M. Sultonov

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

N. Zolotyx

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

J. Kholmuminov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies

A. Kholmakhmatov

PhD in Political Sciences, Ministry of Higher and Secondary Specialized Education

O. Hayitov

Professor, Doctor of Psychological Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

D. Karshiyev

Associate Professor, Candidate of Physical Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

T. Shevchenko

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia

R. Ikramov

Associate Professor, Candidate of Juridical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

C. Nasritdinov

Associate Professor, Chirchik Higher School of Tank Command-Engineering

Z. Yakhshiyeva

Associate Professor, Doctor of Chemical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

B. Yuldashev

Associate Professor, Tashkent Paediatric Medical Institute

Y. Islamov

Associate Professor, Candidate of Biological Sciences, Tashkent Paediatric Medical Institute

S. Allayarova

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Djumabekov

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University

K. Toshov

Senior Teacher, PhD, National University of Uzbekistan

T. Khojiyev

Associate Professor, PhD, National University of Uzbekistan

A. Shofkorov

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

I. Ergashev

Professor, Doctor of Political Sciences, National University of Uzbekistan

J. Davletov

Senior Teacher, PhD in Philosophical Sciences, Urgench State University

A. Makhmudov

Doctor of Philosophy in Economical Sciences, Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

A. Yuldashev

PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University

S. Pirmatov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Tashkent State Technical University

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 4, ISSUE 2, FEBRUARY, 2023

D. Otajonova

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

F. Rajabov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

J. Namozov

Associate Professor, PhD in Geographical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

N. Umarova

Associate Professor, PhD in Psychological Sciences, Tashkent State Pedagogical University

S. Toshtemirova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

U. Shermatova

PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

S. Akhunova

Associate Professor, PhD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

N. Juraeva

Senior Teacher, PD in Economical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Iskhakova

Associate Professor, Candidate of Agricultural Sciences, National University of Uzbekistan

U. Rustamov

Acting Associate Professor, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

I. Mambetov

PhD in Philological Sciences, Karakalpak State University

Z. Sanakulov

Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

D. Sharipov

Senior Scientific Researcher, PhD in Technics, Tashkent University of Information Technologies

O. Jabborova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Tojiyeva

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University

A. Yekabsons

Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

E. Makhkamov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical University

A. Seytov

Associate Professor, PhD in Physics and Mathematics, Chirchik State Pedagogical University

A. Tursunov

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Navoi State Mining Institute

N. Bobomuradov

PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

U. Kasimov

Professor, Doctor of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

Sh. Otajonov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan

L. Sobirova

PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

Sh. Kurbanov

Associate Professor, PhD in Technical Sciences, Karshi Engineering-Economic Institute

B. Salimov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University

R. Khudayberganov

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Tashkent State Transport University

M. Vafoeva

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Samarkand State University

K. Inakov

Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

G. Rashidova

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Jizzakh branch of National University of Uzbekistan

K. Mamadaliev

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Sh. Muradkasimova

Senior teacher, Doctor of Pedagogical Sciences, Uzbekistan State University of World Languages

T. Kuyliyev

Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, Tashkent State Agrarian University

N. Soatova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

S. Eshonkulova

Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Imomova

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Karshi State University

N. Beketov

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

P. Turapova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

D. Niyazova

Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Karshi State University

B. Ramazonov

Associate Professor, PhD in Biological Sciences, Chirchik State Pedagogical University

N. Berdaliyev

Associate Professor, PhD in Political Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

N. Sultonova

Associate Professor, PhD in Philosophical Sciences, Tashkent Institute of Architecture and Civil Engineering

N. Yuldosheva

Associate Professor, PhD in Philology, Karshi State University

A. Narmanov

Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

M. Achilova

Senior teacher, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Editorial Secretary: T. Madalimov

JALOLIDDIN XORAZMSHOHNING CHINGIZXONGA QARSHI KURASHIDA DEHLI SULTONI SHAMSIDDIN ELTUTMUSHNING ROLI

Maqsud Abdirasulovich Bebitov

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

m.bebitov@dpi.uz

Madina Raxmatullayevna Rahmanova

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

mraxmonova@dpi.uz

ANNOTATSIYA

Jaloliddin Manguberding otasi ismi Alovuddin Muhammad Xorazmshoh, onasi esa Oychechak xotundur. Jaloliddin Xorazmshoh o'sha davrning mashhur ulamolari va ustozlaridan saboq oldi. Alovuddin Muhammad Xorazmshoh 1215-yilda Gur va G'azna hududini qo'lga kiritgach, markazi G'azna bo'lgan Gur, Hirot, Gurjiston va Saiston o'lkalariga o'g'li Jaloliddinni hukmdor qilib tayinladi. Biroq ko'p o'tmay Muhammad Xorazmshoh o'zi juda yaxshi ko'rgan va qadrlagan o'g'lini o'zi bilan markazda qoldirib, o'rniga Karbar Malikni yuqorida tilga olingan hududlar boshqaruvini topshirishni maqsadga muvofiq deb topdi. Alovuddin Muhammad vafotidan oldin taxtni o'g'li Jaloliddinga topshirgan va u buni mas'uliyat bilan qabul qilgan edi. Muvaffaqiyatli hukmdor sifatida Karbar Malik bu hududlarni Xorazmshohlar davlat Mo'g'ullar tarafidan mag'lubiyatga uchratilib Jaloliddin Hindistonga qaytguniga qadar ushlab turdi. Ushbu maqolada Jaloliddin Xorazmshohning Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmush bilan hamkorlik aloqalari va 1221-1224 yillar davomida Hindiston tuproqlarida mo'g'ullarga qarshi kurashi tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari kabi tarixiy metodlardan foydalangan holda bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Jaloliddin, Eltutmush, Qabaja, Dehli, Muizziddin Muhammad, Ray Kukar Singx, Bedaun, O'zbektoy, Sind, Parvon.

ABSTRACT

Jalaluddin Manguberdi's father's name is Alovuddin Muhammad Kharizmshah, and his mother's name is Aychechek Khotun. Jalaluddin Khorazmshah learned from famous scholars and teachers of that time. After Alovuddin Muhammad Kharizmshah conquered the territory of Gur and Ghazna in 1215, he appointed his son Jalaluddin as the ruler of

Gur, Herat, Georgia and Saistan, whose center is Ghazna. Soon, however, Muhammad Kharzmshah found it expedient to leave his son, whom he loved and cherished, with him in the center, and to transfer the administration of the above-mentioned territories to Karbar Malik instead. Alauddin Mohammad passed the throne to his son Jalaluddin before his death and he accepted it responsibly. As a successful ruler, Karbar Malik held these territories until the Khorezmshah state was defeated by the Mongols and Jalaluddin returned to India. struggle is described using historical methods such as historicity, critical, comparative-logical analysis, principles of impartiality.

Keywords: Jalaliddin, Eltutmush, Kabaja, Delhi, Muizziddin Muhammad, Rai Kukar Singh, Bedaun, Uzbektoy, Sindh, Parwan.

KIRISH

Chingizxon Xorazmshohlar davlatini batamom qulatilish niyatida sobit edi. Bosqichma bosqich Xorazmshohlar imperiyasini yuqori taktik tayyorgarlik va strategik reja asosida bosib ola boshladi. 1220-yili Mo'g'ullarning Xorazim hududiga kelib, poytaxt Urganchni qamal qilib katta qiyinchilik bilan bo'lsada bosib oldi. Bu paytda Xorazmshohlar davlatini mo'g'il qo'shinlariga qarshi biriktira oladigan sulton Muhammad Xorazmshoh ham uning o'g'illari Oqshoh va O'zlug'sho ham tarix sahnasidan birin ketin Chingizxon boshliq mo'g'il qo'shini tomonidan yo'q qilindi. Ammo Muhammad Xorazmshohning vorisi sifatida ko'rilgan yana bir o'g'li Jaloliddin Xorazmshoh tarix katta sahnasiga chiqqan edi. Chingizxon uchun eng katta qarshilik va tahdid Xorazmshohlar davlatining so'ngi sultoni Jaloliddin Xorazmshoh edi. Jaloliddin Xorazmshoh Mo'g'il qo'shinlari bilan qilgan etti jangdan olti jangida muvaffaqiyat qozondi. Jaloliddin Xorazmshohning bu vaqtga kelib ikki tanlovi bor edi yo boshqa hududlarga ketib jon saqlash yo Sind daryosidan o'tib qaytadan kuch to'plab mo'g'ilarga qarshi kurashni davom ettirish. Jaloliddin Xorazmshoh albatta ikkinchi yo'lni to'g'ri deb bildi. Qisqa muddat ichida Jaloliddin Xorazmshoh Sind va uning atrofida maxalliy hukimdorlar bilan bir necha janglar davomida muvaffaqiyati, jasurligi bilan tezda chor atrofga dovgug'i yoyila boshladi. Uch to'rt ming nafar qo'shin Jaloliddin Xorazmshohga sodiqligini bildirib¹ uning safiga kelib qo'shildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Jaloliddin Xorazmshoh va Xorazmshohlar davlati tarixini chuqur o'rganish tarixni yangi O'zbekiston tarixining konseptual metodologik asoslarini tashkil etadi. Ayniqsa manbalarga

asoslangan holda ilmiy tadqiqotlarni olib borish jahon standartlariga mos hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari kabi tarixiy metodlardan foydalangan holda, Xorazmshohlar davlati va mo'g'illarni ushbu davlatga bostirib kirishi Jaloliddin Xorazmshohning Hindiston diyorlarida Chingizxonga qarshi mujodalasi vaqealari bayon etilgan asar "Tarixi jahongushoy" va boshqa bir qator tarixiy asarlar ma'lumotlari asosida so'z yuritiladi. Alouddin Atomalik ibn Bahouddin Muhammad al-Juvayniyning "Tarixi jahongushoyi"² asari bo'yicha o'zbek tarixchi olimlari Z.Bunyodov³, O.Bo'riev⁴, N.Toshev⁵, I. Jabborov⁶, I.Ochilov⁷, H.Dadaboyev⁸, J.Raximov⁹, N.Polvonov¹⁰, Q.Masharipov¹¹, M.Akobirov¹² va boshqalar Xorazmshohlar davlati tarixining turli masalalari yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirganlar

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Parvon jangida Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar qo'shinlari bilan bo'lgan jangda yorqin g'alabaga erishdi. Ammo 1221 yil 24-26 noyabrda¹³ yana bir bor shaxsan Chingizxon boshliq mo'g'il qo'shinlari bilan qarshilashgan Jaloliddin Manguberdi son jihatdan mo'g'ullar bir necha barobar ziyod bo'lganligi tufayli xorazmliklar Sind (Hind) daryosi tomon chekinishgan. Jaloliddin Parvonda avval uni tark etgan Sayfuddin Ig'roq, A'zam malik va Muzaffar malik kabi amirlar bilan birlashib, Chingizxonga qarshi jang qilishga qaror qiladi. Jang davomida Jaloliddin boshliq Xorazim qo'shinlari qanchalik mardona va azmi shijoat bilan jang qilmasin son jihatda ustun bo'lgan Chingizxon qo'shinlari jangda ustun keldi.

Chingizxon va Jaloliddin Xorazmshoh o'rtasidagi to'qnashuvning keyingi bosqichi Hindiston edi. Bu vaqtda Dehli va uning atroflari Sulton Shamsiddin Eltutmush idorasida bo'lib u asli Ulug' borli urug'iga mansub qipchoq turklaridan edi. Yoshligida qul savdogarlari orqali Buxoroga, so'ngra G'aznaga olib kelingan va sotilgan. 1196 yilda Guru Sulton Muizziddin Muhammad tomonidan sotib olingandan so'ng, u asta sekin xizmat pilla poyalarida ko'tarilib sarkarda va amir shikor (ovchi boshlig'i) bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik, Beran va Badaun muzofoti qo'shinlari boshqaruvida bo'lgandan so'ng, qullikdan ozod qilingan. Qisqa vaqt ichida amir al umaro darajasiga ko'tarilgan edi. 1206 yilda Gurlular sulolasining oxirgi sultoni Muizziddin Muhammad vafot etgach, davlat boshqaruvi qipchoq turklaridan bo'lgan bu Qutbiddin Aybek qo'lga o'tadi. 1210-yil vafotidan keyin taxtga uning o'g'li Aramshoh o'tirdi.

Davlatni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lmagani uchun boshqaruv davlat arboblarning iltimosiga ko'ra o'sha paytda Bedoun hokimi bo'lgan Shamsiddin Eltutmush Dehlini ham o'z

nazoratiga oldi¹⁴. Shamsiddin Eltutmushning boshqaruvi ostidagi hududlarga nisbatan birorta ham siyosiy hukmronlik qarshilik qilmayotgan bo'lsada Hindistonning ba'zi hududlarni musulmon bo'lmagan mahalliy hukmdorlar, hindu rojalari va mannalari boshqargan, ba'zilari turk va musulmon hukmdorlar tomonidan boshqarilgan. Sind viloyatida va unga tutash hududlarda Shamsiddin Eltutmush kabi musulmon hukimdorlardan Sulton Muizziddin Muhammadning maliklaridan Nosiriddin Qabaja bor edi va u Uch, Multan, Bahkar va Siyiston viloyatlarini boshqarar edi. Shuningdek Muizziddin Muhammadning boshqa bir maliki Tojiddin Yildiz ham shimoliy Hindiston hududlari mutlaq hukimronligi uchun davogarlardan biri edi. Ayni paytda u G'azni viloyatiga hukimronlik qilmoqda edi. Jaloliddin Xorazmshohning Sind daryosi atrofida kelishigacha bu hududlarda hokimiyat uchun kurashlarda biroz bo'lsada Shamsiddin Eltutmush muvaffaqiyat qozanayotgan edi.

1221-1222 yillarda Chingizxonga qarshu jang qilib Hindiston tomonga chekingan Jaloliddin Xorazmshohning boshpana so'ragan vaziyatiga nisbatan tutumi Shamsiddin Eltutmushning siyosiy tarixida alohida o'rin tutgan. Mo'g'ullar bosqiniga qarshi bir necha bor muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsatgan Jaloliddin Xorazmshoh oz sonli qo'shin bilan mo'g'il qo'shiniga qarshi hech qanday natija bermasligini tushunib, Sind daryosi yaqiniga chekinishni maqsadga muvofiq deb hisobladi va shu zahotiy o'z odami Aynul Mulkn Dehliga elchi sifatida jo'natdi. Jaloliddin Xorazmshoh Dehli hukmdori Shamsiddin Eltutmush bilan birgalikda mo'g'ullarga qarshi ehtimoliy do'stlik o'rnatish orqali mushtarak urush jabhasi ochishni xohlar edi. Ko'p o'tmay, Jaloliddin Xorazmshohning boshpana so'rovini bildirgan elchilar poytaxt Dehliga keldi. Vaziyatni bir muddat ijobiy va salbiy taraflarini baholagan Shamsiddin Eltutmush, avvalo o'zlari uchun oladigan qarorning ahamiyatiga e'tibor qaratdi. Shamsiddin Eltutmush duch kelgan vaziyat juda nozik va hassos edi. Shu sababli, u shoshqaloqlik bilan qaror qabul qilishni istamadi va bundan keyin sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealardan ham xavotirda edi. Agar Jaloliddin Xorazmshohning ta'labini qanoatlantirsa mintaqada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan siyosiy og'irlik muvozanati o'zgarishi haqida o'ylar ekan, boshqa tomondan mo'g'ullar va Chingizxon tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan bosqin va talon-tarojlarga duchor bo'lishdan xavotirda edi¹⁵. Qisqa muddatga bo'lsa ham Jaloliddin Xorazmshohning Dehli atrofida qolishi maqsadga muvofiq, deb o'yladi. Bu nuqtai nazardan qaralsa, Shamsiddin Eltutmush Jaloliddin Xorazmshohning ta'siri ortishidan qo'rqqanini tushinish mumkin edi. Jaloliddin Dehliga kiritilmasligi qarori Eltutmushning azaliy raqibi bo'lmish Nosiriddin Qabaja kabi kuchli turk amirining siyosiy ta'siri sindirilib, Jaloliddin tufayli Dehli va uning atrofida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfdan

qutulgan bo'lar edi. Shu tariqa, bir muncha vaqt o'tgach, Eltutmush o'zi yuborgan elchilar orqali Jaloliddinga o'z nazorati ostidagi hududlarda joy ko'rsatish imkoni yo'qligini va ma'zurini qabul qilishini, mintaqa iqlimining mos kelmasligini ma'lum qildi. Biroq, agar xohlasalar, Dehli atrofida joy ajratib, sulton Jaloliddinga o'sha yerda joylashishni taklif qildi. Uning yordami bilan chegara hududi isyonchilardan tozalanishi mumkinligini ham aytdi¹⁶. Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmush Jaloliddin Xorazmshoh tomonidan takror jo'natilgan elchilar Dandak Pahlavon va Sungurjuk Tayisilarga Xorazmshohning buyerlarda qolishi to'g'ri emasligini, unga nisbatan do'st munosabatta ekanligini, agar o'ziga nisbatan dushmanlik qilinmagan taqdirda aslo Jaloliddinga nisbatan qarshi qilich ko'tarmasligini va hatto so'zlarini isboti sifatida o'z qizini Jaloliddinga nikohlab berishini bu bilan do'stlik rishtasi mustahkam qarindoshlik ipi bilan bog'lashi mumkinligini nihoyatda nozik diplomatik yo'l bilan ochiq va samimiy bir tarzda ifoda etti. Jaloliddin Xorazmshoh Sulton Shamsiddindan salbiy xabar olib Balala va Rakala atrofiga qaytdi. U shu yerda ekan, avval uni tark etganlar yana uning atrofiga to'planishdi va qisqa vaqt ichida uning atrofiga yig'ilganlar soni o'n mingga yaqinlashdi.

Jaloliddin Xorazmshoh Malik Tojiddin Halajni qo'shin bilan Judi tog'iga jo'natib, mintaqa hukmdori Ray Kukar Singxning qiziga uylanmoqchi ekanligini aytdi. Shundan so'ng Ray Kukar Singx Jaloliddin Xorazmshohning iltimosiga ijobiy javob berib, o'z o'g'lini ham qo'shin bilan sulton Jaloliddin xizmatiga jo'natadi. Sulton Jaloliddin o'g'liga Qutlug'xon unvonini berdi. Bu o'zgarishlar Sulton Jaloliddin uchun ijobiy bo'lsa-da, Gurlu sultonlarning amirlaridan biri bo'lgan Dehli Sulton Eltutmushning qudasi Nosiriddin Qabaja Sind atrofida to'siq bo'lib turar edi. Aslini olganda, Jaloliddin orazimshoh bilan yangi ittifoq tuzgan Ray Kukar bilan Qabaja o'rtasida ham adovat bor edi. Shundan so'ng Jaloliddin, avvalo, O'zbektoy boshchiligidagi qo'shinni Uchchadan bir farsax uzoqlikda joylashgan Qabajab qarorgohiga yubordi. Bu orada Qabaja qo'shinining soni 20 ming kishidan iborat bo'lsa, O'zbektoy 7 ming kishidan iborat edi. O'zbektoyning tungi, to'satdan uyushtirgan bosqiniga qarshi nima qilishini bilmay qolgan Qabaja askarlari mag'lubiyatga uchradi va shu zahotiy oq ular o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'ladi. Nosiriddin Qabaja qochishga muvaffaq bo'ldi. O'zbektoy boshliq qo'shin qalada qolgan asirlarni olib vaziyatni Sulton Jaloliddin Xorazmshohga bildirdi. Nosiriddin Qabaja esa Mo'ltan viloyatiga yo'l oldi¹⁷. Shundan so'ng Jaloliddin Qabajadan o'ziga bo'ysunishini bayat berishini, Sind daryosi atrofidagi jangdada o'g'irlab ketilgan Amirxonning o'g'li va qizini topshirishni va nihoyat, yirik miqdorda badal to'lashini talab qildi. Bu talablar oldida umidsiz va chorasiz qolgan Nosiriddin Qabaja talablarni qabul qilganini

e'lon qilganidan keyin o'z boshqaruvidagi viloyatlarga hujum qilmaslikni Jaloliddin Xorzimshohdan so'radi. Shundan so'ng Balala va Rakala atrofida joylashgan Basram qalasin ishg'ol qildi. Bu orada mo'g'ullarning yana harakatga tushib, ortidan kelayotgani habarini olgan Jaloliddin Xorazmshoh Nosiriddin Qabajaga elchi yuborib, va'da qilinganidek talab qilingan xarajatlarini jo'natishini so'radi. Nosiriddin Qabaja ham mo'g'il qo'shining Sulton Jaloliddin ustiga yurish qilayotganini habarini olgach uning talablarini bajarishga hojat qolmaganini angladi va rad etdi. Bundan g'azablanib Uchchaga qaytgan Sulton Jaloliddin qo'shini bilan Qabaja va unga qo'shilganlarni jazolab, shaharni talon-taroj qilib, o't qo'ydi. So'ngra Duyul va Siyiston tarafiga ko'chdi. Bu yerda hokimlik qilgan Fahriddin Salar Sulton Xorazmshoh qo'shin bilan bo'lgan jangda mag'lup bo'lib Jaloliddinga sodiqligini bildirdi va yana Siyistonga hokim etib tayinlandi¹⁸. Shundan so'ngra Jaloliddin Xorazmshoh bu yerlarda ortiq qola olmasligini angladi va Eron tomonga yurdi.

Shamsiddin Eltutmushning siyosiy tadbirlari ila Jaloliddin Xorazmshohning Hindiston tuproqlaridan ketishi bu mintaqada hukimronlik qilayotgan turkiy qavimlarning mo'g'il istelosidan ham nisbatan chetda qolishiga va yillar davomida o'z hokimiyatlarini saqlab qolishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Eltutmush 1230-yilda raqibi bo'lgan Nosiriddin Qabajaning siyosiy hukmronligiga barham berib, mintaqada va davlat ichida to'liq markazlashuvni ta'minlay oldi. Shamsiddin Eltutmush Hindiston hududlarida yana birqancha shaharlarni o'z nazoratiga oldi va bu hududlarda turk-islom boshqaruvi ananasiga amal qilgan holda idora qildi. Xususan Sulton Eltutmush turk-islom tarixida muhim o'ringa olib chiqqan yana bir amaliyot, o'zidan keyin davlatni boshqarish uchun qizi Raziya Begimni merosxo'r valeyah qilib ko'rsatish edi. Uning qarori o'g'illari va davlat arboblarni, ayniqsa, "Qurultoy"(kengash)da qatnashgan qipchoq turklarini bezovta qildi. O'g'illarining ichkilikga muhtalo bo'lganligini qarorining sababi sifatida ko'rsatdi. Ammo otasining vafotidan so'ng Roziya Begim hukimronligi bir necha yil davom etdi holos. Sulton Shamsiddin Eltutmushning shogirtlari 1266 yilgacha taxtni boshqardi.

XULOSA

Jaloliddin Xorazmshohning Sind daryosi atrofiga kelishi shimoliy Hindistonni ham mo'g'illarga qarshi kurash maydoniga aylantirdi. Bu ayni paytda mo'g'il bosqini bu mintaqada aholisi uchun ham katta xavf tug'dirardi. Ammo bu hududlarda Jaloliddin Xorazmshohning mo'g'illarga qarshi kurashayotganligi, musulmon turklarga uning siymosida g'ayridinlarga qarshi tura oladigan yagona xaloskor sifatida ko'ra boshladi. Chingizxon bosimidan jabrlangan musulmonlarning Jaloliddin Xorazmshohga bo'lgan

yuksak ishonchi tufayli uni qo'llab quvvatlash maqsadida shimoliy Hindistonga ko'chib borishiga sabab bo'ldi.

Shimoliy Hindiston hududlarida hukumronlik qilgan asl kelib chiqishi turkiy qavmlardan bo'lgan Shamsiddin Eltutmush va Nosiruddin Qabaja kabi hukimdorlar turkiy qavmlarni shimoliy Hindistonga ko'chib kelishiga qarshilik ko'rsatmas edi. Aksincha ularni mamnuniyat bilan qarshi oladi. Turkiy xalqlarning Hindiston hududlariga davomli ko'chishi Amir Temurning O'rta Osiyoda o'rnatgan kuchli hukmronligiga qadar davom etadi. Bu kabi migratsiya, aniqroq qilib aytganda ko'chib kelishlar asrlar bo'yi davom etgan va turkiy xalqlarning boy madaniyati keng yoyilishiga sabab bo'ldi.

REFERENCES

1. Shahobiddin Muhammad Horandazi Zaydari Nasafi, "Siroti Jaloliddin Menguberdi", tarjimon. Mujtabi Minavi, Shirkati intisharoti ilmi va Farhangi, Tehron, 1388 yil, 113-114-bet.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. / Tarjima va so'z boshi muallifi Nazarbek Rahim, Mursal O'zturk. T.: Mumtoz so'z, 2015. –b. 395, 400. (Alouddin Atomic Juvenil. Jahongusho's story. / Translation and foreword by Nazarbek Rahim, Mursal Ozturk. T.: Classic word, 2015. –P. 395, 400.)
3. Ziyo Buniyodov Anushtegin Xorazmshohlar davlati/ Tarjima va so'z boshi muallifi A.Ahmad va M.Mahmud. T.: Adabiyot va san'at, 1998. 122 b. (Ziyo Buniyodov State of Anushtegin Khorezmshahs / Translation and foreword by A. Ahmad and M. Mahmud. T.: Literature and Art, 1998. - 122 b.)
4. Bo'riev O., Toshev N. Jaloliddin Manguberdi (Davri. Sarkardalik faoliyati. Manbalar.) – Toshkent: Fan, 1999. 72-b.
5. Toshev N. Jaloliddin Manguberdi o'z davri yozma manbalarida. // O'zbekiston tarixi jurnali 1-son. - T.: FAN, 1999.: 54- b.
6. Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. – Toshkent: Sharq, 1999. – B.142.
7. Ochilov I. Jalaliddin Manguberdi's description in written sources. // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal -(4) IV/2020.–P 63-67.
8. Dadaboev X.V. Harbiy san'at tarixi. // - T.: 2013.
9. Raximov J. Vatanning sheryurak bahodiri.// - T.: Talqin. 2015.
10. Polvonov N.T. Reader from the history of Uzbekistan. // - T.: Info Capital Group. 2018-B. 223.
11. Masharipov Quadrat. Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar sarkarda. T.: Navro'z 2019. – 258-259, 266- b. (Masharipov Kudrat. Jaloliddin Manguberdi is a great patriotic commander. T.: Navruz 2019. –P. 258-259, 266.); O'sha muallif.The image of Jaloliddin Manguberdi:



his place in history as a person and the epoch he lived. // Journal of Critical Reviews. Vol 7, Issue 12, 2020. P. 1000-1002.

12. Akobirov M. Issues of supply and weapons in the army of sultan Jalaliddin Manguberdi. look to the past. 2021, vol. 4, issue 3, (18-22) pp.

13. Shixabaddin Muhammad an Nasafi, “Жизнеописание султана Джалал ад Дина Манкбурны”, arab tilidan tarjima muallifi M. Buniyatova, Baku, 1972 yil.

14. Minhoji Siraj Juzjoni, “Tabakati Nosiri”, tarjimon, Abdulhay Habibiy Muassasayi intisharoti asotir, Tehron, 1389 yil, I-jil 439-497 bet. as-Sihrindi , Yahya ibn Ahmed ibn Abdullah, “Tarihi Mubarakshohi”, tarjimon, Muhammad Hidoyat Husayin, Intisharati asotir, Tahron , 1391-yil, 13-17 bet. S. Haluk Kortel, “Dehli turk sultonligida tashkilot”, T.T.K., Anqara, 2006 -yil, bet. 5; A.S. Bazmi Ansoriy, “İltutmiş”, T.D.V.İ.A(Turkiya diyonat vaqfi islom ensiklopediyasi), 2000, Jild 22, 158-159 bet.

15. Minhoji Siraj Juzjoni, “Tabakati Nosiri” tarjimon, Abdulhay Habibiy Muassasayi intisharoti asotir, Tehron, 1389 yil, I-jil 315-317 bet

16. Kulka-Diatmar Rothermund, “**Hindiston tarixi**”, tarjimon. Mufit Gunay, Image kitob do'koni, Anqara, 2001- yil, 244-245 bet.

17. Minhoji Siraj Juzjoni, “Tabakati Nosiri”, tarjimon, Abdulhay Habibiy Muassasayi intisharoti asotir, Tehron, 1389 yil, I-jil 315-317 bet. Juvayniy Ato Malik Aloaddin ibn Bahouddin Muhammad ibn Shamsiddin Muhammad “Tarihi Jihangushoyi Juvayni”, tarjimon, Mirza Muhammad, Luzac & Co, London II-jil 315-317 bet

18. Juvayniy Ato Malik Aloaddin ibn Bahouddin Muhammad ibn Shamsiddin Muhammad “Tarihi Jihangushoyi Juvayni”, tarjimon, Mirza Muhammad, Luzac & Co, London II-jil 145-147 bet

19. Abdirasulovich, B. M. (2022). HISTORY OF UZBEK TAKIYAS IN ISTANBUL AND ECONOMIC RELATIONS WITH THE OTTOMAN STATE. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 116-119.

20. Bebitov, M., & Qalandarova, M. (2022). QADIMGI TURK (KOKTURK) XALQLARDA BOSHQARUV TAFAKKURINING ASOSIY TAMOYILLARI VA QONUNLARI. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(12), 328-333.

21. Bebitov, M. A. (2021). Turkiya Antakiyadagi o'zbeklar takiyasi tarixi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 1233-1241.

22. Bebitov, Maqsud Abdirasulovich, & Mardonov, Muxriddin Islom O'G'Li (2022). QORAXONIYLAR DAVLATIDA TA'LIM FAOLIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 487-491.

23. Qarshiyev, A. (2022). XIX Asr ikkinchi yarmi-xx asr boshlarida Suxxon vohasining ijtimoiy-siyosiy hayati (I-126-jamg'arma hujjatlari asosida). PA'EMI DONISHKA DA ANBORI ILM TAFAKKURI TA'RIH.

ГОЛШТИН ЗОТЛИ БУҚАЧАЛАР ВА ДУРАГАЙЛАРИНИНГ ТИРИК ВАЗНИНИ ОЗИҚЛАНТИРИШ ОМИЛИГА БОҒЛИҚЛИГИ

Ғ. А. Қўзибаев

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар
университети, мустақил тадқиқотчи (PhD)

Ш. Н. Мадрахимов

Тошкент давлат аграр университети, мустақил тадқиқотчи (DSc)

АННОТАЦИЯ

Тадқиқотларда, сут йўналишидаги голштин зотли сигирларни саноат асосида чатиштиришдан олинган F_1 дурагай буқачаларнинг туғилгандан 12 ойгача ўсиш ва ривожланиш даврида сарфланган озуқалар миқдори, тўйимлиги ва уни тирик вазни билан қоплаш даражаси тўғрисида маълумотлар келтирилган. Олинган натижалар таҳлили шуни кўрсатадики, маҳаллий озуқалардан тузилган тўла қийматли, мувозанатлаштирилган рационлар биринчи буғин (F_1) дурагай буқачаларнинг ирсий имкониятларини тўлиқ юзага чиқаришини таъминлаган. Бу уларнинг жадал ўсиб, сарфланган озуқаларни тирик вазн билан қоплаш кўрсаткичларида намоён бўлган.

Калит сўзлар: Чорвачилик, зот, зотдорлик, сут-гўшт, чатиштириш, дурагай, гўшт йўналиши, озуқа, озуқа бирлиги, озиқлантириш, голштин, абердин-ангус, лимузин, шароле, тирик вазн.

ABSTRACT

In the research, information is given on the amount of feed consumed, satiety, and the degree of covering it with live weight during the period of growth and development of F_1 crossbred bulls obtained from industrial breeding of dairy Holstein cows from birth to 12 months. The analysis of the obtained results shows that the full-value, balanced rations composed of local forages ensured the full expression of the genetic potential of the first-generation (F_1) crossbred bulls. This was reflected in their rapid growth and replacement of spent feed with live weight.

Keywords: Animal husbandry, breed, breeding, milk-meat crossing, hybrid, meat line, feed, feed unit, fattening, Holstein, Aberdeen-Angus, Limousin, Charolais, live weight.

КИРИШ

Бугунги кунда Республикамизда қорамол гўшти ишлаб чиқаришда ва аҳолини гўштга бўлган талабини қондириш бўйича бир мунча тадбирлар ишлар амалга оширилиб келинмоқда. Қорамол гўштининг ишлаб чиқаришнинг асосий манбаларидан бири бу гўштдор қорамоллар бош сонини кўпайтириш ҳисобланади. Шуларни ҳисобга олган ҳолда, аҳолини қорамол гўштига бўлган эҳтиёжини қондиришга қаратилган тадқиқотларни олиб бориш, илмий ва амалий аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Қорамоллар маҳсулдорлиги бўйича ирсий имкониятларини юзага чиқаришда озиқлантириш омилининг таъсири катта эканлигини Р.Ҳамрақулов, К.Қарибаев (1991), Д.Абдузаирова, М.Нарбаева, А.Қахаров (2012), Содикова Ч. С., Амиров Ш. Қ., Мадрахимов Ш. Н. (2022), Садикова Ч, Амиров Ш., Эгамбердиева З (2022), Жавхаров, О. З., Амиров, Ш. Қ., Эгамбердиева, З. К. (2020), И.Прохоров (2013), В.Лукъянов (2019), В.Кулинцев, А.Шевхужев (2022), Ш.Мадрахимов, Н.Рўзибоев (2022) ва бошқа олимлар томонидан ўзларининг илмий тадқиқот ишларида ўрганганлар [1-18].

Юқори сифатли қорамол гўшти етиштириш мақсадида, сут йўналишидаги подадан турли сабабларга кўра чиқарилган сигирларни гўшт йўналишидаги насли буқалар ва уларнинг музлатилган уруғи билан саноат асосида чатиштириш долзарб ҳисобланади.

Бу тадбир тўла қийматли, мувозанатлаштирилган рационлар асосида дурагай авлодларнинг маҳаллий шароитда етиштирилган озуқалардан тежамкорлик билан фойдаланиб, ирсий имкониятларини юзага чиқариш орқали, таннархи арзон қорамол гўшти етиштириш имконини беради, натижада хўжаликнинг иқтисодий самарадорлиги яхшиланади.

Сут йўналишидаги сигирларни гўшт йўналишидаги насли буқаларнинг уруғлари билан сунъий уруғлантириш натижасида (саноат асосида чатиштириш) олинган биринчи буғин (F_1) дурагайларини ўсиш кўрсаткичларига хўжаликда мавжуд озиқалардан тузилган тўла қийматли, мувозанатлаштирилган рационларда озиқлантириш таъсири ва озуқаларни тирик вазн кўрсаткичлари билан қоплаш даражасини ўрганиш.

Тадқиқот объекти қилиб, “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ тасарруфидаги Тошкент вилояти, Оҳангаран тумани “Гулобод-мева” сабзавотчилик, полизчилик ва чорвачилик хўжалигида урчитилаётган турли генотипга эга буқачалар

белгиланди. Тадқиқотларда сарфланган озуқалар миқдори рационлар асосида, даврлар кесимида уларга сарфланган озуқа миқдорлари ҳар бир гуруҳда алоҳида бир ойда бир марта кетма-кет 2 кунда назорат озиқлантириш орқали берилган ва охурдаги нўшхур озуқалар миқдори фарқини аниқлаш билан ўрганилди.

Тажриба гуруҳларини шакллантиришда генотипи ҳар хил бўлган бузоқчалар танлаб олинди. Буқачаларнинг тирик вазни тўғилганда ва кейинги даврларда эрталаб озиқлантириш ва суғоришдан олдин тарозида аниқланди.

Олинган рақамли маълумотларга компютернинг Microsoft Excel 2010 дастурида А.М.Яковенко, Т.И.Антоненко, М.И.Селионова (2013 й.) усулида биометрик ишлов берилди [19].

Тажрибада голштин зотли сигирларни (подадан чиқарилган) гўшт йўналишидаги турли зотга мансуб насли буқаларнинг музлатилган уруғларидан фойдаланиб, сунъий уруғлантирдик. Тажрибада тўртта гуруҳ шакллантирилди. I гуруҳга соф зотли голштин, II гуруҳга ½ абердин-ангус x ½ голштин, III гуруҳга ½ лимузин x ½ голштин ва IV гуруҳга ½ шароле x ½ голштин генотипли бузоқлар беркитилди. Ҳар бир гуруҳга 10 бошдан буқачалар танлаб олинди (1-тасвир).

Тадқиқот тасвири

Гуруҳ	Бош сони	Зот ва зотдорлиги			Давр охиридаги ёши, ой
		Онаси ♀	Отаси ♂	Авлодлари	
I	10	Голштин	Голштин	Соф зотли	12
II	10	Голштин	Абердин-ангус	½ Абердин-ангус x ½ Голштин	12
III	10	Голштин	Лимузин	½ Лимузин x ½ Голштин	12
IV	10	Голштин	Шароле	½ Шароле x ½ Голштин	12

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Тажрибадаги буқачалар маҳаллий шароитда етиштирилган ва хўжаликда мавжуд концентрат озуқалардан фойдаланиб, 6 ойликкача схема асосида кейин эса уларга тўла қийматли, мувозанатлаштирилган рационлар тузилди ва шу асосда озиқлантирилди.

Буқачалар туғилгандан сўнг 3 кун онаси билан, 3-15 кун (профилактория даврида) давомида эса алоҳида



қафасларда ва 16 кундан кейин 10 бошдан яйратиш майдончаларида сақланди. Буқачаларга 3 ой давомида (90 кун) соғиб олинган сут маҳсус иситиш қурилмасида 35-38⁰С иситиб, маҳсус резина сўргичларида ичирилди. Сут ичиш схемага асосан кунига уч маҳал 2,0 литрдан амалга оширилди. Буқачалар зоогигиеник микроклим кўрсаткичлари бўйича меъёрлар асосида сақланди.

Тажрибадаги буқачаларга сарфланган дағал, ширали ва кучли озуқалар ва уларнинг таркибида тўйимли моддалар миқдори 1-жадвалда келтирилди.

1-жадвал

**Турли генотипдаги бузоқчаларнинг 12 ойлигигача
сарфланган озуқа миқдори (ўртача бир бошга)**

Озуқа турлари	Гуруҳлар			
	I	II	III	IV
Ёғи олинмаган сут, кг	500,0	500,0	500,0	500,0
Беда пичани, кг	937,5	939,5	941,2	940,9
Маккажўхори силоси, кг	1063,0	1063,0	1059,5	1059,5
Сенаж, кг	601,0	612,0	613,5	615,0
Кўк озуқа, кг	4832,0	4906,5	4909,0	4901,0
Хашаки лавлаги, кг	30,0	30,0	30,0	30,0
Омухта ем, кг	633,0	633,0	633,0	633,0
Озуқа таркиби:				
Қуруқ модда, кг	3080,7	3112,4	3114,2	3112,8
Озуқа бирлиги	2291,5	2309,1	2310,1	2308,9
Алмашинувчи энергия МДж	27863,6	28176,5	28190,0	28179,2
Ҳазмланувчи протеин, кг	274,9	279,4	279,9	279,5
Ҳар 1 озуқа бирлигига ҳазмланувчи протеин, г	119,9	120,9	121,2	121,0

1-жадваллар маълумотлари таҳлили шуни кўрсатдики, саноат асосида частиштиришдан олинган II; III ва IV гуруҳ (F_1) биринчи буғин дурагай буқачалар ўз тенгқурлари I гуруҳ соф зотли буқачаларга нисбатан 12 ой давомида озуқалар миқдори кўп истеъмол қилдилар ва уларнинг тўйимлилиқ қиймати ҳам юқори бўлди. Жумладан, биринчи тажрибадаги II; III ва IV гуруҳ (F_1) биринчи буғин дурагай буқачалар I гуруҳ соф голштин зотли буқачаларга нисбатан мос равишда беда пичани 2,0-3,7 кгга, сенаж 11,0-14,0 кгга ва кўк озуқалар 69,0-77,0 кгга кўп истеъмол қилган бўлса ёғи олинмаган сут, силос, хашаки лавлаги ва омухта-ем бир ҳилда бўлганлиги кузатилди. Шунингдек,

озуқаларнинг тўйимлиги бўйича II, III ва IV гуруҳидаги (F_1) буқачаларда I гуруҳ соф голштин зотли буқачаларга нисбатан озқуа бирлиги мос равишда 17,6; 18,6 ва 17,4, курук модда 31,7; 33,5 ва 32,1 кгга ҳамда ҳазмланувчи протеин 4,5; 5,0 ва 4,6 кгга юқори бўлганлиги кузатилди. Бу эса дурагай буқачалар организмиде моддалар алмашинувини жадал бўлиши, тўқималарни юқори фаоллиги ва керакли тўйимли моддаларни тўлиқ ассимиляция бўлганлигидан далолаб беради.

Тажриба гуруҳидаги дурагай буқачаларда ҳам сарфланган озуқалар ва уларнинг тўйимлиги гуруҳлар ўртасида катта фарқ кузатилмади, бу эса буқачаларга 12 ой давомида тўйимлиги бир ҳил қийматига эга бўлган озуқалар билан бир ҳилда озиклантиришни амалга оширилганлигидан далолат берди.

Ўсиши ва ривожланишини тавсифловчи энг муҳим селекцион белгилардан бири бу тирик вазн ҳисобланади. Биз, сут йўналишидаги қорамоллар ва уларнинг саноат асосида чатиштиришдан олинган биринчи буғин дурагай (F_1) буқачаларни тирик вазни 2-жадвалларда келтирилган.

2-жадвал

Тажрибадаги буқачаларнинг истеъмол қилган озуқасини тирик вазн билан қоплаш кўрсаткичлари, ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)

Кўрсаткичлар	Гуруҳлар (n=10)			
	I	II	III	IV
Тажриба давомийлиги, кун	365	365	365	365
Тажриба бошидаги тирик вазни, кг	31,5±0,45	29,6±0,40	35,8±0,47	38,7±0,54
Тажриба охиридаги тирик вазни, кг	366,4±3,15	388,3±3,18	386,1±3,12	385,4±3,48
Тажриба давомида олинган мутлоқ вазни, кг	334,9±2,79	358,7±3,28	350,3±3,39	346,7±3,45
Ўртача бир кунлик ўсиш, г	917,5±7,66	982,7±8,99	959,7±9,28	949,9±9,45
Тажриба давомида сарфланган жами озуқа, озуқа бирлиги	2291,5	2309,1	2310,1	2308,9
Ўртача бир кг қўшимча вазн олиш учун сарфланган озуқа, озуқа бирлиги	6,84	6,44	6,59	6,66

2-жадвал маълумотлар таҳлили шуни кўрсатдики, саноат асосида чатиштиришдан олинган биринчи буғин (F_1) дурагай II; III ва IV гуруҳидаги буқачаларнинг 12 ойлигидаги

мутлоқ вазни соф зотли тенгқурларига нисбатан устун бўлганлиги кузатилди. Хусусан, I гуруҳдаги буқачаларга нисбатан II; III ва IV гуруҳдаги (F_1 дурагай) буқачалар мос равишда 23,8 кг ёки 6,6%; 15,4 кг ёки 4,4% ($P \leq 0,001$) ва 11,8 кгга ёки 3,4% га ($P \leq 0,01$) юқори бўлди.

Ўртача кунлик ўсиш ҳам гуруҳларда турлича бўлди, жумладан, II; III ва IV гуруҳдаги (F_1 дурагай) буқачалар ўз тенгдошлари I гуруҳ соф зотли голштин буқачаларга нисбатан 12 ой давомида ўртача кунлик ўсиш мос равишда 65,2 г (6,6%); 42,2 г (4,4%) ва 32,4 г га (3,4%) юқори кўрсаткичга эга бўлди. Шунингдек, 12 ой давомида энг юқори ўртача кунлик ўсиш II гуруҳда ($\frac{1}{2}$ аберрдин-ангус x $\frac{1}{2}$ голштин) 982,7 г ни ташкил қилган бўлса, ўз тенгқурлари I гуруҳ (соф зотли голштин), III гуруҳ ($\frac{1}{2}$ лимузин x $\frac{1}{2}$ голштин) ва IV гуруҳдаги ($\frac{1}{2}$ шароле x $\frac{1}{2}$ голштин) буқачаларга нисбатан тегишлича 65,2 г (6,6%, $P \leq 0,001$); 23,0 г (2,3%, $P \leq 0,05$) ва 32,8 г га (3,3%, %, $P \leq 0,01$) юқори кўрсаткичга эга бўлганлиги аниқланди.

ХУЛОСА

Гўшт ишлаб чиқариш самарадорлигини баҳолашда буқачаларнинг озукани тирик вазн билан қоплаш даражаси алоҳида ўрин тутади. Турли генотипдаги буқачаларнинг бир кг тирик вазн олиш учун II; III ва IV гуруҳдаги (F_1 дурагай) буқачаларда 6,44; 6,59 ва 6,66 озукани бирлигини ташкил қилган бўлса ўз тенгқурлари I гуруҳ соф зотли голштин буқачаларга нисбатан 0,45 (7,0); 0,25 (3,8%) ва 0,18 (2,7%) озукани бирлиги кам сарфланганлиги аниқланди.

Биринчи буғин (F_1) дурагай буқачаларни ирсий имкониятларини тўлиқ юзага чиқишида маҳаллий озукалардан тузилган тўла қийматли, мувозанатлаштирилган рационлар асосида озиклантириш натижасида уларни жадал ўсишини таъминлади ва юқори тирик вазнга эга бўлди ҳамда 1 кг ўсиши учун кам озукани сарфланди, бу эса гўшт йўналишидаги зотлар билан саноат асосида чапиштириш самарали эканлигини кўрсатади.

REFERENCES

1. Абдузоирова Д., Нарбаева М.К., Қахаров А. Ҳар хил генотипдаги ёш қорамолларнинг истеъмол қилган озукасини маҳсулот бирлиги билан қоплаш хусусиятлари. //Ж. “ZOOVETERINARIYA” 2012 й. №11 (60), 36-37 б.



2. Bakhtiyarova, Suyunova Z., and Amirov S. Kuzibaevich. "The Importance of Microclimate Indicators in the Dairy." International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, no. 1, 2020, pp. 1-6.
3. Жавхаров, О. З., Амиров, Ш. Қ., & Эгамбердиева, З. К. (2020). СОҒИН СИГИРЛАР РАЦИОНИДА АМИНОКИСЛОТА-ВИТАМИНЛИ ОЗУҚАВИЙ АРАЛАШМАДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. In Инновационные подходы в современной науке (pp. 141-151).
4. Javkharov, O., Amirov, S., & Abdulsaidov, B. (2021, July). MILK PRODUCTIVITY OF SWISS COW BREED. In Конференции.
5. Piyasova, J., Amirov, S., & Eshmuratova, S. (2022). QORAQALPOG'ISTONGA IMPORT QILINGAN MONBELYARD ZOTLI QORAMOLLARDAN SAMARALI FOYDALANISH. Eurasian Journal of Academic Research, 2(6), 1084-1087.
6. Кулинцев В.В., Шевхужев А.Ф., Дорохин Н.А. Эффективность выращивания и откорма молодняка симментальской породы при разных технологиях содержания и кормления. //Сельскохозяйственный журнал. 2022 г., №3 (15), с. 96-111.
7. Лукьянов В.Н. Формирование мясной продуктивности скота симментальской и черно-пестрой пород и помесей, полученных при скрещивании с быками Британской и Французской селекции. Дисс. д.с.-х.н., 06.02.10., Москва 2019 г.
8. Мадрахимов Ш.Н., Рўзибоев Н.Р. Саноат асосида чатиштиришдан олинган F_1 дурагай авлодларнинг сўт ичиш даврида озиклантириш". //Ж. "AGRO ILM" 2022 й. №06, 40-42 б.
9. Nazarovich, M. S., Dusboevich, N. E., & Kuziboevich, A. S. (2022). Improvements of the Horses of the Karabaayir Breed. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 38-45.
10. Прохоров И.П. Формирование мясной продуктивности молодняка крупного рогатого скота при промышленном скрещивании. //Автореферат дисс. д.с.-х.н., 06.02.10., Москва 2013 г
11. Садикова Ч.С., Амиров Ш.К., Эгамбердиева З.К. Симментал зотли турли ишлаб чикариш типдаги буқаларни даврлар бўйича озиклантириш хусусиятлари. Агробиотехнология ва ветеринария тиббиёти илмий журналини махсус сони Перспективные задачи разработки и внедрения инновационных технологий в ветеринарии и животноводстве. Международная научно-практическая конференция 14-15 октября 2022 г. стр. 866-871
12. Sadikova, C. S., & Amirov, S. K. (2023). MEAT PRODUCTIVITY OF SIMMENTAL BULLS BELONGING TO



DIFFERENT PRODUCTION TYPES. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS ", 2(1), 22–32. Retrieved from

<http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1119>

13. Содикова, Ч. С., Амиров, Ш. Қ., & Мадрахимов, Ш. Н. (2022). ТУРЛИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТИПЛАРИГА МАНСУБ СИММЕНТАЛ ЗОТЛИ БУҚАЧАЛАРНИНГ ЎСИШ ВА РИВОЖЛАНИШИ. Academic research in educational sciences, (Conference), 535-540.

14. Tuychievna, A. M., Kuzibaevich, A. S., Ergashevna, K. S., Tajievich, G. S., & Elmuratovna, S. F. (2021). The Use of Feed Additives in the Diet of Cattle. European Journal of Agricultural and Rural Education, 2(6), 37-39.

15. Ҳамрақулов Р., Карибаев К. Қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини озиклантириш. //Тошкент, 1999 й.

16. Шевхужев А.Ф. Мясная продуктивность молодняка, полученного от скрещивания коров молочного и комбинированного направления продуктивности с быками мясных пород (Обзор). //Сельскохозяйственный журнал. 2022 г., №2 (15), с. 103-112.

17. Ш. Н. Мадрахимов, Ш. Қ. Амиров, Э. Д. Нурбаев, Дж. Р. Садиқов, Мамарежаб Гулямович Каримов, & С. Х. Бегматов (2023). ҚОРАБАЙИР ЗОТЛИ НАСЛИ АЙЎИРЛАРНИНГ ЭКСТЕРЬЕР ХУСУСИЯТЛАРИ. Academic research in educational sciences, 4 (1), 122-130.

18. Kholbekova, M. V., & Amirov, S. K. (2022). IMPORTANCE OF MICROCLIMATE INDICATORS IN THE COWSHED. Current approaches and new research in modern sciences, 1(4), 63-66.

19. Яковенко А.М, Антоненко Т.И., Селионова М.И. Биометрические методы анализа качественных и количественных признаков в зоотехнии. //Ставрополь, Агрус, 2013 г., с. 91.



ЎЗБЕКИСТОН ХУДУДИДА ЧЎЛ-ЯЙЛОВ ЧОРВАЧИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ф. Т. Ражабов

Чирчиқ давлат педагогика университети География кафедраси мудири
г.ф.ф.д. (PhD) доц.

Р. Х. Хидиров

Чирчиқ давлат педагогика университети Аниқ ва табиий фанларни ўқитиш
методикаси (география) мутахасислиги II курс магистранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада Республикамиз чўл яйловларининг бугунги кундаги ҳолати, чўл шароитида кўйларни озуклантиришда галофитлар, эфемер ва эфемероидлар, ҳамда псаммафитларнинг аҳамияти ва географик ҳолатини инобатга олиб ҳудудий қисмларга ажратиб фойдаланиш тўғрисида сўз боради.

Калит сўзлар: чўл яйловлари, чорвачилик маҳсулотлари, чўл эрозияси, ўсимликлар, яйловлар майдони, қорақўл кўйлари, чорвачилик кластерлари, яйловлардан самарали фойдаланиш.

CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF DESERT-PASTURE LIVESTOCK IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article discusses the current condition of the desert pastures of our Republic, the use of halophytes, ephemerals and ephemeroids, as well as psammaphytes in the feeding of sheep in desert conditions, taking into account the importance and geographical location of them.

Keywords: desert pastures, livestock products, desert erosion, plants, pasture area, Karakol sheeps, livestock clusters, efficient use of pastures.

Бугунги кунда Ер шарининг чўл минтақасида иқлим шароитларини кескин ўзгариши оқибатида кумли чўлларни деградацияга учраши ҳамда тупроқларни шўрланиш даражаси ортиб, салмоқли ҳудудларнинг экологик ҳолати ёмонлашишига олиб келмоқда. Ўзбекистонда сўнгги йигирма йил ичида шўрланган ер майдонлари қарийб бир миллион гектарга ошган. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маълумотиغا кўра, шўр босган ерлар бугунги кунда Ўзбекистон умумий майдонининг деярли ўндан бир қисмини ташкил этмоқда.



Бундан ташқари, чўл минтақаси яйловларидан тартибсиз фойдаланиш натижасида ўсимлик қопламининг муҳим озубоқоп турлари камайиб, пайҳон бўлмоқда, уларнинг ҳосилдорлиги ҳамда биологик хилма-хиллиги пасаймоқда.

Ўзбекистон чўл минтақасидаги чўл-яйлов чорвачилик хўжаликлари амалиётида табиий галофитлар, эфемер ва эфемероидлар, ҳамда псаммафитлардан кенг фойдаланилади, Ўзбекистон чўл минтақасида чўл-яйлов чорвачилигини тизимли ташкил этиш ва истиқболли соҳага айлантириш долзарб вазифалар сирасига киради. Бунинг учун деградацияга учраган чўл яйлов майдонларини қайта тиклаш ҳамда истиқболли, юқори оқсилли галофитлар ва псаммафитларни етиштириш жараёнини оқилона бошқариш зарур. Иқлимнинг глобал ва регионал ўзгаришида галофитлар ва псаммафитларнинг табиий флорасидан фойдаланиш, уларнинг худудга мос турларини танлаш, ҳамда галофит бута, ярим бута ва ўтчил экотип, маҳсулдорлик ва экологик чидамли бўлган турларни танлаш, уларни етиштиришнинг юқори самарали технологиясини қўллаш орқали ўсимликларнинг озубоқоплигига эришиш мумкин.

Республикамизда кейинги йилларда Қизилқум чўлининг шўрланган тупроқлари ҳолатини яхшилаш ва шу минтақага мос, чорвачилик учун юқори озубоқоп фитомасса (пичан) тўплашга қодир, янги тўйимли галофит ва псаммафит турларини танлаш ҳамда уларни етиштириш агротехнологияларини янада такомиллаштириш борасидаги илмий изланишлар долзарб бўлиб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 мартдаги “Чорвачилик тармоғини янада ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш чоратадбирлари тўғрисида” ги ПҚ–4243-сон қарорларида чорвачиликда озубоқоп баъзасини мустаҳкамлашга катта эътибор қаратилган. Бунда айниқса озубоқоп базасини мустаҳкамлашда озубоқоп экинлар навларини тўғри танлаб экиш, бирламчи уруғчилик ишларини талаб даражасида олиб бориш бўйича алоҳида топшириқлар кўрсатиб ўтилган. Шу жиҳатдан, деградацияга учраган чўл яйлов майдонлардан юқори самарали, ҳосилдорлиги юқори бўлган озубоқоп галофитлар ва псаммафитларни етиштириш агротехнологиясини такомиллаштириш борасидаги илмий изланишлар муҳим аҳамият касб этади. [3]

Ўзбекистон Республикаси «Яйлов хўжалигини ривожлантириш» уюшмаси тасарруфидаги яйловларни яхшилаш деганда уларнинг табиий ўсимликлар қопламига деярли зиён келтирилмасдан, ўсимлик қопламида яхши ёки етарли миқдорда ривожланмаган, бироқ унувчанлик қобилияти йўқолмаган фойдали ўсимликлар уруғ заҳиралари бўлган майдонларда тупроқнинг сув-физик хусусиятларини яхшилаш, ҳамда майда шохли чорва молларини алмашлаб боқиш режаси асосида ўтлатишга қаратилган усуллар тизимини қўллаш тушинилади. [2]



xususiyni emas. ‘-gacha’ suffiksi biron bir yo’nalishning chegarasini ifodalaydi, demak, u sintaktik suffiksning jo’nalish kelishigiga kiritilishi lozim. Sifat va ravishning ozaytirma darajasini hosil qiluvchi morfologik suffiksiga oid ‘-gina(-kina,-qina)’ suffiksida hech qanday ozlikni anglatuvchi ma’no mavjud emas. Bu suffiks sifat va ravishlarga qo’shilganda o’sha xususiyatni *yoqimli* yoki *yarashimli* ekanligini ifodalab keladi, ammo morfologik suffikslik xususiyatini yo’qotmaydi. ‘-day(-dek,-doq,-aqa),-cha,-larcha’ suffikslari leksik, morfologik yo sintaktik suffikslar qatoriga emas, balki, aslida, ular suffiks ko’makchilar qatoriga kiradi. Chunki ular ‘kabi, go’yo, xuddi’ kabi ko’makchilarga ma’nodosh bo’lib keladi, ko’makchilar esa, gapda doim sintaktik munosabatni ifodalaydi, shunday ekan, demak, har qanday ko’makchi bilan o’rin almasha oladigan suffikslar suffiks ko’makchilar qatoriga kiritilib, ular imlodan chiziqcha bilan ajratilishi darkor, shuningdek, ularni ‘*suffiks ko’makchilar*’ atamasi bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir. Sodda va murakkab suffikslar tuzilishiga kelsak, sodda suffikslar nechta qo’shimchalarning birikishiga qaramay, agar gap ichida mustaqil morfemalarga ajralmasa, u holda ular o’zi qo’shilgan so’z bilan birikib sodda suffiksga aylanadi. Chunki, masalan, hozirgi o’zbek morfemikasidagi murakkab suffiks sirasiga kiruvchi ‘-garchilik’ (misol uchun ‘odam-garchilik’) qo’shimchasi biron bir so’zga qo’shib, garchi o’z ichida ikki morfemaning o’zidagina iborat bo’lsa ham, ular o’zaro alohida ‘-gar, -chi, -lik’ suffikslari sifatida mustaqil leksik suffiks bo’lgani uchun, u murakkab ko’makchi morfemaga kiradi deb, ko’rsatilgan; u holda sodda suffikslar qatoriga kiritilgan ‘-ik,-chi-ar-li’ kabi suffikslarni olsak, aslida ular ham o’zaro mustaqil ko’makchi morfemalarga ajraladi, masalan: boy-i, kura-k, son-a, quvon-ch kabi so’zlarda mustaqil ko’makchi morfema sifatida qatnashmoqda. Bundan xulosa shuki, so’zga qo’shib kelgan bir nechta suffikslar har qancha ko’makchi morfemalardan iborat bo’lishiga qaramay, agar o’z ichida birdan ortiq mustaqil yangi ma’noga ajralmasa, unda u suffikslarni sodda suffikslar qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiqroq bo’lar edi. Ot so’z turkumiga oid turdosh ot, avvalo, to’rt guruhga bo’linadi: 1. Aniq otlar; 2. Jamlovchi otlar; 3. Juft otlar; 4. Mavhum otlar. Aniq otlar o’z ichiga shaxs, buyum, o’rin, payt va jarayon otlarini kiritadi; jamlovchi otlar sanab bo’lmaydigan otlarni o’z ichiga oladi. Biroq jamlovchi otlar bilan ko’plik otlarni bir biridan farqlay bilish zarur: jamlovchi ot deganda birining yordamisiz boshqasi biron bir vazifani bajara olmasligi tushuniladi, masalan: ma’lumki, mashinaning ichki qismida bir nechta detallar mavjud, ular mator, akkumulyator, bak va hokazolardan iborat va o’sha detallarning har biri bittadan o’rnatiladi, lekin agar o’sha detallardan biri o’z vazifasini bajarmay qo’ysa, boshqalari ham ishlay olish imkoniyatidan mahrum bo’ladi; demak, ular o’zaro



jamlikni hosil qilgandagina biron bir vazifani bajara oladi. Lekin ko'plik otlarda esa, bunday majburiyat mavjud emas, ularda faqat uning sanog'i e'tiborga olinadi, xolos. Sifat turkumidagi qiyosiy darajani o'quv manbalarida to'liq tahlil qilib, yoritib berila olinmagan. Qiyosiy daraja – bir shaxs yoki buyumdagi belgining (boshqalariga nisbatan emas, balki faqat) ikkinchisiga nisbatan ortiq yoki kamligini bir-biriga taqqoslashdir; bunda belgisi taqqoslanayotgan shaxs yoki buyum miqdori faqat ikkitadan ortmasligi kerak. Agar uning miqdori ikkidandan ortsa, unda faqat orttirma daraja ishlatiladi. Sifat bilan son gapda bir hokim bo'lakka tobe bo'lib kelganda, doim ham oldin son keyin sifat kelavermaydi, masalan, maktab o'quv manbasida tushuntirilgan mana bu ta'rif xato: “mashinadan ikki bolali ayol tushdi” – bu gapdagi ayol va bolaning soni ular orasiga qo'yilgan (/) sintagmadan anglashiladi” – deyilgan. Aslida ayol va bolaning soni uni ifodalab kelayotgan son va sifat o'rnini almashtirish orqali ifodalanadi. Masalan: ‘ikki bolali ayol’ birikmasida bola ikkita, ayol bitta; ‘bolali ikki ayol’ birikmasida esa, bola bitta, ayol esa, ikkita. Olmosh ma'no turiga kelsak, unga ko'ra, shuningdek, a) birgalik olmoshi: *ozaro, bir-biri* (bu istisno tariqasida yasama emas, sof olmosh turkumiga kiritilishi darkor); b) gumon olmoshi: *boshqa, kishi, har qanday* (bu olmosh sof gumon ma'nosini anglatadi, u ‘to'pdan ajratuvchi belgilash olmoshi’ qatoriga kirmaydi), *ixtiyoriy, istagan* (bular ham – affiksatsik yasama olmosh – sifat va sifatdosh emas, biroq ‘odam, inson, shaxs’ sof turdosh otlardir); d) mavjudlik olmoshi: *bor, yo'q, mavjud, hayot* (ushbu so'z ‘hayot’ ot turkumi bilan omonim) (bular modal so'zga kirmaydi; bular – o'z ichida ‘qani’ so'rog'iga javob bo'luvchi sof olmoshdir). Bundan tashqari, jamlovchi sonlar turkumiga kiruvchi ‘-ala,-ovi,-ovlon’ suffiksi bilan yasaluvchi sonlar otlashgan xususiyatga ega emas, ular aslida olmoshlashish xususiyatiga ega. Otlashgan barcha so'zlar aslida otlashgan emas, balki *olmoshlashgan* so'zlardir, ya'ni, olmoshlashish xususiyatiga egadir (bundan faqat harakat nomi, ya'ni, ‘otdosh’ mustasno). Negaki ular o'z leksik ma'nosidan uzoqlashib ketadi. Otlashish xususiyatiga ega bo'lishi uchun, aniq bir o'zgarmas turdosh shaxs yoki buyumni ifoda etishi shart. Ammo ularni boshqa har qanday leksemalar o'rniga qo'yib qo'llash mumkin bo'lib qoladi. O'zbek morfologiyasida ‘modal’ fe'llarga ta'rif kiritilmagan. Aslida o'zbek morfologiyasida ham sof va vazifadosh modal fe'llar mavjuddir. Sof modal fe'llar quyidagilar: *kerak, zarur, shart* (bu – ‘shart’ ot turkumi bilan o'zaro omonim), *lozim, darkor, mumkin, qodir, majbur, ma'qul* (bu leksemalar sifat ham, bog'lama ham emas), bundan tashqari *iltimos qilmoq, talab qilmoq, yalinmoq, yolvormoq, o'tinmoq, zo'rlamoq, majburlamoq, majbur qilmoq (bo'lmoq), ma'qul kelmoq* fe'llari ham, aslida, sof modal fe'llar sirasiga kiradi, negaki ular ma'lum bir harakat yoki holatni ifoda etmaydi – faqat



biron bir vaziyatga bo'lgan munosabatni ifoda etadi; vazifadosh modal fe'llar quyidagilar: *olmoq* (bu fe'l '-a' suffiksi bilan tugovchi ravishdosh bilan birikib kelib, ko'makchi emas, balki modal fe'l vazifasini bajaradi), *to'g'ri kelmoq* (bu fe'l '-ga' suffiksi bilan tugovchi otdosh bilan birikib keladi), *fursati yetdi* yoki *keldi* (shuningdek, bularga sinonim bo'lgan '*vaqti* yoki *payti keldi*' birikmali vazifadosh fe'llari belgisiz qaratqich kelishigidagi otdosh shakli bilan birikib keladi). Negaki ushbu leksemalar modal fe'llar qatoriga kiritilishiga sabab, ular biron bir gapda ishtirok etganida, so'zlovchining o'sha gapga nisbatan biron bir mantig'ini (ya'ni gapning bajarilish yoki bajarilmasligini) emas, balki unga bo'lgan munosabatini (ya'ni fikrini) ifoda etib keladi. Fe'llarning zamon ifodalash mavzusiga kelganda, o'zbek morfologiyasida ular orasidagi farqli jihatga e'tibor qaratilmagan. Fe'l zamonlari har qanday tilda faqat uch qismga ajraladi: bular – o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlar. Ammo ular o'z ichida bir necha '*jarayon*'larga bo'linadi. Bu shuni ta'kidlaydiki, har qanday o'tgan, hozirgi va kelasi zamon qo'shimchalari doim ham o'z zamonini ifoda etavermaydi. Masalan: "U kitobni o'qib chiqdi" – bu gapdagi 'o'qib *chiqdi*' ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida ko'makchi fe'ldagi '-di' o'tgan zamon sintaktik suffiksi ishtirok etgan bo'lsada, ushbu gap o'tgan zamondagi gap emas, balki ko'makchi fe'l ta'sirida hozirgi zamon gapini hosil qilgan. Chunki u ko'makchi fe'l ta'siriga uchrash natijasida hozirgi zamonning tugallangan jarayonini ifoda etib kelmoqda, ya'ni u bu gapda zamonga emas, jarayonga ta'sir etib kelmoqda. Bundan xulosa shuki, har qanday ko'makchi fe'l gapda yetakchi fe'l bilan *doim* ma'lum bir jarayonni hosil qiladi, natijada u zamonga hech qanday o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Fe'lning zamon shakllariga oid mavzuda "-yapti,-ibdi,-adi' sintaktik suffikslar birikib bir butun holda zamon ifodalovchi suffikslar hisoblanadi" – deb ko'rsatilgan. Aslida ular o'zaro zamon va shaxs-son suffikslariga ajralish jihatdan bir-biridan farqlanadi: bunda '-yap,-ib,-a' suffikslari alohida mustaqil zamonni, '-ti,-di' suffikslari esa, alohida mustaqil shaxs-sonni ifoda etib kelishi lozim. Fe'lning ma'no guruhlariga oid tasniflar uning ta'rifi munosib ravishda ajratilmagan; uning tasnifida fe'llar ma'no anglatishiga ko'ra to'rt turga bo'lib ko'rsatilgan: 1) nutqiy faoliyat fe'llari; 2) aqliy faoliyat fe'llari; 3) jismoniy faoliyat fe'llari; 4) holat fe'llari. Bu yerda, aslida, nutqiy faoliyat fe'llari harakat fe'llari (ya'ni jismoniy faoliyat fe'llari) tarkibiga kiradi, negaki nutq so'zlanayotganda, o'g'izning jismoniy faoliyati natijasida harakat sodir bo'ladi, amalda biron bir jismoniy vazifa ro'y beradi; aqliy faoliyat fe'llari esa, holat fe'llari tarkibiga kiradi, negaki shaxs yoki jonzotning tasavvurida kechayotgan faoliyat amalda hech qanday jismoniy vazifani sodir etmaydi. Bundan xulosa shuki, aqliy faoliyat, tafakkur, sezgi, ruhiy – jismoniy – tabiiy holat va ko'rish



fe'llarining ja'mi – holat fe'llari tarkibiga kiritilishi zarur; nutqiy faoliyat, yumush va ishora fe'llarining ja'mi – harakat fe'llari tarkibiga kiritilishi zarur. Fe'llarning vazifa shakllariga oid otdosh shaklini hosil qiluvchi '-ish' morfologik suffiksi hamda sifatdosh shaklini hosil qiluvchi '-gan' morfologik suffiksi fe'ning majhul nisbat shakliga qo'shilganda otdosh yoki sifatdoshni emas, balki '-ish' morfologik suffiksi qo'shilganda yasama mavhum otni, '-gan' morfologik suffiksi qo'shilganda esa, yasama sifatni hosil qilib keladi, ya'ni ular ushbu holatda leksik suffiks vazifasini bajarib keladi. Masalan: kiritilish, bajarilish, yuklatilish va hokazo; kiritilgan, bajarilgan, yuklatilgan va hokazo. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu holat faqat majhul nisbatdagi fe'llarga tegishlidir; ularni o'zlik nisbatdagi fe'llar bilan adashtirmaslik lozim. Fe'ning nisbat shakliga oid 'odatlanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, yayramoq, uxlamoq, qichqirmoq, bormoq, kelmoq, o'lmoq, yaralmoq, jonlanmoq, g'am chekmoq, quvonmoq' kabi fe'llarning ba'ri o'zlik nisbatidadir. Chunki bu fe'llarning ba'zilarida '-lan' suffiksi ajratilmasa-da hamda ba'zilarida esa, hech qanday suffiks mavjud bo'lmasa-da, ular, aslida, sof o'zlik nisbatidagi fe'llar guruhiga oid so'zlardir: buning isboti shuki, ushbu fe'llardagi harakat yoki holatlar shaxsning boshqa bir narsa ustida bajarilishini emas, balki o'zi ustida bajarilishini ifoda etadi. Shuningdek, hech qanday nisbat suffiksini olmagan o'timsiz fe'llarning ba'ri 'sof o'zlik nisbat' shaklidagi fe'llar guruhiga oiddir. Unumli va unumsiz affikslar deb so'z yasovchi qo'shimchalarda: morfema asosining o'ziga ishora etuvchi negizni hosil qiluvchi affiksga – unumsiz; morfema asosidan butkul yangi tushunchaviy negizni hosil qiluvchi affiksga esa unumli affikslar hisoblanadi; masalan: sar+lavha=sarlavha, be+ma'ni=bema'ni, oq+ar=oqar, bo'ya+q=bo'yoq (unumsiz, negaki ular shunchaki ajratilganlik, asosga egalik yoki ega emaslik, tegishlilik, asosdan anglashilgan harakat-holat kabi negizlarni hosil qiladi, xolos); bar+vaqt=barvaqt [ertalab], kes+kich=keskich [pichoq yoki qaychi kabi], ov+chi=ovchi [hunar] (unumli, negaki morfema asosidan butkul yangi tushunchaviy negiz hosil bo'ladi). Bundan tashqari, ravishlarning ma'no turiga kiritilgan 'miqdor ravishi' xatodir. Negaki u noaniqlikni bildiradi va har qanday me'yordan ortiqlik yoki kamlikni ifoda etuvchi sonlar o'rnida qo'llana oladi, shu bois u 'gumon olmoshlari' sirasiga daxldordir.

REFERENCES

1. Ona tili. 5-sinf (2017 – 170 b., N.Mahmudov, A.Nurmonov);
2. Ona tili. 6-sinf (2017 – 208 b., N.Mahmudov, A.Nurmonov);
3. Ona tili. 7-sinf (2016 – 160 b., N.Mahmudov, A.Nurmonov);
4. Ona tili. 8-sinf (2014 – 144 b., N.Mahmudov, A.Nurmonov);



5. Ona tili. 9-sinf (2017 – 210 b., N.Mahmudov, A.Nurmonov);
6. Ona tili. 10-sinf (2017 – 112 b., N.Mahmudov, A.Nurmonov);
7. Ona tili. 11-sinf (2017 – 120 b., N.Mahmudov, A.Nurmonov);
8. Hozirgi o'zbek adabiy tili 1, 2, 3-kitoblar *Akademik litsey va kasb-hunar ko'llejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik*. (Toshkent – «ILM ZIYO» – 2015. – 576 b. – A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, N.Qosimova, Sh.Yusupova);
9. Ona tili. Qo'llanma va mashqlar to'plami (2016. – 416 b. – Madrim Hamrayev);
10. Ona tilidan ma'ruzalar 1, 2, 3-kitoblar *Oliy ta'lim muassasalariga mustaqil tayyorlanuvchila uchun*. (2016. – 1-480 b. – 2-512 b. – 3-432 b. – Nilufar Rasulova, Buxolida Supiyeva);
11. English Phonetics (Toshkent – 2011 – 244 b. – M.T.Iriskulov, A.S.Shatunova)
12. Учебник Испанского Языка (Москва «ЧеРо» – 2005 – 416 стр. – Е.И.Родригес-Данилевская)



O‘ZBEK YOSHLARI DUNYOQARASHIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA AXLOQIY KAMOLOT MASALALARI

Nodira Ergashovna Sultonova

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Tarix” kafedrası f.f.d (PhD) dotsent

Mohlaroyim Sultonova

Toshkent davlat stomatologiya instituti qoshidagi akademik litsey 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oilalar turmush darajasini baholash, turmush farovonligini oshirish, aholi daromadlari va iste’mol xarajatlarini o‘rganish va mavjud holatni tahlil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: turmush darajasi, statistik baholash, oilalar farovonligi, aholi daromadlari, o‘rtacha oylik ish haqi, qoniqish darajasi.

ABSTRACT

The article outlines the issues of evaluating family prosperity, increasing family welfare, analysis of income and expenditure of population and the present situation.

Keywords: statistic evaluation, family welfare, income of the population, average monthly salary, satisfaction level.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli me‘yoriy huquqiy hujjatlarida oila va oilaviy munosabatlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan davlat dasturlari sog‘lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, jismonan sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan gender tengligini ta‘minlashga qaratilgan. Oila instituti rivojlanishida qadriyatlarning o‘rni: milliy va xorijiy tajriba Oilani mehr-muhabbat va birdamlik, undagi barcha a‘zolarining bir-biriga bo‘lgan hurmati, o‘zaro ijobiy munosabatlar, farzandlarga bo‘lgan g‘amxo‘rlik va tarbiya, mas‘uliyat va burchni anglash birlashtiradi va oilaning farovonligini ta‘minlaydi. Oila institutining barqarorligi butun mamlakatning taraqqiyoti va muvaffaqiyati garovdir.[1:56]

Farovonlik – aholini zarur moddiy va ma‘naviy ne‘matlaridir, hayoti va muvaffaqiyati garovidir. Farovonlik – aholini zarur

moddiy va ma'naviy ne'matlaridir, ya'ni insonning muayyan ehtiyojlarini qondiradigan obyektlar, xizmatlar va sharoitlar bilan ta'minlash. Inson farovonligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu daromaddir, chunki u aholining tovar va xizmatlarni sotib olish hajmini belgilaydi. Aholining daromadi tadbirkorlik faolligi darajasiga va milliy daromadni taqsimlash tarkibiga bog'liq. Farovonlik darajasini o'lchash faqat aholining daromadlari va iste'moli bilan chegaralanib qolmay, yashash sharoiti xususiyatlarini, aholining madaniy-ma'rifiy darajasi ko'rsatkichlarini, salomatlik, demografiya va ekologik vaziyatni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aksariyat mamlakatlar aholi farovonligining xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan, umume'tirof etilgan xususiyatlaridan foydalanadilar, bu toifadagi baholashlarda mamlakatga xos farqlar mavjud. Masalan, Shvetsiya tomonidan ishlab chiqilgan farovonlik konsepsiyasi birinchi o'ringa mehnat sharoitlarini, keyin esa insonning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy imkoniyatlarini qo'yadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari ko'rsatkichlar tizimi inson hayotining asosiy jihatlarini qamrab oladi: sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, dam olish, tovarlar va xizmatlar iste'mol bozorining holati, atrof-muhit, shaxsiy xavfsizlik, ijtimoiy imkoniyatlar va ijtimoiy faollik. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mo'ljallangan tasnifida oziq-ovqat iste'moli, sog'liqni saqlash va ta'lim birinchi o'rinda turadi. Ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichlari hukumat qarorlari natijalarini monitoring qilish va baholash orqali mamlakat milliy maqsadlariga erishishning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib xizmat qilishi kerak. Belgilangan maqsadlarga erishish natijalari me'yoriy-huquqiy hujjatlar va kompleks maqsadli dasturlarni amalga oshirish jarayonini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar orqali kuzatib boriladi. Masalan, aholini gaz va suv ta'minoti tarmoqlarini ishga tushirish va ta'minlash ko'rsatkichlari qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish jarayonini aks ettiradi. Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, litseylarni foydalanishga topshirish hamda aholini maktabgacha, asosiy, o'rta maxsus va oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi; lekin tizimli ijtimoiy monitoring uchun har bir viloyat, shahar, tumanda dasturlarni amalga oshirishning ijtimoiy oqibatlarini aks ettiruvchi indikatorlar majmuyi va yaxlit indikator zarur. Oilalar o'z hayotini ta'minlash jarayonida ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy bilan ta'minlash, bandlik bilan bog'liq ko'plab muammolarga duch keladi, ammo har bir alohida oilaga va umuman jamiyatga xos



bo'lgan asosiy muammo – bu daromad darajasi. Oila farovonligining pastligi ularning ertangi kunga ishonchini his qilishlariga, qiyinchilik va xavf-xatarlardan himoyalanganligini his qilishlariga imkon bermaydi. Oilalar, birinchi navbatda, yosh va ko'p bolali oilalar farovonligining pastligi bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun bolali oilalarning jon boshiga o'rtacha daromadlarini oshirish, arzon uy-joy bilan ta'minlash, kam ta'minlangan ayollarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish zarurdir.[3:55] O'zbekistonda aholining turmush darajasini yaxshilash, bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. 2021-yilda aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 112,1% ni tashkil etdi, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi esa 109,9% ni tashkil etdi.113 Ikkinchi sho'bstatistik tahlillar, aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi bilvosita omillar hisoblansa, quyidagi iqtisodiy tahlillar aholi farovonligiga ta'sir qiluvchi bevosita omillar sifatida baholanadi. So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi daromadlari va turmush darajasini yanada oshirish, fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar, ish haqi va pensiyalar izchil ravishda o'sib borgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, aholi jon boshiga daromadlar, ish haqi va pensiyalarning-yildan-yilga o'sib borish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Aholining umumiy daromadlari hajmini sezilarli darajada o'sishi, asosan, umumiy daromadlar tarkibida 65,0% ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 26,3% ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan. Aholi daromadlarining oshib borishi bilan bir vaqtda mamlakatimizda iste'mol mahsulotlarining mahalliyashtirilishi hamda ularni ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholiga xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratib kelinmoqda. Shuningdek, aholining iste'mol xarajatlari tarkibi-yildan-yilga optimallashtirib, oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar barqarorlashib, nooziq-ovqat va xizmatlarga qilinayotgan xarajatlar ulushi ortib bormoqda.[5:] Ammo erishilgan yutuqlarga qaramay, qator muammolar hali ham mavjud. Odamlarni hayotdan qoniqish darajasini tavsiflovchi turli xil parametrlar shuni ko'rsatadiki, barcha aholi o'zlarining turmush darajasi va farovonligidan qoniqmaydi. Biroq so'nggi-yillarda mamlakatimiz ushbu parametr bo'yicha o'z ko'rsatkichlari yaxshilangani aholining iqtisodiy farovonligi sohasida ham yaxshilanishlar yuz berayotganidan dalolat beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda oilalar turmush darajasi va farovonligini yanada yaxshilash uchun aholi turmush darajasini baholashda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, xarajatlarning tarkibiy o'zgarishi, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganligi bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, aholi istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, zamonaviy talablar asosida ta'lim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan qoniqish kabi muhim ko'rsatkichlardan foydalanish zarur.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.
2. Maxmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. –T.: O'zbekiston.2018.b-28
3. N.I. Xasanxonova "Inson farovonligi va rivojlanish indeksi". 2013 y. 55-b
4. O'zbekiston Respublikasi aholisi daromadlari Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan. <https://stat.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Aholi turmush darajasi . <https://stat.uz/>
6. Jabborov I. O'zbeklar (ana'naviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). –T.: Shar., 2008. B-28.

SURXON VOHASINING MA'MURIY HUDUDIY HOLATI VA BOSHQARUV TIZIMI

Ahmad Abdulazizovich Qarshiyev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan hududlarda tuzilgan beklklar soni bo'yicha muammo ko'rib chiqildi. Amirlik va Surxon vohasi ma'muriy – hududiy tuzilishi ilmiy adabiyotlar va arxiv manbalari asosida muhokama qilindi.

Aniqlanishicha amirlik beklklarga bo'lib boshqarilgan, beklkni bek boshqargan. Hozirda bek lavozimini vazifasiga ko'ra hokimlarga, beklklarni esa viloyatlarga tenglashtirish mumkin.

Vohadagi mavjud bo'lgan joy nomlarining kelib chiqishi tarixiga muhim ahamiyat qaratildi. Amirlik va beklklardagi mansabdorlarning lavozim yo'riqnomalari bo'yicha nomlanishi yuzasidan terminlar o'rtasidagi farqlar ajratib ko'rsatildi

Hozirgi kunda vohada mavjud bo'lgan tumanlardagi beklklar qo'rg'onlaridagi tarixiy yodgorliklar, qadimiy shaharlar, ularga olib boruvchi yo'llar bo'ylab yangi turistik marshrutlar tashkil qilish va ularni tavsiflovchi turli tillarda maxsus sayyohlik xaritalari, bukletlar, ma'lumot ko'rsatgichlar hamda albomlarni tayyorlash taklif etildi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Surxon vohasi, Hisor bekligi, Sherobod bekligi, Boysun bekligi, Denov bekligi, mirshab, Yurchi, Qobodiyon, Qo'rg'ontepa, Nurota.

ABSTRACT

The problem of the number of principality formed in the territories of the Bukhara Emirate is considered. On the basis of scientific literature and archival sources, the administrative-territorial structure of the emirate and the Surkhan oasis is considered.

As it turned out, the emirate was divided into principality, and the principality was headed by a beg. At present, the position of principalites can be equated to governors, and principalites to regions, according to their duties.

Great importance was attached to the history of the origin of the toponyms that existed in the oasis. Differences between the terms were highlighted in connection with the appointment of officials to the emirates and provinces according to job descriptions.

Creation of new tourist routes along historical monuments, ancient cities, roads leading to them and special tourist maps, booklets, information books in different languages with their description. It is proposed to prepare stickers and albums.

Keywords: Emirate of Bukhara, Surkhan oasis, Hissar, Sherabad, Baysun, Denov, mirshab, Yurchi, Kabadion, Kurgantepa, Nurata.



KIRISH

Buxoro tarixiga nazar solar ekanmiz, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida Surxon vohasi muhim o`rin tutganligiga guvoh bo`lamiz. “Buyuk Ipak yo`li”ning Markaziy Osiyodan o`rganligi buning isbotidir. Xususan, bu hududlar g`arb va sharqni bog`lovchi asosiy xalqalardan biri bo`lganligi sababli uning strategik o`rniga yuqori baho berilgan.

Mamlakatimiz tarixida muhim o`rin tutgan, Buxoro amirligi va Surxon vohasining ma`muriy hududiy holati va boshqaruv tizimi hamda tarixiy toponimlarining tarkibi bo`yicha tasnif qilish asosida o`rganish ko`pgina tarixiy-ijtimoiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Shu bilan birga bu muhim tarixiy material Buxoro amirligi tarkibida bo`lgan Surxon vohasining aholisi, etnik tarkibini ham tasavvur etishga yordam beradi. Surxon vohasining tarixiy toponimikasining ma`muriy tizim bo`yicha qarab chiqish davlat boshqaruvining hududiy asoslarini o`rganish va tadqiq etish ham muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA METODLAR

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Surxon vohasining ma`muriy hududiy tuzilishi va boshqaruv tizimi bayon etilgan.

Surxon vohasining ma`muriy hududiy tuzilishi va boshqaruv tizimi to`g`risidagi ma`lumotlarni E.Qobulov, D.N. Logofet, P.P. Pokotilo, B.I. Iskandarov, M.R. Abdurahobova, A.B. Xoliqulov, E.Rtveladze, M.Aminov, N.A. Mayev, S.Tursunov, F.Ochildiyev kabi olimlarning tadqiqotlarida uchratamiz.

NATIJALAR

O`rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro xonligi boshqa hududlarga nisbatan alohida mavqeiga ega bo`lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Buxoro xonligi boshqaruvi mang`itlar sulolasidan bo`lgan Muhammad Rahimbiyga o`tgandan boshlab mamlakatda yakka tartibdagi boshqaruv tartibi joriy etildi. Muhammad Rahimbiyning markazlashtirish siyosatini, o`sha davrdagi Buxoro ruhoniylari, mahalliy hunarmand kosiblar va savdoganlar orasidagi badavlat kishilar ham qo`llab quvvatlaganlar.

Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo`lib, birinchi – amir, saroy amaldorlari, o`zbek urug`lari va qabila boshliqlari hamda e`tiborli din peshvolaridan tashkil topgan markaziy davlat boshqaruvi va ikkinchi mahalliy davlat boshqaruvidan iborat bo`lgan[6.B.69].

Buxoro amirligi tarkibida bo`lgan hududlar ma`muriy jihatdan beklklarga bo`lib idora etilgan[11.B.99]. Manbalarga ko`ra,

XVIII asrning o`rtalariga kelib Buxoro amirligi hududlarida ham birmuncha o`zgarishlar sodir bo`ladi. XX asr boshlarida amirlik 24 ta beklik, 7 ta alohida amloklik va 10 ta tumanga bo`linganligi keltirilsa[10.B.39], 1915-yildagi hujjatlarda mamlakat 27 ta beklik hamda 11 ta tumandan iborat bo`lganligi keltiriladi[12.B.43]. Buxoro amirlari hokimiyatining bosqichma-bosqich kuchayishi bilan o`tgan asrning 50-80 yillarida amirlik beklilari bo`ysundirilib, ularning mulklari Buxoroga qo`shib olindi. Amaldorlar o`rniga amirlar o`zlari ishongan shaxslarni bek lavozimiga tayinlaganlar va hozirda bek lavozimini vazifasiga ko`ra hokimlarga, beklilarni esa viloyatlarga tenglashtirish mumkin. Butun Buxoro amirligi 27 ta beklikga bo`lingan bo`lib, ularning asosiy shaharlari nomi quyidagicha atalgan: 1) Buxoro, 2) Nurota, 3) Qorako`l, 4) Kabaklin, 5) Chordjuy, 6) Burdaliq, 7) Kerkin, 8) Kelif, 9) Shirabad, 10) Qarshi, 11) Chirakchi, 12) Kermin, 13) Ziyoutdin, 14) Xotirchi, 15) Shahrisabz, 16) Yakkabog`, 17) Kitob, 18) Guzar, 19) Boysun 20) Hisor, 21) Denov, 22) Qo`rg`on - Tyuba, 23) Baldjuan, 24) Ko`lob, 25) Qabadion, 26) Qorategin, 27) Darvaz[3.B. 240].

XIX asrning 80-yillarigacha Sharqiy Buxoro hududida Hisor, Ko`lob, Qabodiyon va Surxon vohasidagi bekliklar kirgan. O`rganilayotgan davrning oxirlarida Buxoro amirligi 29 ta beklik (manbalarda viloyat deyilgan)dan iborat bo`lgan[11.B. 1-2].

Buxoro xonligi shimolda Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo, Samarqand va Farg`ona viloyatlari bilan chegaradosh bo`lib, chegara Amudaryoning Uch-Uchak traktidan boshlanib, sharqqa tomon cho`l makonidan o`tadi. Sirdaryo viloyatining janubiy chekkasi Nurota tog`larigacha, tik yonbag`irdan janubga Shahrisabz tizmasiga burilib, g`arbdan Samarqand viloyatini etaklab, Jom dovoni va Qoratyubinsk (To`xta-Qoracha) dovoni orqali sharqqa o`tadi. Zikr etilgan tizma, so`ngra Hisor va Oloy tizmalari bo`ylab Bokbosh dovonigacha. Bo`qbosh dovonidan (Oloy tizmasida) Buxoro xonligining sharqiy chegarasi boshlanadi, u to`g`ri janubga daryoga boradi[5.B. 27].

Oloy tizmasi taxminan Garm shahri meridianida joylashgan bo`lib, u uchta tizmaga shoxlanadi(bo`linadi); Turkiston - shimoliy, Zaravshon - o`rta va Hisor - janubiy, dastlabki ikki tizma Rossiya Turkistonining deyarli butun uzunligi bo`ylab joylashgan. Hisor tizmasi dastlab Buxoroning shimoliy chegarasi bo`ylab g`arbiy yo`nalishda cho`ziladi, so`ngra Shahrisabz bekiga yaqinlashib, janubga sekin-asta burilishlar bilan shoxlanadi(bo`linadi), yuqoriga ko`tariladi va nisbatan mayda tepaliklar bilan Amudaryoga yaqinlashadi. Chushkaguzar traktidan biroz pastroqda (Shirobodning janubida). Hisor tizmasidan g`arbiy yo`nalishda Shahrisabz tog`lari nomi ostida past tog` tizmasi ajralib, Buxoroning Samarqand viloyati bilan chegarasini tortib, asta-

sekin pasayib boradi. Hisor tizmasining tog' dovonlarining balandligi g'arbga qarab asta-sekin pasayadi.

Hisor tizmasi janubga qarab, Kofirnagon va Surxonning Surxob (Vaxsh yoki Qizil-su) oqimidan hosil bo'lgan Hisor vodiysi deb ataladigan vodiya tik pastga tushadi. Janubdan bu vodiya yuqorida qayd etilgan daryolar vodiylarini ajratib turuvchi va shimoldan janubga umumiy yo'nalishga ega bo'lgan tog' tizmalari bilan chegaralangan[5.B.29].

Hisor vodiysi Feyzobod shahridan boshlab ko'zga tashlanadi, avvalroq (sharqda) daryo darasini ifodalaydi. G'arbga qarab vodiya kengayib, asta-sekin pasayib, Hisor shahri yaqinida maksimal kengligi 20 verst (1 verst = 1066,8 metr) gacha yetadi. Surxon, Kofirnagan, Vaxsh va Qizilsu (Ko'lob daryosi) daryolarining tor vodiylari Hisor vodiysidan boshlanib, Amudaryo va Panjda tugaydigan past tog' tizmalari bilan bir-biridan ajralib turadi[5.B.30].

Ushbu tizmalarning har biri parallel zanjirlar massasidan iborat bo'lib, ularning har biri ba'zan hatto bir nechta nomlar beradi, shuning uchun ularning har biriga umumiy nom berish juda qiyin, lekin ularni asosiy tizmalarga ko'ra nomlash odat tusiga kiradi: tog'lar orasidagi tog'lar. Surxon va Kofirnagan - Bobotog', Kofirnagan va Vaxsh oralig'ida -G'azi-Malek va Vaxsh va Qizilsu o'rtasida - Qoratau. Bu tizmalarning dovonlarining balandligi 3-4 ming fut(dan oshmaydi, Bobotog' tizmasi eng baland balandlikka etadi. Buxoro tog'larining, umuman, deyarli barcha O'rta Osiyo tog'larining o'ziga xos xususiyati o'rmonning yo'qligidir. Bundan tashqari, juda kam uchraydigan yoki kichik bog'lar, yoki alohida pista va archa daraxtlari, qattiq o'rmonlar mavjud. Masalan. Kavkaz tog'larida, tasvirlangan tog'larda, ushbu holat umuman uchramaydi[5.B.30].

XVIII arsning ikkinchi yarimi - XIX asrda amirlikning boshqa hududlari kabi Surxon vohasi ham ya'niy Buxoroning sharqiy qismi Boysun, Sherobod, Denov va Yurchi bekliklariga bo'linib, Boysunda-10, Sherobodda-6, Denovda-6, Yurchida-4 amlokдорlik mavjud edi[6.B.69].

XIX asrning 50-yillariga qadar yarim mustaqil bekliklar sifatida faoliyat yuritgan Surxon vohasi hududlari, 1868 yil Rossiya-Buxoro shartnomasidan keyin, Buxoro amirligining eng asosiy siyosiy hududiga aylandi. Amirlik siyosatidan norozi bo'lganlar Hisor, ya'niy Surxon vohasi yerlariga borib joylashdilar.

XIX asrning 70-yillari Hisor va Surxon vohasi Buxoro amirligiga to'liq bo'sundirilganidan so'ng, bu yerlar amir Muzaffar tomonidan Boysun, Sherobod, Denov, Yurchi, Hisor, Qobodiyon va Qo'rg'ontepa kabi yettita beklikka bo'lindi[8.B.19].

XIX asrning 70-90 yillarida Sharqiy Buxoroning barcha

hududlari Chor hukumatining harbiy yordami bilan amir amirlikka bo`ysundirilgan Bu voqealar Sharqiy Buxoro aholisi mavqeini o`zgartira olmadi[2.B.7].

Buxoro amirligi Surxon vohasi beklklarini amirlik tarkibiga qo`shib olinishi natijasi shunga olib keldiki, dastlab, mahalliy beklar vazifasidan ozod qilinib, ularning o`rniga Buxoro amiriga sodiq kishilar bek sifatida qo`yila boshlandi.

N.Mayev ma`lumotiga ko`ra «Denov endilikda Buxoro xonligining chekkadagi shahri bo`lib, uni Buxoro amirining eng yaqin kishilaridan bo`lgan bek boshqargan[6.B.70].

M.R Abduvahobova ma`lumotiga ko`ra, Rossiya podsholigiga siyosiy tobe` bo`lgan davrda Buxoro amirligida, Rossiya imperiyasining siyosiy agentligi tuzilib, amirlikning tashqi munosabatlari, ichki ijtimoiy vaziyati Buxoroda tashkil qilingan Siyosiy agentlik tomonidan nazorat qilingan. Buxoroning bosib olingan hududlari shuningdek, Sharqiy Buxoroda ham boshqaruv tizimi asosan an`anaviy viloyat, tuman, qishloq, guzar va boshqa ma`muriy pog`onalar tizimi sifatidagi ko`rinishini saqlab qoldi[1.B.3].

Amirlikdagi viloyatlarni boshqaradigan beklar amir tomonidan lavozimga tayinlangan va faoliyati davomida sustkashlikka yo`l qo`ygan beklar ishdan olingan. Viloyat boshqaruviga tayinlangan beklar hududni mustaqil ravishda boshqarib, beklklar amlokliklarga bo`lingan.

Buxoro amirligi tarkibidagi viloyat boshliqlari hisoblangan beklar hokimiyati meros tariqasida nasldan naslga o`tmagan. Bek boshqaruv vaqtida ma`lum sabablarga ko`ra vafot etgan taqdirda, uning mol-mulki amir xazinasiga o`tar va uning merosxo`rlariga bekga tegishli mulkdan ulush ajratilmas edi[9.B.120].

A.B.Xoliqulovning ma`lumotiga ko`ra, amirlik tarkibida bo`lgan beklklar orasida Shahrisabz, Hisor, va Qarshi beklklari eng yirik beklklar bo`lib, Sherobod, Denov, Kitob, Chiroqchi, G`uzor, Karki, Karmana va Chorjo`y beklklari o`zining ahamiyati jihatdan keyingi o`rinlarda turgan. Bekklklarni boshqarish uchun amirning yaqin qarindoshlari yoki uning ishonchli kishilari tayinlangan[9.B.120].

Boysun Buxoro amirligi davrida Surxon vohasidagi uchta beklkdan biri bo`lgan[7.B.162].

Sherobod bekligi Surxon vohasi beklklar orasida o`zining hudud va aholi soni jihatidan ajralib turgan. Beklikning hududi, sharqda Surxondaryoning o`ng qirg`og`i, shimoli-g`arbda Istara arig`idan Tallashqon va Xo`jaianqo tog` etaklari, janubda Amudaryoning Qorakamar kechuvidan Pattakesar(gacha bo`lgan hududlarni egallagan. Bu davrda beklk tarkibida 7 amloklik: Talashqon, Saidobod, Gilambob, Salavot, Jarqo`rg`on, Tallimaron va Sherobod shahri atrofi aholi maskanlaridan iborat

boʻlgan[14.B.93].

N.A.Mayev Dahqorakent dovonining Serobga (Sayrob) qadar yoʻlida Buzgʻoloxona bulogʻi mavjudligi, Sherobod shahri Sherobod vohasining maʼmuriy va qisman butun Sherobod vohasining savdo markazi ekanligi, 1868 yilga qadar Amudaryoning tekis qirgʻoqlari boʻylab qoʻngʻirotlar joylashganligi haqida yozadi[4.B.82].

XVIII asrning ikkinchi yarmida Termiz oʻzaro urushlar natijasida deyarli butunlay vayron boʻlgan. Faqat Pattakesar va Solihobod qishloqlarigina saqlanib qolgan. 1894 yili Termiz xarobalaridan 8 km narida joylashgan Pattakesar qishlogʻida ruslar qalʼa qurgan. Mahalliy aholi uni “Tuproqqoʻrgʻon” deb atagan. Hozirgi Termiz ana shu Tuproqqoʻrgʻon atrofida bunyodga kelgan[7.B.127].

Termizda kasalxona tipidagi birinchi davolash muassasasi 1902 yilda qurilgan. Dastlab qabulxona va 10 oʻrinli boʻlimi boʻlgan. Doimiy ishlaydigan boʻlimida ikki feldsherdan tashqari harbiy gospitalning vrachlari har yakshanba kuni koʻngilli ravishda bemorlarni qabul qilgan.

1910 yili Termizda birinchi sanoat korxonasi – paxta tozalash zavodi va bir necha ustaxonalar qurildi. 1916 yil Buxoro – Qarshi – Termiz temir yoʻli qurilib, Termiz obodonlasha boshladi[7.B.127].

Shuningdek, Oʻzbek qishloqlari togʻlar yaqinidagi daryolar boʻylarida, Sherobod bekligining chegaradagi daryo boʻyi mintaqasida oʻtroq va yarim oʻtroq turkmanlar joylashgan. Sherobod bekligi qoʻrgʻonini baland togʻ tepaligi ostida qurilgan mustahkam ark, yaʼni qalʼa himoya qilib turishi, qalʼa uch qator devor bilan oʻralgani, bekning uyi qalʼaning markazida joylashgan boʻlib, kichkina mudofaa istehkomi boʻlgan[4.B.83].

N.A.Mayevning asosiy kasbi harbiy soha[4.B.5] boʻlib, u arxeologiya, tarix va etnografiya fanlariga qiziqib, beklilik nomi boʻlgan Sherobod soʻzining kelib chiqishi haqida quyidagicha maʼlumot keltiradi: Sherobod nihoyatda qadimiy shahar boʻlib, mahalliy ziyolilarning aytishlariga koʻra, uning devorlari Iskandar Zulqarnaynning qoʻshinlarini koʻrgan. Oʻsha paytlarda Sherobod Shahri Xaybar deb atalib, shaharning bu nom bilan nomlanishiga Shahri Xaybar (Sherobod) shahrining birinchi asoschisi Otaullo eshon Mir Xaybar ismli obroʻli xalq vakili nomiga qoʻyilgan. U yerda otashparist tojiklar yashagan.

Islom dinining oʻrnatilish jarayonida, Sherobod toʻrtinchi xalifa hisoblangan Ali ibn Abu Tolib (656-661)ning jasorat maydoniga aylangan. Uning qoʻshinlari Shahri Xaybarni hamla bilan olganda kuzatib turgan Alining oʻtirgan joyida sharq musulmonlarining barcha muqaddas joylarida boʻlgani kabi toʻgʻ koʻtarib qoʻyilgan. Ushbu jangda Ali

ko`rsatgan jasoratdan so`ng Sherobod ham o`zining haqiqiy nomini olib, Allohning sheri deb atala boshlangan ekan. Shu sababli Shahri Xaybar Alining sharafiga Sherobod, ya'ni sher shahri deb atalgan ekan.

Shahri Xaybar (Sherobod) shahrining asoschisi Otaullo eshon Mir Xaybarning qabri hozir ham shahardan ikki verst(uzoqlikda sharqiy tomondagi shaharni o`rab turgan tog`lar tepasida joylashgan.

Shuningdek, N.A.Mayev Sherobodning tarkibida 5 ta amlokdorlik bo`lib, har bir amloklikda 3-5 tadan qishloqlar mavjudligi haqida to`xtaladi[4.B.84].

V.V.Bartold yozishicha, Sherobod hozirgi nomini XVIII asr boshlarida olgan bo`lib, Sheroboddaryoning o`ng sohilida qal'a qurgan qo`ng'iroq urug'idan hukmdor – SHER Ali (SHERALIXON) nomi bilan atalgan. Yana bir taxmin shuki, Sherobod – "bosh rabot", ya'ni "bosh bekat" ma'nosini anglatadi[7.B.127].

Sheroboddaryo oqib keladigan tog` darasi yoqalab Turkistonni Afg'oniston va Hindiston bilan bog'lovchi muhim savdo yo`li o'tgan. Sheroboddan 3 km shimolda mahkam istehkomli Nondahana (non yo`li) inshooti joylashgan. XIX asr – XX asr boshlarida bu yer maxsus boj yig'iladigan joy bo'lganligi uchun shu nom bilan atalgan. Bu yerda Sheroboddaryodan ko`p kanal va ariq shaxobchalari chiqqan. Binobarin, Nondahana faqat karvon yo`lini emas, suv taqsimotini ham nazorat qiladigan joy bo'lgan. XIX asr – XX asr boshlarida Sherobod Buxoro amirligiga qarashli katta beklıklardan hisoblangan[7.B.206].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Surxon vohasi ma'muriy-boshqaruv tizimida an'anaviy xususiyatlar saqlanib, ammo mahalliy muarrixlar va arxiv manbalarida amirlik ma'muriy tizimda o`zgarishlar ham bo'lgan. Amirlik ma'muriy-boshqaruv tizimidagi o`zgarishlar markazdagi ichki iqtisodiy-siyosiy o`zgarishlar bilan bog'liq holda o`zgarib turgan. Amirlikda yangi aholi manzillarining paydo bo'lishi va shakllanishi daryo bo'ylari va vohalarda vujudga keldi.

- Shuningdek, Buxoro amirligi tarkibiga kirgan hozirgi Surxon vohasi hududi XVIII asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida siyosiy jihatdan tarqoq bo'lib mustahkam siyosiy ma'muriy boshqaruvga ega bo'lmagan;

- Hududlardagi amaldorlar o`rniga amirlar o`zlarinig yaqin qarindoshlari va ishongan shaxslarni bek lavozimiga tayinlagan. Hozirda kunda bek lavozimini vazifasiga ko`ra hokimlarga, beklıklarni esa viloyatlarga tenglashtirishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Abduvahobova M.R. Qo`shbegi arxivida tarixiy toponimlar va Buxoro amirligining ma'muriy-hududiy tizimi. – Toshkent, 2006. –B. 3
2. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и Зап Темур в конце XIX в).-М.: Восточ. Лит, 1958.-С.7.
3. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб., 1911. – Т.1. –С. 240.
4. Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Санк-Петербург, 1879. С. 180. Бухоро хонлиги ocherklari. Rus tilidan Ismoil Botirov tarjiması.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – В.84.
5. Покотило П.П. “Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г.”. – Ташкент: Окружного штаба, 1888-с 30.
6. Qabulov E.A. Surxon vohasi xo`jaligi. –Toshkent: Akademnashr, 2012. –B. 69.
7. Rtveladze E. Aminov M. Surxondaryo. ”. – Toshkent: Qomuslar, 1996-B 206.
8. Surxondaryo VDA, 252-jamlanma, 2-ro`xat, 109-ish, 19 varaq.
9. Xoliqulov A.B. XIX-XX asr boshlarida Qashqadaryo beklklari. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi. -Toshkent, 2011. В-120. (Полк. Галкин. Краткий военного-статистический очерк района полевой поездки офицеров Генерального Штаба Туркестанского военного округа в 1889 году в Бухарском ханстве в южной части Самаркандской области // Сборник географических, топографических и статических материалов по Азии. – СПб.: Военная типография)
10. O`zMA. 1-jamg`arma, 34-ro`xat, 791-ish, 32-orqa varaq.
11. O`zMA. 2-jamg`arma, 1-ro`xat, 251-ish, 99-varaq.
12. O`zMA. 126-jamg`arma, 1-ro`xat, 51-ish, 43- varaq.
13. O`zR MDA. I-126-jamg`arma, 1-ro`xat, 69-ish, 1, 2-varaq.
14. O`zR MDA, I-126-jamg`arma, 2-ro`xat, 71-ish, 93-varaq.



NEW TEACHING METHODS AND THE BENEFITS TO MODERN EDUCATION

Nurjakhon Maxamadumar kizi Karimova

UzSWLU student

karimovanurjahon27@gmail.com

Nodira Fayzulla kizi Mamatkulova

UzSWLU teacher

ABSTRACT

In the developing century, demand for education is increasing day by day. For this reason, along with this, new methods for teaching and increasing the quality and efficiency of the curriculum are also required. This article will cover the new methods of teaching and their introduction.

Keywords: teacher, learner, modern methods, learner-centered method, traditional method, student's skills, teaching style, collaboration, prefrontal cortex, curriculum of teachers.

*"Education is not the learning of facts
but the training of the mind to thing" (Albert Einstein)*

INTRODUCTION

If we talk about the meaning of modern teaching methods, according to our research, they are learner-centered and based on learners' activities. With this methods, the learner is acknowledged as the main driver behind curriculum planning and teaching. Using this approach, students can learn not only the subject they are studying, but also the fundamentals of the career path they intend to pursue in the future. Furthermore, because students have learned main skill on their own, the teacher has more time to teach a new topic about subject and can use that time to explain the objects of subject.

Now I want to give a description of the old teaching method using Joe Ruhl's words. Joe Ruhl is a biology teacher in Lafayette. This is how the old method was described in his presentation on the topic of "inspiring students for the future":

- I think probably most of us remember the teacher-centered classroom; this is probably what we are familiar with from our youth. You remember the teacher was up front in the

center, the students were in nice rows, not allowed to talk to each other, and the teacher, the source of authority, downloaded information to the kids, which regurgitated it back up on a test designed to measure how much content they could remember.

MATERIALS AND METHODS

It is true what Joe Ruhl said. Almost two years ago, we learned all subjects in this way which we listened to the teacher's whole lesson, memorized new information about new topic. But we had never attend to teaching process. Furthermore, due to the limited time, the teacher was assigned the task of explaining the topic to the students, as well as receiving the tasks given on the previous topic, during this short period of time; that is, it takes extra time to deal with the students one by one to determine their interests. Moreover, only a few students displayed their skills during this lesson. To be completely honest, the old way would be tiring for teachers and boring for students.

There have been noticeable changes in teaching style over the last years. The student-centered approach has replaced the previously described listening and memorizing in the educational system and it is demonstrating its substantial advantages. Today's educational approach, however benefits not only the student but also the teacher. It is used by almost half of the world. Additionally, many problems can be solved if teachers use these new methods during their lessons instead of conventional and ineffective methods, and if they teach their students in a more scientific manner. We can count unemployment as one of these problems. They prevent the increase in unemployment among young people. Because, like some generations of past, they are not just listeners or just doers, but teachers will produce mature experts in their field using this methods. And the masters of their profession have always been able to find their place and career in any situation. Moreover, as opposed to traditional teaching methods, new teaching methods focus more on questioning, demonstration, explaining, practical, collaboration methods and being more activity-based.

We have determined that the new methods are more useful than previous one. Now consider the advantages of these methods for people and their study life. To begin with, it has a significant impact on their mental development. They apply what they have learned using the new, modern methods. All of us know that practically learned things stay in person's mind for a long time and encourage him to try thoughts and ideas. Students are constantly encouraged by teacher who uses this method. For instance, if student teach his



or her groupmates, at the end of the lesson teacher give feedback about student's teaching strategy and we know that it will be good point and give some suggestions for next lesson. As a result, not only does the student's interest in science grow, but so does his self-esteem. I am not mistaken in saying that young people with great self-confidence will be a solid foundation for the future. Secondly, they activate the prefrontal cortex. Some questions may arise in your mind: what is prefrontal cortex. Not all people know about that there is such a place in our brain and it called as prefrontal cortex. It is the cerebral cortex covering the front part of the frontal lobe. This brain region has been implicated in panning complex cognitive behaviour, personality expression decision making and moderating social behaviour. We learned from this information that our every action is planned in this part of brain. Modern teaching techniques stimulate that part of the brain, encouraging people to create and plan new things. We know that the more people think or executes, the more creations expend a person's worldview. Because these new methods encourage people to think, the brain develops and thinking expands. As a result of these methods, a person with a developing opinion emerges in society.

RESULTS AND DISCUSSION

At this point in our article, another question arises: why are new methods needed?

First of all, consider how young people the primary users of these methods, were in the past and how they are now, as well as the factors that influenced them both periods.

Previously, the main factors influencing students were teachers and books. Furthermore, there were no any electronic devices like smartphones, lap-tops or things known as the internet like there are today. They only wrote and learned what they heard from their teacher or got some information from books. In one word, there were no any electronic gadgets to distract or indulge their imaginations or focus. If they wanted to do something in their free time, they spent it for walking, reading or conversation with their friends.

When it comes to today's youth, there are main factors for study which we said. But in 21st century, there are numerous factors that cause they lose focus or concentrating on their studies. Whether we like it or not, 21st century technology era has made them a part of our life, without them, we cannot even do some tasks. According to some facts, the memory and concentration of today's generations have decreased by several percent when compared to



previous generations. This means that they have lost their most important abilities because of these technologies.

In response to our question, we need these methods not only to make this indicator equal to the previous one, but also raise it above it.

Finally, we have the last question: which method is more useful for today's learners, traditional or modern?

Faqat turmush tarzi va tibbiy yordam - ta'sir ko'rsatish imkoniyati (modifikatsiyalanishi mumkin) bo'lgan ijtimoiy omillardir. Bulardan tibbiy yordam, klinik tibbiyot vujudga kelib bo'lgan kasalliklarni davolashga va salomatlikni tiklashga yo'naltirilgan [16].

Insonning sog'lom va to'g'ri turmush tarzi turli kasalliklarning oldini oladi, lekin ularni chaqirmaydi, ya'ni yangilarini vujudga keltirmaydi. Aynan sog'lom turmush tarzining qoidalariga rioya qilmaslik talaba yoshlarning ijtimoiy muammolarini kelib chiqishini asosiy sababchisi hisoblanadi.

Turmush tarzi va harakatlanish faolligini qarab chiqishda ular, ko'p jihatlar bo'yicha, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, moddiy shart-sharoitga bog'liqligi bilan birga, undan ham ko'proq darajada aniq (konkret) insonning qiziqishlariga, ruhiyatining xususiyatlariga, ma'naviy va madaniya an'analarga, oilaviy tarbiyaga, ta'lim darajasiga bog'liqligini ham inobatga olish kerak va juda muhim [3, 17].

Sog'lom turmush tarzi (STT), harakatlanish faolligi, insonning mustahkam sihat-salomatligini ta'minlaydigan darajadagi mehnat, dam olish, o'zini ijodiy namoyon qilish faoliyatlari, faol uzoq umr ko'rish, hamma yosh davrlarida shaxsning garmonik rivojlanishi turmush tarzining muhim aspektlari hisoblanadi.

STT va harakatlanish faolligi quyidagi asosiy tashkil qiluvchi komponentalardan iborat: mehnat va dam olishning ratsional rejimi, yomon odatlarni tark etish, optimal harakatlanish faolligi rejimi, shaxsiy gigiena, chiniqish, to'g'ri ovqatlanish va shu singarilar. Olingan natijalar umumlashtirildi va statistik tahlil qilindi [4, 5, 6].

NATIJALAR

STT va harakatlanish faolligining har bir asosiy tashkil qiluvchi komponentalari, bir tomondan, o'zi - har biri, ikkinchi tomondan, boshqa hayot faoliyati komponentalari to'plami bilan birgalikda katta ahamiyat kasb etadi. Aynan Talaba yoshlar salomatligi va harakatlanish faolligining ijtimoiy muammolari, xususan, yoshlar salomatligini mustahkamlash va harakatlanish faolligi darajasini oshirish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzi va harakatlanish faolligiga munosabatlari masalalari tadqiqot predmeti bo'ldi.

Pedagogik tadqiqotlar 2022-2023 o'quv yilining boshida Chirchiq davlat pedagogika universitetining fizika, matematika, informatika, maktabgacha tarbiya va biologiya fakul'tetlarining 1- va 2-bosqich talabalari bilan o'tkazilgan bo'lib, ushbu maqolada tajriba boshida olingan dastlabki natijalar va ularning tahlili keltirilgan. Tadqiqotlarda anketa o'tkazish usulidan foydalanildi va ularda jami 848 nafar talaba ishtirok etdi. SHulardan 424 tasi nazorat (NG) va qolgan 424 tasi tajriba (TG) guruhlari tarkibiga kiritildi. Respondentlarga oldindan ishlab chiqilgan anketa savollariga javob berish taklif etildi.

Javoblarni tahlil qilish quyidagicha manzarani aniqlash imkonini berdi. «O'z salomatligingiz darajasini bir yil davomidagi ahvolini baholang» degan savolga ko'pchilik talabalar, ya'ni 1-bosqich talabalarining 66,27 foizi (281 talaba) va 2-bosqich talabalarining 64b39 foizi (273 talaba) uning darajasini qoniqarli deb baholagan.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga qatnaydigan talablar orasidagi tibbiyot vakillari ruxsat bermayotgan maxsus guruhga kiritilganlar soni talabalar umumiy sonining taxminan 34-39 foizi atrofida o'zgarmas holdaligi aniqlanganligini ta'kidlash lozim. SHuning bilan birga, talablarda uchraydigan asosiy kasalliklar ko'z patologiyasi va tayanch-harakatlanish apparati kasalliklari ekanligini va ancha kam darajada yurak-qon



tomir va nafas olish tizimlari kasalliklariga to'g'ri kelgan ekanligini ham ta'kidlab o'tish kerak. Bu esa talabalarning ushbu savolga javobining izohi bo'lishi mumkin, chunki yosh organizmning fiziologik va funksional imkoniyatlari salomatligining og'ishini ancha bemalol kompensatsiyalay oladi. Ushbu kasalliklar talaba-yoshlarning harakatlanish faolligi darajasiga, o'zlarini his qilishiga va kayfiyatga ta'sir salbiy ko'rsatmaydi.

Keyingi taklif etilgan savol talabaning keyingi oylar davomida o'z harakatlanish faolligi darajasiga taalluqli edi. Olingan javoblarning tahlili 1-bosqich talabalarining 213 nafari (50,24 %) va 2-bosqich talabalarining 297 nafari (70,05 %) o'rtacha darajadagi harakatlanish faolligini saqlayotganligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkoniyat berdi.

Keyingi savol: jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida qo'llanayotgan jismoniy yuklamalar darajasi bilan bog'liq bo'lib, unga ko'pchilik talabalar, ya'ni ularning 83,96 foizi (712 kishi) jismoniy yuklamalar darajasini etarlicha deb hisoblaydi. Bu, o'z navbatida, to'g'ri tashkil etilgan o'quv jarayonini hamda adekvat tanlangan jismoniy yuklamalarni tavsiflaydi (xarakterlaydi).

«O'z salomatligingiz darajasini oldingi yilga nisbatan qanday baholaysiz?» – degan savolga talabalarning 543 tasi (64,03 %) yomonlashmaganligini bildirishgan. Bu esa ularning o'zlari uchun eng optimal o'qish va dam olish rejimlarini topganligi bilan izohlanadi.

Muntazam va optimal me'yordagi jismoniy yuklamalarni bajarish esa umumiy ish qobiliyatni oshirishga mustahkam zamin yaratadi, talabaning organizmini trenirovkalantiradi, tobora asta-sekinlik bilan ortib borayotgan jismoniy va aqliy yuklamalarni bajarishga rag'batlantiradi va moslashib borishini ta'minlaydi, shuning bilan birga funksional adaptatsiyaga olib keladi.

1- va 2- bosqich talabalarining yarmidan (50 foizdan) ko'prog'i tizimli ravishda muntazam uyquga to'ymayapganligini e'tirof etishlariga qaramay, ularning yomon odatlarga munosabatlari ancha ijobiyliги kuzatildi. CHunonchi, ularning 594 tasi (70,05 %) tamaki mahsulotlarini chekishga va 712 nafari (83,96 %) spirtli ichimliklar istemol qilishga salbiy fikr bildirganlar.

Ommaviy axborot vositalarining (OAV, internet, televidenie, radio, gazetalar, jurnallarning) talabalar tomonidan harakatlanish faolligi darajasini saqlash va sog'lom turmush tarzi tartib-qoidalariga rioya qilish to'g'risida gapirsak, talabalarning 81,01 foizi (687 nafari) sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladigan kengmasshtabli axborot oqimi kirib kelayotgan hozirgi muhitda OAVlari orasida sog'lomlashtiruvchi ommaviy sport turlarini, tomoshabop sport tadbirlarini, zamonaviy fitnes

yo'nalishlarini ijobiy tashviqot vektori yo'naluvchanligi kuzatilayotganligi ta'kidlangan. Qolgan 18,98 foiz (161 nafar) talabalar uchun esa bu axborotlarni, afsus-ki, qizig'i yo'q ekan.

O'zining harakatlanish faolligi darajasini talabalarining 24,06 foizi (204 nafari) yuqori, 41,98 foizi (356 nafari) o'rtacha va 33,96 foizi (288 nafari) past deb baholagan. Yoshlarimizning o'z salomatligi qadriyatiga va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan harakatlanish faolligi darajasiga befarqligi kundalik hayotimizda tobora ko'proq uchrab borayotgan jamoat transportidan foydalanganda (bekatdan o'zi turgan joygacha bo'lgan 10-15 qadamli) qisqa masofani ham yayov yurishga erinishlari achinarli holdir.

Shuningdek, taklif etilgan savollarga "yaxshi", "o'rtacha" va "yomon" singari uchta javob varianti taklif etilgan to'rtta savollar guruhidan «Harakatlanish faolligi darajasining yosh davrlari bo'yicha normalarini bilasizmi?», «Sog'lom turmush tarzining asosiy elementlarini bilasizmi?», «STT va harakatlanish faolligi darajasi inson salomatligiga qanday ta'sir etishini bilasizmi?» va «Harakatlanish faolligi darajasini qabul qilingan me'yorlariga qay darajada rioya qilasiz?» savollariga NGda "yaxshi" deb, mos ravishda, 47 tasi (11,08 %), 55 tasi (12,97 %), 76 tasi (17,92 %) va 38 tasi (8,96 %) respondent hamda TGda, mos ravishda, 51 tasi (12,03 %), 51 tasi (12,03 %), 81 tasi (19,10 %) va 43 tasi (10,14 %) nafari javob berishgan. Afsuski bilmaydiganlar ham anchagina ekan, ya'ni respondentlardan NGda, mos ravishda, 178 tasi (41,98 %), 165 tasi (38,92 %), 119 tasi (28,07 %) va 191 tasi (45,05 %) respondent hamda TGda, mos ravishda, 182 tasi (42,92 %), 178 tasi (41,98 %), 110 tasi (25,94 %) va 182 tasi (42,92 %) nafari bilmasligini e'tirof etishgan. Ushbu to'rtta savollar guruhi bo'yicha NG va TG talabalarining javoblari asosida hisoblangan konkordatsiya koeffitsientining son qiymati $W=0,49$ ga tengligi aniqlandi va bu ushbu hol uchun gradatsiyaning o'rtachadan yuqori darajasi ekanligini va demak anketa surovomasi muvaffaqiyatli o'tganligini tasdig'i hisoblanadi.

Keyingi turli ko'rsatkichlarni oldingi yilga nisbatan qanday baholash to'risidagi 10 ta savolimizga respondentlar javoblarini quyidagicha bo'ldi:

O'zining STT bo'yicha bilimlarini so'rovnomada ishtirok etgan talaba-yoshlarning 26,06 foizi, ya'ni 221 nafari "yaxshi" va 62,97 foizi, ya'ni 534 nafari "o'zgarmagan" deb belgilagan. Qolganlari (10,97 %, ya'ni 93 nafari) salbiy tomonga o'zgarganligini ta'kidlashgan. Shuningdek, o'zining harakatlanish faolligi tartib-qoida, me'yorlariga rioya qilish darajasini respondentlarning 229 afari (27,00 %) "yaxshi" va 458 nafari (54,01 %) "o'zgarmagan" deb hisoblaydi. Qolgan 204 tasi (18,99 %) salbiy tomonga

o'zgarganligini bildirganlar. SHunday qilib, ushbu STT bilimlari va harakatlanish faolligiga rioya qilish bo'yicha, mos ravishda, 755 ta (89,03 %) va 687 ta (81,01 %) talabalar salbiy o'zgarmaganligini e'tirof etilgan. Bu oliy o'quv yurtidagi ta'lim tizimida va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ularga zaruriy nazariy bilim berishga va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor etarlicha ekanligini ko'rsatadi. Biroq, ayrim yoshlarning o'z salomatligi va harakatlanish faolligiga e'tiborsizligi bu yo'nalishdagi faoliyatni davom ettirish (yangi vosita va usullardan foydalanish) maqsadga muvofiqdir, chunki talaba-yoshlar orasidagi "o'zgarmagan" deb belgilagan asosiy qismining ham ijobiy tomonga o'zgartirishga erishish yaxshi bo'ladi.

Shuningdek, o'z jismoniy takomillashish darajasini oldingi yilga nisbatan 195 nafar talabalar (23,00 %) "yaxshi" va 449 nafari (52,95 %) "o'zgarmagan" hamda salomatligi darajasini 187 tasi (22,05 %) "yaxshi" va 441 tasi (52,00 %) "o'zgarmagan" deb baholagan. Demak, o'z jismoniy takomillashishi va salomatligi darajasini, mos ravishda, 644 ta (85,95 %) va 628 ta (74,05 %) talabalar oldingi yilga nisbatan ijobiy deb hisoblaydilar. Buni talaba-yoshlarning kundalik rejimi va ta'lim olish tizimi to'g'ri tashkil etilganligi natijasi deb tutushuntirish mumkin. Biroq, ushbu ikki ko'rsatkich bo'yicha taxminan har to'rtta talabadan biri (ya'ni, mos ravishda, 24,06 % va 25,94 %) bu boradagi ijobiy o'zgarishlarga erishishlari maqsadga muvofiq.

Mamlakatimiz miqyosida harakatlanish faolligi darajasini oldingi yilga nisbatan 27,95 % (237 ta) talabalar "yaxshi" va yarmiga yaqini, ya'ni 48,00 % (407 tasi) "o'zgarmagan" hamda 24,06 % (204 tasi) salbiy deb baholaganlar. Bu boradagi 75,95 % (644 nafar) yoshlarni ijobiy fikri mamlakat va hukumat rahbarlarining talaba-yoshlar salomatligiga bo'lgan katta e'tibori natijasidir.

STT va harakatlanish faolligi darajasini oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash bo'yicha ahvolni oldingi yilga nisbatan "yaxshilangan" deb taxminan har to'rt talabadan biri (25,00 % yoki 212 ta va 24,06 % yoki 204 ta), "o'zgarmagan" deb talabalar umumiy sonining yarmi atrofida (50,94 % yoki 432 ta va 48,94 % yoki 415 ta talabalar) deb fikr bildirganlar. Ushbu ikki muhim masala bo'yicha ham taxminan har to'rtta talabadan biri (ya'ni, mos ravishda, 24,06 % yoki 204 ta va 27,00 % yoki 229 ta talaba) bu boradagi salbiy fikr bildirganligi, soha mutaxassislari tomonidan uslubiy tomonga e'tibor qaratib ijobiy o'zgarishlarga erishishlari maqsadga muvofiq bo'lardi.

Navbatdagi, «STT va harakatlanish faolligini o'rganish tizimida zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish holatini oldingi yilga nisbatan qanday baholaysiz? » degan savolimizga olingan javoblar orasidan 23,00 foiz (195 nafar) talabani fikri "yaxshi", 48,00 foiz

(407 tasi) “o’zgarmagan” degan va afsus-ki, o’rganilgan savollar orasida eng katta salbiy javob, ya’ni 29,01 % (246 ta talaba) kuzatildi. Demak-ki, bu yo’nalish jiddiy e’tiborni talab qiladi.

Talaba-yoshlar uchun eng qiziq savol hisoblangan, ya’ni STT va harakatlanish faolligi bo’yicha o’z nazariy bilimlarini oldingi yilga nisbatan ijobiy o’zgarishini 220 nafar (25,94 %) va “o’zgarmagan” deb yarmi, ya’ni 424 nafar (50 %) talabalar e’tirof etishgan. Salbiy fikrdagilar 204 kishini (24,06 %) tashkil etdi.

Respublikamiz miqyosida STT va harakatlanish faolligini oshirish bo’yicha olib borilayotgan ishlarni oldingi yilga nisbatan respondent talabalarning 229 tasi (27,00 %) ijobiy va 441 tasi “o’zgarmagan” deb, ya’ni asosiy ko’pchilik qismi (79 % dan ko’proq) ijoby baholaganlar.

Turli ko’rsatkichlarni oldingi yilga nisbatan qanday baholash to’risidagi 10 ta savolga javoblar bo’yicha natijalar asosida hisoblangan konkordatsiya koeffitsienti $W=0,34$ ga teng bo’ldi.

Shuning bilan birga, talabalarni jismoniy tarbiyaga qiziqishlarini o’rganish maqsadida ularga sog’lom turmush tarzi malaka va ko’nikmalarini shakllantirishga yo’naltirilgan bilimlar minimumi uchun zarur bo’ladigan «Jismoniy tarbiya va sport, sog’lomlashtirish bo’yicha adabiyotlarni o’rganasizmi? yoki Bu sohadagi qiziqarli jurnal va boshqa manbalarni qidirasiz mi?» degan savollar bilan ham murojaat qildik. Ushbu savollar bo’yicha bildirilgan fikrlar talaba-yoshlarga ko’proq sog’lomlashtirish yo’nalishidagi ma’lumotlarni etkazish hamda sport bilan shug’ullanishning afzalliklari to’g’risida suhbatlar o’tkazish va bajarilishi maxsus moslamalarni talab qilmaydigan jismoniy faoliyatni tashviqot qilish kerak degan xulosaga olib keldi.

XULOSA

Yuqorida zikr etilgan fikr-mulohazalardan bugungi kundagi bizning asosiy vazifamiz bo’lg’uvchi yosh mutaxassisning umumiy yuksak madaniyatining ajralmas komponentasi hisoblangan hamda uni keyinchalik o’quv, ijtimoiy, kasbiy faoliyatda va oilada muvaffaqiyatli tadbiq qila oladigan talaba yoshlarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ekanligi kelib chiqadi. Shu munosabat bilan yosh organizmning hartomonlama va garmonik rivojlanishiga ta’sir o’tkazish, sihat-salomatligini saqlash va mustahkamlash, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, bo’lquvchi yosh mutaxassisning kasbiy muhim jismoniy sifatlarini va psixomotor qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalarini hal qiladigan ta’lim muassasasidagi o’qituvchining rolini kuchaytirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuning bilan birga, talaba-yoshlarning jismoniy o'zini o'zi takomilashishiga va ta'lim muassasasida muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun salomatligi, harakatlanish faolligining kerakli darajasini saqlab turishiga ehtiyojini shakllantirishga katta e'tibor qaratish, shuningdek jismoniy tarbiya va sport vositalaridan foydalanib o'zining dam olish va sog'lomlashish jarayonini mustaqil tashkil qilish malkak va ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratib borish kerak. Talabaning sog'lomlashish bo'yicha ijtimoiy muammolarini hal qilishda jismoniy tarbiyaning nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslari bilan chambarchas bog'langan falsafiy, ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va psixologik-pedagogik mavzularni qamrab olgan «Jismoniy tarbiya» fani bo'yicha o'zlashtirgan bilimlar majmuasi muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Akbarov, A., Allamuratov, SH.I., Buriev, B.U., Ernazarov, G.N., Ulug'murodova G.J. & Xolikov B.X. (2020). Uroven' dvigatel'noy aktivnosti i zoj studentov pedagogicheskogo VUZA. Zdorovyy obraz jizni i oxrana zdorov'ya, 9-10.
2. Akbarov, A., Buriev, B.U., Adasheva, MU. (2020). Otnoshenie studentov pedagogicheskogo vuza k dvigatel'noy aktivnosti, Olimpiyskiy sport i sport dlya vsekh, 162-164.
3. Akbarov A. (2016). Potrebnost' i rol' zdorovogo obraza jizni v soznanii uchaщeysya molodeji. Problemy i perspektivy fizicheskogo vospitaniya, sportivnoy trenirovki i adaptivnoy fizicheskoy kul'tury», 428-431.
4. Akbarov, A. (2020). Sportda matematik tahlil usullari", o'quv qo'llanma, UzDJTSU, " [http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda matematik tahlil.pdf](http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda%20matematik%20tahlil.pdf)
5. Akbarov, A. (2021). Sportda pedagogik tadkikot natijalarini interpretatsiya kilish usullarini solishtirish, Fan-sportga, № 6, 62-64.
6. Akbarov, A. & Musaev, B.B. (2014). Sport metrologiyasi, darslik. UzDJTSU. Tafakkur qanoti. [http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda matematik tahlil.pdf](http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda%20matematik%20tahlil.pdf).
7. Amosov, N. M. (1979). Razdum'ya o zdorov'e. Molodaya gvardiya.
8. Brexman, I. I. (1990). Valeologiya – nauka o zdorov'e. FiS.
9. Kabachkova, A.V. (2019). Otsenka nedel'noy dvigatel'noy aktivnosti studentov na osnove oprosnika GPAQ, Teoriya i praktika fiz.kul'tury, 11, 46-47.
10. Kuz'mina, O.I., Lebedinskiy, V.YU., & SHvachun O.A. (2020). Sovremennyye tekhnologii pedagogicheskogo vozdeystviya i novyye vidy dvigatel'noy aktivnosti v zdorov'esberejenii studencheskoy molodeji, TPFK, 1, 14-16.
11. Milashechkina, E.A., & Djandarova T.I. (2018). Otsenka urovnya fizicheskogo razvitiya i funktsii dyxaniya studentok



spetsial'noy meditsinskoy gruppy s raznym ob'emom dvigatel'noy aktivnosti, Teoriya i praktika fiz.kul'tury, 4, 17 -19.

12. Nikishin, I.V., Galochkin, P.V., Matveev, A.E. & SHvetsov, A.V. (2018). Zavisimost' psixofiziologicheskix pokazateley studentov ot ix dvigatel'nogo rejima, Teoriya i praktika fiz.kul'tury, 4, 77-78

13. Nikolaev, P.P., SHixovtsov, YU.V., Nikolaeva, I.V., Ivanova L.A., & Piskaykina, M.N. (2019). Sravnitel'nyy analiz funktsional'nykh vozmojnostey studentok s razlichnym dvigatel'nyim rejimom, Teoriya i praktika fizicheskoy kul'tury. 4. 47-48.

14. Ращенко, L.G. (2018). Optimizatsiya fizicheskoy aktivnosti studentov-pervokursnikov, Teoriya i praktika fizicheskoy kul'tury. 7. 12-14.

15. Platonov, V.N. (2019). Dvigatel'nye kachestva i fizicheskaya podgotovka sportsmenov [Elektronnyy resurs] : [monografiya] / - M. : Sport, 656 s. : il.— ISBN 978-5-9500183-3-6. <https://rucont.ru/efd/682593>

16. Pomerantsev, A.A., & Kashkarov, V.A. (2019). Analiz dvigatel'nykh deystviy na osnove ekspertnykh otsenok i ispol'zovaniya assotsiativnykh pravil, Teoriya i praktika fizicheskoy kul'tury. 9. 80-82.

17. Timoshina, I.N., Nazarenko, L.D., & Мещеряков, A.V. (2020). Aktivnaya dvigatel'naya deyatel'nost' - uslovie ukrepleniya zdorov'ya i prodoljitel'nosti jizni, ТРФК, 2, 18-20.

18. Umarova, D.X., Akbarov A. (2020). Potrebnost' i rol' zdorovogo obraza jizni v soznanii molodeji. Fizicheskoe vospitanie i studencheskiy sport glazami studentov, 479-480

19. Furmanov A. G., & YUspa M. B. (2003). Ozdorovitel'naya fizicheskaya kul'tura: uchebnik dlya studentov vuzov. Minsk.

20. Ernazarov, G.N., Akbarov, A., Allamuratov, SH.I. (2020). Monitoring zdorov'esberegayushchix texnologiy v uchebnom protsesse studentov, Nauka segodnya: problemy i puti resheniya [Tekst]: materialy 978-5-907341-01-2, 90-93.

BUTILAKRILAT VA STIROL MONOMERLARINI SOPOLIMERLANISHIDAN OLINGAN SOPOLIMERLARNI TERMIK TAVSIFI VA IQ – SPEKTROSKOPIYA TAHLILINI O’RGANISH

F. S. Xolmirzayev, A. T. Tillayev, F. N. Nurqulov A. T. Djalilov

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

feruzbekxolmirzayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada butilakrilat va stirool monomeri asosida olingan sopolimerlarni termik barqarorligi o’rganildi. Termik tadqiqotlar natijasiga ko’ra, hosil bo’lgan sopolimerlar 245-269 °C largacha barqaror ekanligi aniqlandi.

IQ- spektroskopiyada reaksiyada ishtirok etgan va hosil bo’lgan guruhlarni piklari aniqlandi.

Butilakrilat va stirool monomeri asosida olingan sopolimerlarni qovushqoqligi aniqlandi.

Kalit so’zlar: butilakrilat, stirool, monomer, sopolimer, sopolimerlanish, IQ-spektroskopiya, derivatogramma.

ABSTRACT

The thermal stability of copolymers based on butyl acrylate and styrene monomer was studied in the article. According to the results of thermal studies, it was found that the formed copolymers are stable up to 245-269 °C.

In IR spectroscopy, the peaks of the groups involved in the reaction and formed were determined.

The viscosity of copolymers based on butyl acrylate and styrene monomer was determined.

Keywords: butyl acrylate, styrene, monomer, copolymer, copolymerization, IR-spectroscopy, derivatogram.

KIRISH

Hozirgi vaqtda ishlatiladigan yo'l bo'yoqlari ortiqcha to'ldirilgan kompozit materiallar, shuning uchun polimer matritsa materialining sifati kerakli xizmat muddatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi paytlarda yo'l bo'yoqlari ishlab chiqarishda bog'lovchi sifatida akril yoki metakril kislotaga asoslangan termoplastik akril sopolimerlari ishlatilgan. Biroq,

bunday sopolimerlar turli maqsadlar uchun kompozitsiyalarni ishlab chiqish uchun ishlab chiqariladi, ya'ni universaldir.

Ishning maqsadi sopolimerning xususiyatlari bo'yicha ham, ular asosidagi va funksional guruhlarni o'z ichiga olgan qoplamalarning xususiyatlari bo'yicha ham sanoatda ishlab chiqarilganlarga o'xshash akril sopolimerini olish, kimyoviy qo'llash jarayonini o'rganish, shuningdek sintezlangan sopolimerlar asosida yo'l belgilari bo'yog'ini ishlab chiqish.

- Butilakrilat bilan stirol radikal sopolimerizatsiya yo'li bilan akril monomer asosida sintezlangan akril sopolimerlari, ular asosidagi qoplamalar fizik-mexanik xossalari sanoat namunalariга o'xshash va abraziv ishqalanishga bardoshlilik bo'yicha ulardan ustundir.

- abraziv ishqalanishga bardoshlilikini oshiruvchi yo'l-belgilash bo'yoqlari ishlab chiqilgan

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'yoq qoplamalari uchta asosiy funksiyani bajaradi: dekorativ, himoya va maxsus. Fan va ishlab chiqarish rivojlanishi bilan ikkinchi va uchinchi funksiyalarning o'ziga xos ahamiyati tobora ortib bormoqda [1, 4-bet].

Akrlatlar ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi ushbu polimerlar guruhiga xos bo'lgan bir qator qimmatli xususiyatlar bilan bog'liq. Akril materiallarning qimmatli xususiyatlari rangsiz va shaffof lak qoplamalarini olish imkoniyatini, yuqori yorug'lik va kimyoviy qarshilik, mustahkamlik, elastiklik, yog'larga, benzinga va ob-havoga chidamliligini, shuningdek pigmentli va pigmentli bo'lmagan qoplamalarni o'z ichiga oladi. yorug'lik, past (-50 °C) va yuqori haroratlar (260 °C gacha), atmosfera ta'siriga ta'sir qiladi.

Belgilash bo'yoqlari va emallari sovuq usulda qo'llaniladigan markalash materiallaridir. Belgilash bo'yoqlari gorizontal va vertikal belgilarni bajarish uchun ishlatiladi. Markalash bo'yoqlari va emallarini qo'llash to'liq mexanizatsiyalashgan. Belgilash materialni purkashning pnevmatik yoki havosiz usuli yordamida amalga oshiriladi. Gorizontal belgilar bilan suyuqlik qatlamining qalinligi 400-600 mikronni tashkil qiladi. Ma'lumki, yo'llarning qatnov qismini belgilash uchun ishlatiladigan materiallar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: yo'l sirtiga yuqori yopishish, yuqori ishqalanishga bardoshlilik va qo'llanilgandan keyin tezda shakllanish qobiliyati [2, 23-bet].

Zamonaviy markalash bo'yoqlari va emallari plyonka hosil qiluvchi, pigment, mineral plomba moddalari, funksional va texnologik qo'shimchalardan iborat yuqori to'ldirilgan



kompozitsiyalardir. Uchuvchi bo'lmagan moddalar miqdori 70-75% ni tashkil qiladi. Titan dioksidi pigment sifatida ishlatiladi.

Akril oligomerlar bog'lovchilarning eng istiqbolli sinflaridan biridir, chunki ular yaxshi ishlash xususiyatlariga ega bo'lgan qoplamalar hosil qiladi. Akril qoplamalarning yuqori ob-havoga chidamliligi va chidamliligi ta'mirlash bo'yoqlari sonini kamaytirish va bo'yoq va lak qoplamalarining xizmat qilish muddatini mahsulotlarning xizmat qilish muddatiga yaqinlashtirish imkonini beradi. Kimyoviy qarshilik, optik shaffoflik, yuqori mexanik xususiyatlar va dekorativ effekt turli sohalarda yangi akril bo'yoq va laklardan foydalanish imkonini beradi [3].

Amalda polimerlanish ko'pincha maxsus qo'shilgan moddalar - inisiatorlar ishtirokida amalga oshiriladi, ular polimerizatsiya sharoitida erkin radikallarga oson parchalanadi (ko'p hollarda zaif kimyoviy bog'lanishlarning termal gomolitik bo'linishi tufayli). Tashabbuskorlar orasida eng keng tarqalgan peroksid birikmalari (vodorod peroksid, benzoil peroksid, butil va izopropil benzoil gidroperoksidlari, uchinchi darajali butil peroksid, pereterlar, persulfatlar va boshqalar). Amalda qo'llaniladigan ko'pchilik inisiatorlar uchun gomolitik parchalanishning faollanish energiyasi uzilgan bog'lanish energiyasiga yaqin va 125,6 - 146,5 kJ/mol (30-35 kkal/mol) oralig'ida bo'ladi. C-14 bog'ining mustahkamligi yetarlicha yuqori bo'lgan azo birikmalarda (293 kJ/mol yoki 70 kkal/mol), parchalanish qulayligi hosil bo'lgan azot molekulalarining yuqori barqarorligi bilan bog'liq [4].

Termoanalitik tadqiqotlar DTG-60 SIMULTANEOUS DTA-TG APPARATUS SHIMADZU asbobida (Yaponiya), farfor tigelda o'tkazildi. Barcha o'lchovlar argon oqimi tezligi 80 ml/min. bo'lgan argon atmosferasida o'tkazildi. O'lchovlarning harorat oralig'i 25-900°C, isitish tezligi 10 °C /min.

NATIJALAR

Tajribaviy qism: Na'muna massasi 5.857 mg ni tashkil qilgan.


Butilakrilat va stirol monomerlarini sopolimerlanish jarayoni 50:50 boshlang'ich moddalarning molyar nisbatlarida 70-80°C haroratda amalga oshirildi. Erituvchi sifatida R-646 umumiy massani 70:30 nisbatida qo'shildi, inisiator sifatida benzoil peroksidning ma'lum miqdori ishlatildi, reaksiya davomiyligi 6 soat. Butilakrilat va stirol monomerleri va R-646 erituvchisi reaksiyasining 71% unum bilan hosil bo'lgan mahsuloti oquvchanligi past bo'lgan quyusimon modda.

Sintez qilingan sopolimerlarning termik turg'unligini o'rganish bo'yicha tajribada olingan ma'lumotlar asosida sopolimerlarni qizdirish jarayonida birikmalar tuzilishining distruksiyasi natijasida massa o'zgarishi bilan kuzatiladigan turli ekzotermik va endotermik

issiqlik effektlari derivatografik analiz natijalari asosida tahlil qilindi.


1-rasmda olingan sopolimerning derivatogrammasi keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA)-ko'k rangli egri chiziq) 3 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida tahlil qilingan. 1-parchalanish oralig'i 25.57-269.35 °C temperaturalarga, 2-parchalanish oralig'i 268.95-527.02 °C temperaturalarga, 3- parchalanish oralig'i esa 527.02 -901.15 °C temperaturalarga mos keladi. Ko'rinib turibdiki 2- parchalanish oralig'ida eng intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'lgan. Ya'ni moddaning boshlang'ich massasi 51.545 % ga kamaygan.

DTA-(qizil chiziq) egri chizig'ida 2 ta endotermik effektlarni ko'rishimiz mumkin. 1-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 2- parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektning boshlanishi 297.89 °C ga, tugashi 429.42 °C ga, pik nuqtasi esa 405.71 °C ga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektida 15.44 μV (5.27 J yoki 1,26 cal) energiya yutilgan. 2-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 3-parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektning boshlanishi 629.89 °C ga, tugashi 724.76 °C ga, pik nuqtasi esa 695.72 °C ga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektida 4.31 μV (1.33 J yoki 318.90 mcal) energiya yutilgan.



1-rasm. Sintez qilingan sopolimerni termogravimetrik (TGA) va differensial termik analizi (DTA)

Sintez qilingan sopolimer termik tahlilidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, 269 °C gacha bo'lgan haroratda modda bor yo'g'i 2.8 % massa yo'qotgan. Bu massa yo'qotilishi erituvchi hisobiga to'g'ri keladi.



2-rasm. Sintez qilingan sopolimerni IQ – spektroskopiya tahlili

Ushbu 3028 cm^{-1} sohada $=\text{CH}-$ cm^{-1} guruhlar uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari kuzatildi. 2958 cm^{-1} sohalarda $=\text{CH}_2$ guruhlar uchun va 1273 cm^{-1} va 1028 cm^{-1} sohalarda $-\text{C}_6\text{H}_5-$ va $\text{CH}_2=\text{CH}-$ guruhlar uchun valent tebranish chastotalari, 696 cm^{-1} sohada $(\text{C}_6\text{H}_6)-\text{C}-\text{H}$ guruhlar uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari namoyon bo'ldi.


Na'muna massasi 3.063 mg ni tashkil qilgan.

Olingan natijalar: Butilakrilat va stiroil monomerlarini sopolimerlanish jarayoni 30:70 boshlang'ich moddalarning molyar nisbatlarida 70-80⁰ C haroratda amalga oshirildi. Erituvchi sifatida R-646 umumiy massani 70:30 nisbatida qo'shildi, inisiator sifatida benzoil peroksidning ma'lum miqdori ishlatildi, reaksiya davomiyligi 6 soat. Butilakrilat va stiroil monomerleri va R-646 erituvchisi reaksiyasining 77% unum bilan hosil bo'lgan mahsuloti oquvchanligi past bo'lgan quyusimon modda.

3-rasmda olingan sopolimerning derivatogrammasi keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA)-ko'k rangli egri chiziq) 3 ta intensiv parchalanadigan

temperatura oralig'ida tahlil qilingan. 1-parchalanish oralig'i 24.95-264.42 °C temperaturalarga, 2-parchalanish oralig'i 264.42-524.37 °C temperaturalarga, 3-parchalanish oralig'i esa 524.37 -901.70 °C temperaturalarga mos keladi. Ko'rinib turibdiki 2- parchalanish oralig'ida eng intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'lgan. Ya'ni moddaning boshlang'ich massasi 40.614 % ga kamaygan.


DTA-(qizil chiziq) egri chizig'ida 2 ta endotermik effektlarni ko'rishimiz mumkin. 1-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 2- parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektning boshlanishi 338.21 °C ga, tugashi 432.11 °C ga, pik nuqtasi esa 409.24 °C ga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektida 5.37 μ V (1.37 J yoki 326.87 mcal) energiya yutilgan. 2-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 3-parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektning boshlanishi 632.99 °C ga, tugashi 716.47 °C ga, pik nuqtasi esa 701.09 °C ga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektida 4.90 μ V (1.34 J yoki 320.26 mcal) energiya yutilgan.



3-rasm. Sintez qilingan sopolimerni termogravimetrik (TGA) va differensial termik analizi (DTA)

Sintez qilingan sopolimer termik tahlilidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, 264 °C gacha bo'lgan haroratda modda bor

yo'g'i 2.6 % massa yo'qotgan. Bu massa yo'qotilishi erituvchi hisobiga to'g'ri keladi.



4-rasm. Sintez qilingan sopolimerni IQ – spektroskopiya tahlili.

Ushbu spektrda 3084-3061 cm^{-1} sohada erkin =CH- guruhlar uchun xos bo'lgan past va 3026 cm^{-1} sohada =CH- cm^{-1} guruhlar uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari kuzatildi. 2958 cm^{-1} sohalarda =CH₂ guruhlar uchun va 1263 cm^{-1} va 1029 cm^{-1} sohalarda -C₆H₅- va CH₂=CH- guruhlar uchun valent tebranish chastotalari, 696 cm^{-1} sohada (C₆H₆)-C-H) guruhlari uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari namoyon bo'ldi.


Na'muna massasi 6.16 mg ni tashkil qilgan.

Olingan natijalar: Butilakrilat va stirol monomerlarini sopolimerlanish jarayoni 30:70 boshlang'ich moddalarning molyar nisbatlarida 70-80⁰ C haroratda amalga oshirildi. Erituvchi sifatida R-646 umumiy massani 50:50 nisbatida qo'shildi, reaksiya davomiyligi 6 soat. Butilakrilat va stirol monomerleri va R-646 erituvchisi reaksiyasining 86% umum bilan hosil bo'lgan mahsuloti oquvchanligi past bo'lgan quyusimon modda.

5-rasm olingan sopolimerning derivatogrammasi keltirilgan bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA)-ko'k rangli egri chiziq) 3 ta intensiv


parchalanadigan temperatura oralig'ida tahlil qilingan. 1-parchalanish oralig'i 23.67-245.80 °C temperaturalarga, 2-parchalanish oralig'i 245.80-510.86 °C temperaturalarga, 3- parchalanish oralig'i esa 510.86 -900.38 °C temperaturalarga mos keladi. Ko'rinib turibdiki 2- parchalanish oralig'ida eng intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'lgan. Ya'ni moddaning boshlang'ich massasi 57.215 % ga kamaygan.

DTA-(qizil chiziq) egri chizig'ida 2 ta endotermik effektlarni ko'rishimiz mumkin. 1-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 2- parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektning boshlanishi 251,86 °C ga, tugashi 424,59 °C ga, pik nuqtasi esa 399,49 °C ga to'g'ri keladi. 1-chi endotermik effektida 19,15 μV (8,13 J yoki 1,94 cal) energiya yutilgan. 2-chi endotermik effekt TGA egri chizig'ining 3-parchalanish oralig'iga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektning boshlanishi 661,73 °C ga, tugashi 707,34 °C ga, pik nuqtasi esa 692,61 °C ga to'g'ri keladi. 2-chi endotermik effektida 3,75 μV (660,79 mJ yoki 157,86 mcal) energiya yutilgan.



5-rasm. Sintez qilingan sopolimerni termogravimetrik (TGA) va differensial termik analizi (DTA)

Sintez qilingan sopolimer termik tahlilidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, 245 °C gacha bo'lgan haroratda modda bor yo'g'i 2.9 % massa yo'qotgan. Bu massa yo'qotilishi erituvchi hisobiga to'g'ri keladi. Respublikamiz hududida haroratni yuqorigini hisobga olsak issiqqa chidamliligi muhim ahamiyatga ega.



6-rasm. Sintez qilingan sopolimerni IQ – spektroskopiya tahlili

Ushbu spektrda 3061 cm^{-1} sohada erkin $=\text{CH}-$ guruhlar uchun xos bo'lgan past va 3026 cm^{-1} sohada $=\text{CH}-$ cm^{-1} guruhlar uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari kuzatildi. 2958 cm^{-1} sohalarda $=\text{CH}_2$ guruhlar uchun va 1271 cm^{-1} va 1022 cm^{-1} sohalarda $-\text{C}_6\text{H}_5-$ va $\text{CH}_2=\text{CH}-$ guruhlar uchun valent tebranish chastotalari, 698 cm^{-1} sohada $(\text{C}_6\text{H}_6)-\text{C}-\text{H}$ guruhlar uchun o'rtacha valent tebranish chastotalari namoyon bo'ldi.

MUHOKAMA

Sopolimerlanish reaksiyasi unumiga butilakrilat va stirolning mol nisbatlari ta'siri o'rganildi.

1-jadval

Tarkib (butilakrilat/stirol)	Erituvchi miqdori, %	Termik barqarorligi, °C	Reaksiya unumi, %	Qovushqoqlik, t, s
70/30	30	285,48	31	22
60/40	30	278,41	43	36
50/50	30	269,35	71	76
40/60	30	266,53	74	77
30/70	30	264,42	77	79

Unga ko'ra butilakrilat va stirol monomerleri 30/70 nisbatda olinganda reaksiya unumi eng yuqori ko'rsatkichni namoyon qilishi aniqlandi (1-jadval). Shuningdek, sopolimerning termik barqarorligi uning tarkibida stirol miqdori ko'payishi bilan kamayib borishi, qovushqoqligi esa ortib borishi aniqlandi.

2-jadval

Tarkib (butilakrilat/stirol)	Erituvchi miqdori, %	Termik barqarorligi, °C	Reaksiya unumi, %	Qovushqoqlik, t, s
30/70	30	264,42	77	79
30/70	40	255,38	80	81
30/70	50	245,80	86	85
30/70	60	243,20	79	76
30/70	70	240,41	68	69

Erituvchi miqdorining sopolimerlanish reaksiyasi unumi va olinadigan sopolimer xossalari ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida monomer:erituvchi nisbati 1:1 bo'lganda reaksiya unumi va olingan sopolimerning qovushqoqligi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishi aniqlandi.

XULOSA

Butilakrilat va stirol asosida 70-80 °C da R-646 erituvchisi ishtirokida sopolimer sintez qilindi. Monomerlar va erituvchi massa nisbatlarining sopolimerlanish reaksiyasi unumiga ta'siri o'rganildi hamda butilakrilat va stirol 30:70, monomerlar va erituvchi 50:50 massa nisbatlarda olinganda sopolimerlanish reaksiyasi 86 % bilan borishi aniqlandi. Shuningdek, yuqoridagi nisbatlarda olingan sopolimer namunalarining qovushqoqligi ham yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qilishi aniqlandi.

REFERENCES

1. Коршунов, М. А. Синтез и применение глицидилметакрилата /М. А. Коршунов, В. С. Михлин, В. С.Марусина// Промышленность синтетического каучука, 1979 г.
2. Белов, В.Д. Основные положения методических рекомендаций по разметке автомобильных дорог / В.Д. Белов. // Труды Союздорнии.- М., 2005.- Вып. 206.- С.23-42.
3. Козлов Л.В., Развитие производства акриловых лакокрасочных материалов / Л.Д. Завалимина, С.С. Дреземс - ЛКМ, 1975, №4, с. 19-25.
4. Медведев, С. С. Кинетика и механизм образования и превращения макромолекул. -М.: Наука, 1968, с.5.
5. Торопцева, А. М. Лабораторный практикум по химии и технологии высокомолекулярных соединений / А. М. Торопцева, К. В. Белгородская, В. М. Бондаренко. - Л.: Химия, 1972. - 416 с.
6. Основы химии высокомолекулярных соединений: методические указания к лабораторным работам / сост.: Р. М. Гарипов [и др.]. - Казань: Изд-во Казан, гос. технол. Ун-та, 2006. - 40 с.
7. Методические рекомендации по выбору и применению материалов для разметки автомобильных дорог/редактор Ж.Иноземцева; ФГУП Союздорни.- М.,2002,- 42 с.
8. Виноградов,В.А. Применение разметочных материалов на дорогах России/ В.А.Виноградов //Разметка автомобильных дорог.- Балашиха, 2001.-С.26- 35.
9. Frank Fred M. Дорожные маркировочные краски. Часть 2. Технология получения красок./ Frank Fred M.//Part 2. Formulation techniques. Traffic paint. "Paint and Varnish Product."- 1968.-Т. 58.-№4.- Р.31-36.
10. Пат. 3356624 США, Кл. 260-18, Epoxy resin based traffic paint compositions / Neal Dennis, Lopez John A.; заявитель и правообладатель Shell Oil Co.-заявл. 28.12.64., опубл. 15.12.67.
11. Maass Walter B. Краски для нанесения сигнальных полос и дорожных знаков./ Maass Walter B. //Pinturas para transito. "Pinturerias".- 1967- Т.18.-№ 206,- Р.40-44.
12. Костова Н.З. Разметка автомобильных дорог/ Костова Н.З., Юмашев В.М// «Автомобильные дороги».-М.,2000.-Вып. 5.-С.16-32
13. Костова Н.З. Разметка автомобильных дорог/Костова Н.З //Автомобильные дороги №2.-М., 2004.- С.44-52
14. Попов, В.А. Влияние состава акриловых сополимеров на свойства дорожно-разметочных материалов./ В.А. Попов, В.Б. Аникина, Е.В.Севастьянов, П.А. Ермишов// Труды союздорнии.- М.,2005.-С.117-124

ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ТАРҒИБОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Тухтасин Худайберганович Ташметов

Чирчиқ давлат педагогика университети доценти фалсафа доктори (PhD)

toshmetovtuxtasin@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Жамиятда маънавият соҳасини юксалтириш янги тарғибот технологияларини жорий этишни тақозо қилади. Ҳозирда янги технологиялар барча соҳаларда ўз самарасини кўрсатмоқда. Мафкуравий жараёнларга ҳам шу нуқтаи назардан ёндашиш маънавиятни тарғиб қилишда инновацион технологиялардан фойдаланиш заруратини кўрсатади. Ёшлар маънавиятини юксалтириш янги тарғибот технология асосида олиб борилганидагина ўзининг самарали натижасини беради. Шундагина биз истикболда маънавий баркамол инсонни, соғлом авлодни тарбиялашга эришамиз.

Калит сўзлар: Жамият, миллат, маънавият, мафкура, маърифат, қадрият, миллий ғурур, ахлоқ, ор-номус, интеллектуал, баркамол, тарғибот, тарбия, инновацион, таълим, постиндустриал, кашфиёти, идеосфера, бузғунчи ғоя, инсонпарварлик.

THE IMPORTANCE OF PROMOTIONAL TECHNOLOGIES IN RAISING THE MORALITY OF YOUTH

ABSTRACT

Raising the sphere of spirituality in society requires the introduction of new propaganda technologies. Currently, new technologies are showing their effectiveness in all areas. Approaching ideological processes from this point of view shows the need to use innovative technologies in the promotion of spirituality. Raising the morale of young people will be effective only if the new propaganda is conducted on the basis of technology. Only then will we be able to raise a spiritually mature person and a healthy generation.

Keywords: Society, nation, spirituality, ideology, enlightenment, value, national pride, morality, honor, intellectual, perfect, propaganda, education, innovative, education, post-industrial, discovery, ideosphere, disruptive idea, humanism.



КИРИШ

Жамиятда маънавият соҳасини юксалтириш янги технологияларни жорий этишни тақозо қилади. Чунки бу – маънавиятни ёшлар дунёқарашига таъсирини таъминловчи муҳим воситадир. Шу боис, ҳозирги вақтда маънавиятни ёшлар дунёқарашига таъсирини оширишда фундаментал ва амалий тадқиқотлар натижаларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу билан биргаликда, маънавиятни тарғибот қилишдаги инновацион ўзгаришлар, тизимга ҳар қандай янгиликнинг киритилиши бевосита шу соҳа вакили фаолиятини янгилаш ва ўзгартириш орқали амалга оширилиши ҳам атрофлича ўрганилган.

Ёшлар маънавиятини юксалтириш технологиялари йигирма биринчи юз йилликда, инсоният ўз тараққиётининг сифат жиҳатидан янги палласида қадам қўйди. Дунёда кенг кўламдаги ўзгаришлар содир бўлаётган бугунги кунда ижтимоий маконни ўзлаштиришнинг янги усуллари урфга айланмоқда. Технологиялар асрида ишлаб чиқаришда жорий этилган янги инновациялар меҳнат самарадорлигини жуда ривожлантириб юборди. Ҳозирда янги технологиялар барча соҳаларда ўз самарасини кўрсатмоқда. Мафкуравий жараёнларга ҳам шу нуқтаи назардан ёндашиш маънавиятни тарғиб қилишда инновацион технологиялардан фойдаланиш заруратини кўрсатади. Ёшлар маънавиятини юксалтириш янги инновацион технология асосида олиб борилганида, тадбирларнинг кетма-кетлиги, давомийлиги ва тамойиллари сингари жиҳатлар ўз ўрнини топади. Уларнинг муҳимлиги шундаки, масалан, миллий мафкура тўғрисида кўп ва ноўрин гапиравериш тарғиботда меъёрнинг бузилишига сабаб бўлиб, тескари самара бериши мумкин. Тарғибот технологиясида маънавият ва миллий мафкура мазмун-моҳияти билан уни тарғиб қилиш шакл ҳамда воситаларининг мутаносиблиги самарали натижаларга эришишни кафолатлайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Миллий мафкуранинг қуйидаги мақсадларини рўёбга чиқариш бугунги куннинг ижтимоий-сиёсий жабҳадаги долзарб вазифалари сирасига киради:

- муайян ғояга ишонтириш;
- уюштириш;
- сафарбар қилиш;
- маънавий-руҳий рағбатлантириш;
- ғоявий тарбиялаш;
- ғоявий ва мафкуравий иммунитетни шакллантириш;



- ҳаракатлар дастурини тузиш;

Ушбу мақсадларга эришиш халқимиз олдида турган миллий мафқуранинг бош ғояси – «Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари» юз буришимизга асос бўлади.

Тарғибот маънавият мазмун-моҳиятига мос бўлган тақдирдагина кутилган самарага эришиш мумкин. Жумладан, маънавиятни тарғиб қилишда иштирок этувчи барча субъектлар қуйидаги тамойилларга амал қилиши мақсадга мувофиқ:

- «узлуксизлик;
- изчиллик;
- фаоллик;
- мафқурани эътиқодга айлантириш;
- иш билан сўз бирлиги;
- шахсий ибрат;
- ҳаётийлик (ютуқлар билан бирга камчиликларни ҳам кўрсатиш)»[1].

Мамлакатимизда мафқуравий жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришнинг устувор йўналишлари қуйидагилардан иборат:

- «белгиланган тадбирларнинг юқори даражада уюшқоқлик билан ўтказилишини таъминлаш;
- маънавият тарғиботининг сифатини мунтазам ошириб бориш;
- давр талабларидан келиб чиққан ҳолда мафқуравий ишларни ташкил этишнинг янги, самарали йўллари излаш;
- мафқуравий жараёнларни ташкил этишда ижтимоий муҳитни ҳисобга олиш;
- мафқуравий фаолиятнинг қанчалик самарали олиб борилаётганини билиш мақсадида унинг мониторингини ташкил этиш»[2].

Маънавиятнинг замонавий технологиялар орқали тарғиботини ташкил қилишда қуйидаги ташкилий тамойилларга амал қилиниши лозим: «кенг қамровлилик, узлуксизлик, кетма-кетлик, босқичма-босқичлик, меъёрийлик, шахсий ибрат, илғор тарғибот-ташвиқот технологияларидан фойдаланиш. Ушбу ташкилий тамойиллар И.Эргашев, Н.Бердалиев, М.Давлетова, Ғ.Маҳаммаджанов ва О.Бўтаёровларнинг ўқув қўлланмасида атрофлича тавсифланган»[3].

Мазкур тарғибот тамойиллари маънавиятни инсон қалби, онги ва ички дунёсига сингдиришнинг барча босқичлари учун умумий бўлиб, турли шакл ва воситалардан фойдаланганда одамларнинг ёши, касби, жинси, маълумоти каби



хусусиятлари ҳисобга олади. Тарғибот олиб боришда санаб ўтилган тамойилларнинг муайян гуруҳ хусусиятларига мослигини таъминлаш тарғибот самарадорлигини таъминлайдиган асосий шартлардан ҳисобланади.

Тарғибот қилинаётган ғояларнинг инсон онгида ахборот тарзида ўрнашиши кифоя қилмайди, улар инсоннинг қалбига етиб борганидагина, чуқур ўрнашади. Бунинг учун эса аудитория тарғиботчининг маънавиятга чуқур ишончини ҳис қилиши керак[4]. Лекин тарғиботда ғояларга эътиборни қаратиш билан ҳам қаноатланиб бўлмайди. Чунки эътиборни тортиш - тарғиботнинг дастлабки босқичи, холос.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бугунги воқелик маънавиятни замонавий технологиялар орқали тарғиботи масаласига алоҳида эътибор беришни талаб қилмоқда. Ҳозирги кунда юртимизда мафкура тарғиботини энг аҳамиятли масалалардан бири эканлигини инобатга оладиган бўлсак, унинг тарғибот-ташвиқотига ҳам янгича технологиялар, усуллар, воситаларни жалб қилиш фойдадан ҳоли эмас, деган хулосага келиш мумкин. Маънавият тарғиботининг самарадорлигини ошириш вазифаси ҳам бу жараёнда янги технологияларни кенг қўллаш заруратини кучайтиради. Мафкура тарғиботи жараёнида «тўрт қадамли» универсал модели технологияларни қўллаш борасида жаҳон мамлакатларининг илғор тажрибаларини ўзлаштириш мақсадга мувофиқ. Жаҳон тажрибасида кенг тарқалган «тўрт қадамли» универсал моделидан мафкура тарғиботи жараёнида фойдаланиш яхши самара беради. Мазкур моделнинг тавсифини бериш орқали, қуйида унинг мафкура тарғиботидаги моҳиятини мухтасар ёритамиз:

1-қадам: муаммонинг кўйилиши. Мафкура тарғиботида сингдирилиши шарт бўлган ғоялар тизими белгилаб олинади. Бундан ташқари, «Нима учун айнан ёшлар маънавиятини юксалтиришга эҳтиёж туғилди?», «Ёшлар маънавиятини юксалтириш ишларига қайси тузилмалар жалб қилиниши керак?», «Маънавиятни юксалтириш жараёнида қайси ижтимоий гуруҳлар қамраб олинади?» каби саволларга жавоб топиш лозим. Тўпланган маълумотлар асосида сингдирилиши зарур ғояларга жамиятдаги эҳтиёж, оммавий ахборот воситаларида бу масалаларнинг қай даражада ёритилганлиги ва, умуман, шу кунгача қилинган ишлар аниқлаб олинади.

2-қадам: режалаштириш ва дастурлаштириш. Бу босқич узоқ муддатга мўлжалланган бўлиб, коммуникатив вазифалар стратегиясини ишлаб чиқишни назарда тутаяди. Мафкура тарғиботида ёшларнинг маънавиятга муносабатлари,



уларнинг кадриятлари ўрганиб чиқилади. Бундан ташқари, кишиларни миллий истиқлол мафқурасининг муайян ғояси ҳақида доимий хабардор қилиб турувчи ахборот манбаи яратилади. Сингдириб борилаётган ғояларга кишиларнинг муносабати ўрганилиб, бу ахборотлар чуқур таҳлил қилинади. Давлат ташкилотлари ва кишилар ўртасидаги мулоқотлар мунтазам мувофиқлаштириб борилади. Умуман, бу босқичда, дастурнинг мақсади, таъсир кўрсатиш аудиторияси, кутилаётган натижалар белгилаб олиниши зарур[5]. Маънавият тарғиботида аудиторияни қисмларга, яъни уни бир неча гуруҳларга ажратиб ўрганиш, уларга таъсир кўрсатишнинг шу гуруҳ учун самарали бўлган усуллари ишлаб чиқиш зарур. Бу гуруҳларга кадриятлари бир-биридан фарқ қилувчи қатламларни, масалан, талабаларни, тадбиркорларни, зиёлиларни, эркаларни, аёлларни, ёшларни ёки кексаларни киритиш мумкин. Табиийки, маънавиятни сингдиришда зиёлиларга етказиладиган ахборотлар билан тадбиркорларнинг кайфиятларига таъсир кўрсатиб бўлмайди. Шунинг учун ватанпарварлик туйғуларини сингдиришда талабаларга ҳам, ҳарбий хизматчиларга ҳам, зиёлиларга ҳам, деҳқонларга ҳам бир хил муносабатда бўлиш, бир хил усуллардан фойдаланиш кутилган самарани бермайди. Чунки турли ижтимоий гуруҳ вакилларининг дунёқараши, манфаатлари ва кадриятлари бир-биридан фарқ қилади. Мафкура тарғиботида айнан мана шу гуруҳ кадрият ва анъаналарига, манфаатларга мос воситалардан фойдаланиш кўпроқ самара бериши тажрибада исботланган. Умуман олганда, ушбу босқичда ёшларнинг онгида ўзгаришлар қилиш учун нималар қилиш кераклиги аниқлаб олиниши мақсадга мувофиқ.

3-қадам: мулоқотга киришиш. Маънавият ва мафкура тарғиботини самарали ташкил этиш учун асосий коммуникатив вазифалар режалаштирилган ва аниқ мақсадлар сари йўналтирилган бўлиши керак. Бунинг учун ахборот берувчи ва аудиториянинг дунёқарашини бир-бирига уйғунлаштириш лозим. Ушбу йўналишдаги ишларда қуйидаги омилларга: 1) аудитория фикрини энг кўп ифода этаётган ОАВлари турига эътибор қаратиш; 2) аудитория ишончини энг кўп қозongan ОАВ туридан кенг фойдаланиш; 3) бирор муаммо хусусидаги ахборот берувчи ва аудиториянинг қарашларидаги фарқларни камроқ кўрсатиш; 4) жараёнларни ёритишда аудиториянинг манфаатларидан келиб чиқиб ёндашиш; 5) коммуникаторнинг позициясини кўпчиликнинг позицияси сифатида талқин этиш; 6) жамиятдаги ижтимоий гуруҳларнинг манфаатларига мос ҳолда алоҳида ёндашиш кабиларга эътибор қаратиш талаб этилади[6]. Ахборотни етказишнинг эътиборли жиҳати янгиликлар кўринишида бўлса-да, фақат бир томонлама



мақтов шаклида эмас, балки кўпчилики қийнаётган муаммоларнинг ечими сифатида, барчага тушунарли тилда баён этилишида кўзга ташланади. Умуман, учинчи босқич ўз ичига қуйидаги элементларни қамраб олади: ҳаракат стратегияси, коммуникатив стратегия, дастурни амалга ошириш режаси.

4-қадам: якуний хулосалар яшаш. Якуний хулосалар яшаш икки йўналишда: баҳолаш мезонини ишлаб чиқиш ва тескари алоқаларни ўрганиш шаклида амалга оширилади[7]. Баҳолаш мезонини ишлаб чиқишда ёшлар маънавиятини юксалтиришга қандай таъсир этганлигини аниқлашнинг объектив мезонлари белгиланса, тескари алоқаларни ўрганишда берилган ахборотлар сони, унга кишилар томонидан қилинган реакциялар, ёшлар маънавиятини юксалтиришда ўз ҳаракатларини қай даража ўзгартирганликлари таҳлил қилинади, уларнинг мафкуравий таъсирга жавоб реакцияси ўрганилади. Маънавиятни юксалтириш орқали унинг самарадорлигини таъминлашда бу босқич муҳим аҳамиятга эга. Чунки ёшларнинг фикрлари, баҳолари, муносабатларидаги ўзгаришларни доимий ўрганиб бориш ғоявий таъсирнинг самарасини «ўлчаш» имконини беради. Бундан ташқари, инсонларни безовта қиладиган муаммолар ҳақида доимий ахборот тўпланиб, шунга мос равишда тарғибот йўналишини ўзгартириш ёки маънавиятнинг ташвиқотини фаоллаштириш бўйича тавсиялар берилади. Жамоатчилик фикридаги бундай ўзгаришларни мунтазам ўрганиб бориш маънавиятни юксалтириш борасидаги келгуси ишлар учун замин бўлиб хизмат қиладди.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан олиб борилаётган янги ислохотлар маънавият халқимизнинг куч-қудратига айланиши учун шароит яратди. Маънавиятни ҳар бир фуқаронинг нияти ва ҳаракатига айлантириш галдаги энг асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Яхши фикр яхшиликка, ёмон фикр ёмонликка йўл очади. Бу борадаги тажрибаларимиз ахборот майдонини фақат негатив контент эгаллаб олмаслиги учун миллий ғоянинг тарғиботини инновацион технологиялар орқали янгича мазмунда тўлдириш масаласига алоҳида эътибор қаратиш лозимлигини кўрсатмоқда.

REFERENCES

1. Азизхўжаев А. Миллий истиқлол ғояси ва тарғибот технологияси. Жамият ва бошқарув, Тошкент, 2000, 3-сон, -Б. 20.



2. Эргашев И., Бердалиев Н., Давлетова М., Махаммаджанов Ғ., Бўтаёров О. Миллий ғоя тарғиботи технологиялари. –Тошкент, 2008. – 19 б.
3. Эргашев И., Бердалиев Н., Давлетова М., Махаммаджанов Ғ., Бўтаёров О. Миллий ғоя тарғиботи технологиялари. –Тошкент, 2008. – 19 б.
4. Ташметов Т.Х. Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. “Ёшларга оид давлат сиёсатининг ёшлар ижтимоийлашувидаги ўрни ва аҳамияти”. -Т.: 2019. В 191-195.
5. T.T Khudayberganovich. (2020). The importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. International journal of multidisciplinary research (IJMR). –p. 25-27.
6. Ташметов Т.Х. Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. “Ёшларга оид давлат сиёсатининг ёшлар ижтимоийлашувидаги ўрни ва аҳамияти”. -Т.: 2019. В 191-195.
7. T.T Khudayberganovich. (2020). Prospects for relying on the basis of the national idea in protecting young people from hard and harmful ideas. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal. Elsevier SSRN 9 (11) –p. 81-85.
8. Tuxtasin Xudayberganovich Tashmetov. (2021). Global yutuqlardan foydalanishda milliy g‘oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari. Academic research in educational sciences, 2(3), 596-602.



NASOS USKUNASINING ISHCHI G'ILDIRAKLARIDAGI KURAKCHALARINING ENG MUQOBIL BURILISH BURCHAGINING PARAMETRLARINI MODELLASHTIRISH

Laziz Nematovich Atakulov

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsent

Umidjon Erkinovich Kayumov

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti assistenti

kayumov_umidjon@mail.ru

Shahlo Saxibjonovna Pardayeva

Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi doktoranti

ANNOTATSIYA

Maqolada gruntli nasoslarining nosozliklarining asosiy sabablari ya'ni bu past sifatli zichlagichlar, nasos ischi g'ildiraklarini va podshipnik birliklari valga mahkamlash konstruksiyasining nomukammalligi, shuningdek nasos uskunasining ishchi g'ildiraklaridagi kurakchalarining joylashishi tahlil qilinadi. Maqolada ishchi g'ildirak parametrlarining ta'siri o'rganiladi, shuningdek, ishchi g'ildirakdagi kurakchalar burchagini sozlash usullarini hamda nasos agregati ish unumdorligini oshirishga imkon beruvchi ishchi g'ildirakdagi kurakchalarning burilish burchagining eng muqobil variantini o'rnatish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Gidravlik transport, nasos agregati, ishchi g'ildiraklar, kurakchalarning burilish burchagi, yedirilish, statik bosim, aylanma tezlik, resurs, FIK.

ABSTRACT


The article analyzes the main causes of failures of dredge pumps, which are the result of poor – quality seals, imperfections in the design of mounting the impeller on the pump shaft and bearing assemblies, as well as the location of the impeller blades of pumping equipment. The paper investigates the influence of the parameters of the impeller, and also considers methods for adjusting the angle of the impeller blade and establishing the optimal version of the angle of inclination of the impeller blade, which allows increasing the productivity of the pumping unit.

Keywords: Hydraulic transport, pumping unit, impellers, blade angle, wear, static pressure, peripheral speed, resource, efficiency.

KIRISH

Konchilik sanoati korxonalarida gidrotransport mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash texnologik jarayonining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu transport turi o'zini iqtisodiy va samarali ekanligini isbotladi. Hozirgi vaqtda ishlayotgan gidrotransport tizimlari boshqa transport turlari bilan raqobatbardoshdir. Ular sochma tog' jinslarni murakkab profilli yo'nalishlar va uzoq masofalar bo'ylab ortiqcha yuklanmasdan tashishni ta'minlaydi [7, 10].

Konchilik sanoati korxonalarida gidrotransport tizimlari bo'yicha ko'rib chiqilgan ishlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi transportdan foydalanish samaradorligi uning texnik ya'ni uskunalarni ishlatish paytida ishning mehnat zichligi yuqoriligi, gruntli nasoslar hamda quvurlarining yuqori gidroabraziv yedirilishi, nasoslarning ishlash muddati pastligi, gidrotransport tizimlarining metall iste'moli va energiya zichligining yuqoriligi kabi imkoniyatlariga mos kelmaydi (1 – rasm).



1 – rasm. Gruntli nasoslarining konstruktiv ko'rinishi:

a) nasos qurilmasi ishchi g'ildiragi bilan ko'rinishi, b) nasos qurilmasining konstruktiv ko'rinishi:

- 1) nasos korpusi, 2) halqa, 3) ishchi g'ildirak, 4) mufti, 5) salnikli zichlagichlar, 6) zichlagichlar kamerasi, 7) nasos uchun halqa 8) salnikli zichlagichlar kamerasi, 9) val, 10) podshipniklar qopqog'i, 11) podshipniklar 12) quyma kronshteyn

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kon va texnologik uskunalarni ta'mirlash ustaxonasidan olingan statistik ma'lumotlar asosida olingan gidrotransportning iqtisodiy ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, umumiy ekspluatatsiya xarajatlari ichida eng katta xarajatlar gruntli nasoslarni ta'mirlashga to'g'ri keladi, bu ko'rsatkich esa 40 – 50% ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, barcha gidrotransport uskunalarning to'xtalishlari natijasidagi yo'qotishlar 65 – 70% ni tashkil qiladi [1, 4].

Navoiy shahridagi “NMZ” kon va texnologik uskunalarni ta'mirlash ustaxonasi, gidrotransport tizimidagi gruntli nasos stansiyalarida yuzaga kelgan nosozlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar 1 – jadvalda keltirilgan.

1 – jadval.

Gruntli nasos stansiyalaridagi nosozliklar holatlarining ulushdagi ko'rsatkichlari

T/r	Gruntli nasos stansiyalaridagi nosozliklar holatlari	To'xtalishlarning umumiy sonidagi ulushi, %
1	Ishchi g'ildirak	43
2	Gruntli nasos stansiyalari ichidagi quvur tarmoqlarining yorilish yoki ulardan bo'tananing sizib chiqishi	24
3	Nasos elektrdvigatelidagi yoki nasosning o'zidagi to'xtalishlar	20
4	Nasos uskunasi moy yetkazib berishning nosozligi	11
5	Boshqa sabablar	2
	<i>Jami</i>	100

1 - jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, gruntli nasoslarning eng yuklangan birligi ularning ishchi g'ildiragi hisoblanadi.

Gruntli nasoslarining turli xil ish sharoitlari uchun nasoslarning ishchi g'ildiraklari resurslarini ishlash muddati 780 dan 1320 soatgacha uzluksiz ishlaydi [3, 4, 5, 6, 7].

Ishchi g'ildiraklarining yedirilishi, o'z navbatida, nasos uskunasi tayanch birliklaridagi podshipniklariga uzatiladigan sezilarli tebranish kuchlanishlarini keltirib chiqaradi, natijada podshipniklarning ishlash muddati keskin qisqaradi va nasos uskunasi foydali ish koeffitsientining pasayishiga olib keladi [11].

Gidromekanizatsiya sharoitida, karyerlarda qazish ishlarini olib borishda, adabiyot manbalariga ko'ra, qumli shag'al bo'tanali massasini nasos yordamida tashish vaqtida nasos ishchi




g'ildiraklarining ishlash muddati nasos korpuslariga qaraganda taxminan 1,5 – 2,5 barobar past. Konchilik va boyitish sanoatlarida, boyitilgan qoldiq bo'tanalarini nasos bilan tashish vaqtida, ishchi g'ildiraklarning ishlash muddati, aksincha, 1,5 – 2 barobar yuqori bo'ladi [8, 9].

Gruntli nasoslarining nosozliklarining asosiy sababi (75% gacha) asosiy qismlarning ya'ni ishchi g'ildiraklari, korpuslari va old qopqoqlarining gidroabraziv yedirilishi hisoblanadi [2].

Ushbu maqolada ishchi suyuqlikning ishchi g'ildiraklariga kirish va chiqish joylarida ta'sir parametrlari o'rganiladi, kurakchalarning hisobiy burchaklari uchun qiymatlarini tanlash va ularning parametrlarining qiymatlari quyidagi nasos unumdorligi $Q = 400 \text{ m}^3/\text{soat}$, bosimi $H = 32 \text{ m}$ va aylanish chastotasi $n = 2000 \text{ ayl/min}$ parametrlarga ega nasos uchun formulalar bo'yicha tanlanadi.

2 – rasmda ishchi g'ildirakdagi kurakchalarning chiqish joyidagi burchak ko'rsatkichlarini o'rnatilishi ko'rsatilgan: $a - \beta_{\pi 2} = 58,18^{\circ}$, $b - \beta_{\pi 2} = 50,1^{\circ}$, $v - \beta_{\pi 2} = 90^{\circ}$, $g - \beta_{\pi 2} = 121,24^{\circ}$ (2 - rasm).



2 – rasm. Kurakchalarning burchagi quyidagichi burchaklardagi o'rnatilgan ishchi g'ildiraklarning ko'rinishi:


$$a - \beta_{\pi 2} = 58,18^{\circ}, \quad b - \beta_{\pi 2} = 50,1^{\circ}, \quad v - \beta_{\pi 2} = 90^{\circ}, \quad g - \beta_{\pi 2} = 121,24^{\circ}$$


MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Hisob – kitoblar “Ansys” dasturi yordamida amalga oshirildi, bu esa ishchi suyuqlikning kirish va chiqish joyidagi bosimini hisobga olgan holda ishchi g'ildiraklarda kurakchalarni o'rnatish burchagini eng maqbulini tanlashni aniqlash imkonini beradi. Hisob – kitoblar davomida kurakchalarni o'rnatish burchagi 90° dan maksimal egrilik burchagiga qadar o'rnatildi va buning natijasida ishchi g'ildirakning aylanish tezligi v bo'lganida umumiy bosimining P_t qiymati, shuningdek statik bosimining P_s qiymati olindi (3 – rasm).

Kurakchalarning burilish burchagi $\beta_{\pi 2} = 58,18^{\circ}$ va tezligi $v = 544 \text{ m/s}$ bo'lganda ishchi g'ildirakdagi umumiy bosim $P_t = 450000 \text{ Pa}$ ga yetadi (3, a - rasmda qizil rangda ifodalangan), bu natija esa yedirilishning boshlanishini ko'rsatadi, natijada ishchi g'ildirakning ishlash muddatini qisqartiradi. Ishchi g'ildirak kurakchalarining burchagini $\beta_{\pi 2} = 50,1^{\circ}$ ga o'zgartirganda tezligi esa $v = 544 \text{ m/c}$ bo'lganda, umumiy bosim $P_t = 360000$ ga teng bo'ladi (3, b – rasm), ya'ni ishchi g'ildirakdagi bosim pasayadi (3, a – rams bilan taqqoslaganda), bu yerda qizil rang ishchi g'ildirakdagi kurakchalarini yedirilishining o'tish chegarasini ko'rsatadi, bu esa yedirilishning kamayishini anglatadi.

Kurakchalardagi umumiy bosim, $\beta_{\pi 2} = 90^{\circ}$ burchak ostida va bir xil aylanish tezligida bo'lganda, 700000 Pa ga (3, v - rasm), $\beta_{\pi 2} = 121,24^{\circ}$ burchak ostida esa haddan tashqari yuqori bosimga ega bo'ladi (3, g – rasm). Bunday bosimlar ishchi g'ildirak kurakchalariga yanada ko'proq ta'sir qiladi, bu esa nasos uskunalaridagi ishchi g'ildirak kurakchalarining tez yedirilishiga olib keladi.







3 – rasm. Ishchi g’ildirakdagi umumiy bosim, kurakchalar quyidagi burchak ostida bo’lganda:

$$a - \beta_{\pi 2} = 58,18^{\circ}, b - \beta_{\pi 2} = 50,1^{\circ} \quad v - \beta_{\pi 2} = 90^{\circ} \quad g - \beta_{\pi 2} = 121,24^{\circ}$$


Hisob – kitoblar shuni ko’rsatdiki ishchi g’ildirakdagi kurakchalarning chiqish burchagini o’zgartirish bilan statik bosim P_s o’zgaradi 4 – rasm. 4 – rasmdan ko’rinib turibdiki, ishchi g’ildirakdagi eng minimal statik bosim P_s kurakchalarining o’rnatish burchagi $\beta_{\pi 2} = 50,1^{\circ}$ bo’lganda bo’ladi va 300000 Paga yaqinlashadi, qolgan holatlar uchun mos ravishda 360000 Pa va 400000 Paga teng bo’ladi.





4 – rasm. Kurakchalarning quyidagi burchagi uchun ishchi g’ildiraklardagi statik bosimining ma’lumotlari:

$$a - \beta_{\text{Л2}} = 58,18^{\circ}, b - \beta_{\text{Л2}} = 50,1^{\circ} \quad v - \beta_{\text{Л2}} = 90^{\circ}, g - \beta_{\text{Л2}} = 121,24^{\circ}$$




5 – rasm. Kurakchalarning quyidagi burchagi bo’yicha ishchi g’ildiraklardagi to’liq bosim uchun statik ma’lumotlar:

$$a - \beta_{\text{Л2}} = 58,18^{\circ}, b - \beta_{\text{Л2}} = 50,1^{\circ} \quad v - \beta_{\text{Л2}} = 90^{\circ}, g - \beta_{\text{Л2}} = 121,24^{\circ}$$

Ba'zi hollarda, yuqori bosim kerak bo'lganda, $\beta_{\pi 2}$ burchagi $\beta_{\pi 2} > 90^{\circ}$ ga yetishi mumkin, ammo shu bilan birga ishchi g'ildirakdagi foydali ish koeffitsienti kamayadi. Katta burchaklardan foydalanish $\beta_{\pi 2}$, shuningdek, chiqish diffuzor qurilmalaridagi yo'qotishlarning ko'payishi bilan cheklanadi, chunki bu holda ushbu qurilmalarda yoqotilishning bir ulushi dinamik bosimga aylanadi, buning natijasida esa ulardagi statik bosim sezilarli darajada oshadi (5 – rasm).

Ishchi g'ildirakni hisoblashda shuni ko'rsatdiki, kurakchalarning chiqish joyidagi burchagining o'zgarishi ishchi g'ildirakning aylanish tezligiga ta'sir qiladi (6 – rasm).


Ishchi g'ildirakning aylanish tezligi, kurakchalarning chiqish burchagi $\beta_{\pi 2} = 58,18^{\circ}$ da, o'rnatilgan ishchi g'ildirak orqali oqimning o'tishi deyarli kattalik tartibiga oshiradi (6 a – rasm). Ishchi g'ildirakning aylana tezligining yo'nalish vektorini hisobga olgan holda, oqim yo'nalishining o'zgarishi taxminan 100% ga yetadi degan xulosaga kelishimiz mumkin (6, b – rasm), bundan tashqari, uning o'zgarishi yanada intensivroq sodir bo'ladi (6 – rasm, v va g). Bu shuni anglatadiki, kurakchalarining burilish burchagi $\beta_{\pi 2} = 50,1^{\circ}$ bilan nasos uskunasi ishchi g'ildiraklaridagi kurakchalarining boshqa burilish burchaklariga qaraganda yuqoriroq samaradorlikka erishish mumkin.



6 – rasm. Kurakchalarning quyidagi burilish burchagida nasos ishchi g'ildiraklaridagi aylanma tezliklari

$$a - \beta_{\pi 2} = 58,18^0, b - \beta_{\pi 2} = 50,1^0, v - \beta_{\pi 2} = 90^0, g - \beta_{\pi 2} = 121,24^0$$

Nasos ishchi g'ildiraklarida hisoblash ishlarini olib borishda natijalar shuni ko'rsatadiki, kurakchalarning kirish joyidagi burilish burchagi ortishi bilan ishchi g'ildiraklardagi foydali ish ko'effitsienti kamayadi kurakchalarning kirish joyidagi burchak o'tkir burchak bo'lganida ishchi g'ildiraklardagi foydali ish ko'effitsienti ortadi (7 – rasm).



7 – rasm. Ishchi g'ildirakning foydali ish ko'effitsientini o'zgarish grafigi:

a) kurakchalarning chiqish burchagi $\beta_{\pi 2} > 90^0$ bo'lganda; b) kurakchalarning chiqish burchagi $\beta_{\pi 2} < 90^0$ bo'lganda.

XULOSA

7 a – rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, nasosning ish unumdorligi ortishi bilan uning foydali ish ko'effitsienti kamayadi - qizil rangda, shuningdek ishchi suyuqlik bosimi esa siklik ravishda oshadi – ko'k rangda ifodalangan. Shu

bilan birga, 7, b – rasmda keltirilgan ma'lumotlar, aksincha, unumdorlikning oshishi bilan nasosning foydali ish koeffitsienti oshib borishini ko'rsatadi, lekin shu bilan birga, ishchi suyuqlik bosimi kamayadi.

Shunday qilib, nasosning ishchi g'ildirakdagi kurakchalarining burilish burchaklarini o'zgartirish tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, berilgan kurakchalarining burilish burchagi $\beta_{\text{Л2}} = 58,18^{\circ}$ ga teng bo'lgan ishchi g'ildiraklar, taklif etilgan kurakchalarining burilish burchagi $\beta_{\text{Л2}} = 50,1^{\circ}$ ga teng bo'lgan nasosning ishchi g'ildiraklaridan barcha o'rganilgan parametrlari bo'yicha ortda qoladi xulosalash mumkin.

REFERENCES

1. Александров В.И. Расчет системы гидротранспорта хвостов обогащения железной руды на Качканарском ГОКе по результатам экспериментов. - Сборник докладов 13-ой Международной конференции «Транспорт и седиментация твердых частиц» - Тбилиси, 2006. - С. 250-263.
2. Александров В.И. Надежность и экологическая безопасность систем гидротранспорта // Обогащение руд. - 1996. - N 5-6. - с.42.
3. Александров В.И. Снижение удельной энергоемкости гидротранспортных комплексов // Горные машины и автоматика.- 2004. - N6. - 16-17 с.
4. Александров В.И. Каненков В.В. Потери напора и критическая скорость по результатам экспериментов на Качканарском ГОКе. - Горные машины и электромеханика. №6, 2006. - С. 32-37.
5. Akanova, G., Sagatova, L., Atakulov, L., Kayumov, U., & Istamov, M. Choosing the flow part geometric shape of the dredge pumps for viscous fluids.
6. Атакулов Л. Н., Каюмов У. Э. МОДЕЛИРОВАНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ ЛОПАСТИ РАБОЧЕГО КОЛЕСА НАСОСНОГО ОБОРУДОВАНИЯ.
7. Заверткин П.С. Повышение ресурса грунтовых насосов снижением интенсивности гидроабразивного изнашивания их элементов в системах гидротранспорта хвостов обогащения - Диссертация на соискание ученой степени к.т.н. - СПб, 2009. - 115 с.
8. Зарипов А.Х. Оценка энергетической эффективности работы водоотливных установок и систем подачи сжатого воздуха // Изв. вузов. Горный журнал.2010. №4. С. 74-77.
9. Атакулов Л. Н., Каюмов У. Э. Исследование оптимальных параметров лопасти рабочего колеса насосного оборудования //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 26 (110). – С. 4-12.



10. Меньшиков С.С. Повышение эффективности эксплуатации грунтовых насосов в условиях гидроабразивного износа - Диссертация на соискание ученой степени к.т.н. – Санкт - Петербург, 2014. – 148 с.
11. Рабочий проект эксплуатации хвостохранилища ОХХ СОФ и МОФ на складирование 0,1 млн. тонн хвостов на 2006-2009 г. – ЗАО «МеханобрИнжинирнг», 2005. – 83 с.
12. Семенова А.А. Методика оптимизационного проектирования лопастной системы рабочего колеса поворотной-лопастной гидротурбины: автореферат дис. канд. техн. наук. Санкт- Петербург. 2015. 19 с.
13. Тимохин Ю.В., Адам О.В., Антонов Э.И., Кошкальда Л.И., Паламарчук Н.В. Надежность высокооборотных насосов. Сборник научных трудов. Горная механика. Выпуск 1, часть 2., Донецк, 1991. - С. 81-87.
14. Юкин Г.А. Диагностирование, оперативный контроль и оптимизация режимов работы газоперекачивающих агрегатов – Диссертация на соискание ученой степени к.т.н. – Уфа, 2003. – 150 с.
15. Харчук С.И., Болдырев А.В., Жижин С.М. Расчет напорной характеристики центробежного насоса численным методом // Вестник УГАТУ, Т. 12, № 2, 2009. С. 51-58.
16. CFD – BladeGen, Version 3.2 (2000). Users’s Guide, AEA Technology Engineering Software Inc.
17. CFX – TurboGrid, Version 1.5 (2000). Software Documentation, User Manual, AEA Technology Engineering Software, Ltd.
18. Nowack O. (2000). Private Communication, Ritz Pumpen GmbH & Co. KG, Schwabisch Gmund.



KONVEYER TRANSPORTINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI VA TEXNIK YECHIMLARINI ISHLAB CHIQUISH

Oqiljon Abdurashit o'g'li Shodiyev

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

shodiyevoqiljon2@mail.com

Elmurod Umaraliyevich Yuldashev

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

yuldashevelmurodumaraliyevich@gmail.com

Jasurbek Tashpulatovich Uralov

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

jasurbek3942@gmail.com

Abbos Bahodir o'g'li No'monov

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

abbosnomonov94@gmail.com

ANNOTATSIYA

Konveyer transportida va uning elektr yuritgichida bo'ladigan barcha parametrlarning o'zgarishini nazorat qilib borish, konveyerning ish rejimlarini uzluksiz nazorat qilish va u yerda bo'ladigan o'zgarishlar asosida konveyer el-ektr yuritgichning optimal rejimlarda ishlashini ta'minlashimiz mumkin. Natijada konveyer transportining ish jarayonida yuz beradigan o'zgarishlarni boshqarish va unda bo'ladigan energiya yo'qotishlarini bartaraf etishimiz mumkin bo'ladi. Konveyer transportining ish jarayonida yuksiz ishlash holatlari ko'p kuzatiladi, bu jarayonda konveyerning samaradorligi kamayib ketadi. Ish jarayonida salt ishlash holatini aniqlab shu vaqtda konveyerning ish jarayonini to'xtatish natijasida katta energiya tejamkorligiga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Konveyer transporti, asinxron elektr dvigateli, teskari aloqali datchik va chastota o'zgartirgichlar.

ABSTRACT

We can monitor the changes of all the parameters of the conveyor transport and its electric drive, continuously monitor the operating modes of the conveyor and ensure the operation of the

conveyor electric drive in optimal modes based on the changes that occur there. As a result, we will be able to control the changes that occur in the conveyor transport process and eliminate the energy losses that occur in it. During the operation of the conveyor transport, there are many cases of no-load operation, in which the efficiency of the conveyor decreases. In the process of work, we can achieve great energy savings as a result of stopping the work process of the conveyor at this time by determining the state of the sole operation.

Keywords: conveyor, asynchronous electric motor, feedback sensor and frequency converters.

KIRISH

Mamlakatimizning konchilik sanoati sohasida konveyerlar juda keng miqyosda qo'llaniladi. Konveyer transportlari uzluksiz ravishda yuk tashish transportin hisoblanib, ular vositasida yuklarni ko'chirish juda katta samaradorlikka erishish imkonini beradi. Konveyer transporti dastlabki o'rnatish harajatlari katta bo'lishini inobatga olmaganda, eksplutatsiya jarayonida kam harajat evaziga katta hajmdagi yuklarni tashish imkonini beradi. Konveyer transporti ishlab chiqarish tarmog'i va konchilik sanoatida juda keng miqyosda qo'llaniladi. Konveyer transportining qo'llash sohasi va uzunligi ham juda keng miqyosda bo'ladi. Konveyerlarni kichik uzunlikdan juda katta uzunlikkagacha bo'lgan masofalarda birday samarali ishlatish mumkin. Shuningdek konveyerlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, bularga tasmali konveyerlar, kurakli konveyerlar, plastinkali konveyerlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bu turdagi konveyerlar ishlab chiqarish va kon sanoatining turli xil sharoitlarida ham konveyer transportini qo'llashning samarador ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida asosan tasmali konveyerlar keng miqyosda foydalaniladi. Tasmali konveyerlarning foydali ish darajasi va konstruksiyasi jihatdan boshqa tur konveyer transportlaridan samarali hisoblanadi. Tasmali konveyerlarning elektr yuritgichi sifatida asosan asinxron turdagi elektr mashinalar qo'llaniladi. Quvvati kichik va gorizontal holatda joylashgan tasmali konveyerlar uchun asosan qisqa tutashgan rotorli asinxron dvigatellardan, katta quvvatdagi va ma'lum bir nishablikda joylash-gan konveyerlar uchun esa faza rotorli asinxron dvigatellarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning sababi sifatida ma'lum bir qiyalikda joy-lashgan holatda konveyer elektr yuritgichini ishga tushirish bir muncha katta ishga tushirish momentini va silliq ishga tushirishni talab etadi. Shu sababdan katta quvvatdagi va qiya holatdagi konveyer transportlarida faza rotorli asinxron dvigatellar ishga tushirish vaqtida silliq ishga tushishni ta'minlash

maqsadida o'rnatiladi. Qolgan holatlarda esa tannarx jihatdan arzon va soda konstruktiv tuzilshga ega bo'lgan qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron mashinalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda energiya resurslaridan oqilona foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning qay darajada muhim iqtisodiy asosga ega ekanligini ushbu sohaga doir chiqarilgan prezident farmonlari orqali ham bilish mumkin. Jumladan O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2020-yil 19-iyunda imzolangan "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-628 sonli qarori bunga yorqin misol bo'la oladi. [1]

Konveyer transportining uzunligi oshib borgan sari unda ishlarni havsiz bajarish va konveyerning to'la uzunligi bo'ylab nazoratni amalga oshirish murakkablashib boradi. Ta'minot konveyerlarida ko'p hollarda yuk tashish jarayonida yuk ta'minotining uzluksiz bo'lmasligi holatlari kuzatiladi. Bu holatda konveyerning ma'lum vaqt oralig'ida salt ishlashi va samaradorligi kamayib ketishi hamda uskunaning ortiqcha energiya sarf qilishiga olib keladi. Konveyer transporti katta uzunlikda katta quvvatli elektr yuritgich qo'llanilishini talab qiladi, katta quvvatdagi elektr yuritgichning salt ishlash vaqtidagi energiya istemoli ham sezilarli katta bo'ladi. Yuksiz ishlash vaqtida konveyer transportining foydali ish koeffitsienti nol foizni tashkil etadi shu bois bu vaqtda istemol qilingan elektr energiyasi to'laligicha isrof energiya hisoblanadi. Bu holatni bartaraf etish uchun konveyer transportida yuk bo'lmagan vaqtda uni to'xtatib turish va yuk kelishi bilan uni qayta ishga tushirish maqsadga muvofiqdir. Ammo bu jarayonni qo'lda boshqarish birmuncha murakkab va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, shu sababdan ham bu jarayonni avtomatik tarzda amalga oshirish har tomonlama qulay va inson mexnatini yengillashtirishga omil bo'ladi. Konveyerni yuksiz holatda ishlamasligi nazorat qilish va boshqarish uchun bir nechta optimal variyantlarni ko'rib chiqamiz. Dastlabki yechim sifatida nurli sezish datchiklari vositasida konveyerning yukli yoki yuksiz holatda ekanligini nazorat qilishni keltirishimiz mumkin. Bu jarayonda ikkita nurli sezish datchigi konveyerning uzunligi bo'yicha bosh va oxirgi qismlariga o'rnatiladi, yuklanuvchi qismda joylashgan nurli sezish datchigidan ohirgi yuk o'tganligi haqidagi axborot signali chiqqanidan so'ng konveyerning bosh qismida joylashgan nurli sezish datchigi ishga tushadi va ohirgi yukni konveyerning bosh qismidan o'tganligi haqidagi axborot signalini vaqt relesiga beradi, vaqt relesi xotirasiga belgilangan vaqt oralig'ini hisoblaydi va shu vaqt

oralig'ida konveyerning boshqaruv paneliga o'chirish signalini yuboradi.[2]


NATIJALAR

Agar yuk kelishi ma'lum bir sababga ko'ra uzulib qolib vaqt relesi uzulgunga qadar konveyerga tushadigan bo'lsa vaqt relesi va nurli sezish datchigi konveyerni o'chirish axborotini bekor qiladi va dastlabki nazorat holatiga qaytadi. Shuningdek birinchi nurli sezish datchigi signal bergan vaqtdan ikkinchi nurli signal datchigi signal berguncha vaqt oralig'ida yuk ta'minoti tiklanadigan bo'lsa ham signal uzatish jarayoni to'xtatiladi. Bu usulda konveyerni nazorat qilish uning tashidigan yuk turiga bog'liq bo'ladi, shuningdek konveyerning qo'llanilish muhitiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Nurli sezish datchigi chang miqdori yuqori bo'lganda, yuqori harorat va yuqori namlik ta'sirida yolg'on axborotlarni chiqarish ehtimoli oshib ketadi, shu sababli bu holatlar uchun nurli sezish datchigini qo'llash ishonsiz yechim bo'ladi. Yopiq konstruksiyaga ega bo'lgan va chang hosil bo'lmaydigan sharoitlarda esa nurli sezish datchiklari katta samaradorlik va katta iqtisodiy tejamkorlikka erishish imkonini beradi. Yuksiz holatda konveyerni nazorat qilishning ikkinchi variyanti sifatida konveyerda yuk vaznini nazorat qilish qurilmalari yoki vazn nazorat datchiklari vositasida amalga oshirishni kiritishimiz mumkin. Vazn nazorat datchiklari bu ma'lum hajmda yoki harakatlanayotgan konstruksiyada yuz berayotgan vazn o'zgarishi hisobiga komutatsiya jarayonini amalga oshiruvchi va signal beruvchi elektr apparati hisoblanadi. Vazn datchiklari vositasida konveyer transportini nazorat qilishda yukli va yuksiz holatdagi vaznlari farqini aniqlash hisobiga sezgirlikni namoyon etish va jarayonni nazorat qilish amalga oshiriladi. Vazn datchiklari konveyerni to'la yuksiz holatda ekanligi haqidagi axborot signalini bergandan so'ng vaqt relesi nazorat vaqtini hisoblay boshlaydi. Nazorat vaqtini o'rnatishdan maqsad bu konveyerning yuk ta'minotida turli xildagi holatlar yuzaga kelishi natijasida yukni ma'lum vaqt ta'minoti uzulib qolishi natijasida yuzaga keladigan holatlarda konveyer to'xtab qolmasligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Vazn datchiklarini qo'llash sohalari juda keng bo'lib, changli muhitda va yuqori harorat muhitida ham samarali xizmat qiladi. Vazn datchiklarining kamchiligi sifatida uning tannarxi qimmatligini keltirishimiz mumkin [3]. Yuqorida keltirilgan holatda konveyerda yuksiz ishlash jarayonida konveyerning ortiqcha energiya istemolini bartaraf etish katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol tariqasida keltirishimiz mumkinki boyitish fabrikalarining ruda ta'minoti jarayonida maydalagichga rudalar elektrovoz dumpkarlari yordamida tashib kelinadi. Bir elektrovoz yuk bo'shatishni ta'momlagach ikkinchi elektrovoz kelgunga qadar va uni yuk to'kich uchun monyovr amalga oshirgunga qadar ma'lum

vaqt o'tadi, shu vaqtda maydalagichning ta'minot konveyerlari yuksiz holarda aylanib turadi. Yuqorida keltirilgan nazorat datchiklari yordamida konveyerning ish rejimi to'raligicha avtomatik tarzda amalga oshirish mumkin bo'ladi.


Konveyer transportini energiya samaradorligini oshirish bilan bir qatorda uni texnik parametrlarini o'zgarishini ham meyaoridan oshib ketmasligini ham ta'mildash kerak. Bunda: dvigatel chulg'am temperaturasi, aktiv quvvat ko'effitsenti, magnit kuch chiziqlari, statorning o'tkinchi jarayonidagi toklarni meyorida bolishini tajribada ko'ramiz[4].

Konveyer transportini elektr yuritmasini eng asosiy parametrlaridan biri bu temperaturasi hisoblanadi.



1-rasm. Elektr dvigatelni stator chulg'amini temperatura grafifi.

Temperatura elektr yuritmani ishlash davomiyliginikamaytirib chulg'am izolyatsiyasiga salbiy tasir ko'rsatadi. Elektr yuritmalarining ish jarayonida energiyaning bir qismi ulardagi isroflarni qoplashga sarflanadi. Energiya isroflarining barcha turlari issiqlikka aylanib, asosan elektr yuritmalarining aktiv qismlari temperaturasi oshirsa, uning bir qismi esa atrof muhitga uzatiladi.



2-rasm. Elektr dvigatelni ishchi grafifi

Elektr yuritmalarining chulg'amlar, magnit o'tkazgich elementlari va konstruktiv detallar majmuasidan iborat. Bu qismlarning issiqlik o'tkazuvchanligi, issiqlik sig'imi va sovitilish sharoitlari har xil bo'ladi, bu esa, Elektr yuritmalarining issiqlik maydoni taqsimlanishining murakkab xarakterda ekanligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Konveyer transportining elektr yuritgichlarini ishga tushirish usullari uning qo'llanilayotgan sharoitdan kelib chiqqan holda tanlanadi. To'g'ridan to'g'ri ishga tushirish usuli qiya holatda o'rnatilgan konveyerlarda qo'llash uchun samarali hisoblanmaydi. Bu holatda yuritgichni qo'shimcha qarshiliklar ulash orqali ishga tushirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularni ishga tushirish usuli qanday bo'lishidan qattiy nazar ish jarayonida texnologik jarayonning o'zgarishini uzliksiz nazorat qilish va elektr yuritgich quvvatini shu asosda boshqarish katta unumdorlikka va energiya tejamkorligiga erishishga yordam beradi. Konveyer transportining yukli va yuksiz holatlarida elektr yuritgich tezligi va quvvatining nominalda bo'lishi ortiqcha energiya yo'qotilishiga olib keladi. Teskari aloqa datchiklari yordamida texnologik jarayonidagi o'zgarishlarni elektr yuritgich boshqaruv tizimi bilan bog'lash orqali elektr yuritgichni optimal parametrlarda ishlatishini ta'minlashimiz mumkin. Bu usul har tomonlama zamonaviy, iqtisodiy va energiya tejamkor usul hisoblanib, optimal parametrlarini saqlash orqali elektr yuritgich va texnologik qurilmalarni uzoq vaqt xizmat qilishiga zamin yaratadi. [1]

XULOSA

Xulosa sifatida konveyer transportini elektr yuritmasini boshqarishda tejab elektr energiyasini samaradorligini oshirish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Yuksiz ishlash vaqtida konveyer transportining foydali ish koeffitsienti nol foizni tashkil etadi shu bois bu vaqtda istemol qilingan elektr energiyasi to'laligicha isrof energiya hisoblanadi. Bu holatni bartaraf etish uchun konveyer transportida yuk bo'lmagan vaqtda uni to'xtatib turish va yuk kelishi bilan uni qayta ishga tushirish maqsadga muvofiqdir. Bu bilan konveyer transportini salt ishlash rejimida ishlashini cheklov qo'yib reaktiv quvvatni meyoridan oshib ketishidan saqlaydi. Shu bilan birga tarmoqda katta quvvatli elektr energiyasi yo'qolishdan va konveyer transportini salt ishlashda istemol qilayotgan quvvatdan tejash imkoniga ega bo'lamiz.

REFERENCES

1. Shodiyev O.A., Yuldashev E.U., Yuldasheva M.A., Jalolov I.S. Konveyer transportini elektr yuritmasini teskari aloqali datchiklari vositasida boshqarish https://scholar.google.com/co/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=niVbzYYAAAAJ&citation_for_view=niVbzYYAAAAJ:2osOgNQ5qMEC



2. S.Khalikov, U.Boqijonov, H.Muminov, E.Yuldashev, N.Ikromov, Operational Eanagement of Substation Safety Power, retrieved from <https://aip.scitation.org/doi/abs/10.1063/5.0117222>
3. Shodiyev O.A, Abdukarimov E.N, Usmanaliyeva I. A. Kariyer ekskavatori elektr yuritgichi tizimlarini modernizatsiya qilishning samaradorligi
https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=niVbzYYA AAAJ&citation_for_view=niVbzYYAAAAJ:u5HHmVD_uO8C
4. Jalolov I.S. Prokatlash jarayonidagi termal qattiqlashtirishning avtomatik boshqaruv nazorati
<https://cyberleninka.ru/article/n/prokatlash-jarayonidagi-termal-qattiqlashtirishning-avtomatik-boshqaruv-nazorati-1>



YOSHLAR HUQUQIY ONGINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Kozimbek Abdixakimovich Xaydarov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Harbiy
tayyorgarlik o‘quv markazi boshlig‘i, dotsent

ANNOTATSIYA

Yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish mamlakatimizning kelajagini belgilaydi. Mamlakatimizning ertangi kuni, jamiyatda o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan, bunyodkorlik g‘oyalari hayotga tatbiq etuvchi muhim kuch, ma‘naviy salohiyatli resurs hisoblangan yoshlarni ma‘naviy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda munosib o‘rin egallashlariga qulay shart-sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylanishiga ko‘maklashish har birimizning muhim vazifalarimizdan sanaladi. Mamlakatimizda yoshlarni milliy an‘ana va qadriyatlarimizga hurmat, insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma‘naviy salohiyatli va jismonan sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: ong, huquq, madaniyat, tarbiya, qonun, yoshlar, harakatlar strategiyasi.

KIRISH

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirishni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining —Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, Qonuni “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularni intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog‘liq bir qator



yangi va muhim vazifalarni belgilab berganligini alohida qayd etish joiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigida: - “...Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, kat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni ustuvor vazifa sifatida bugungi davr talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Sizlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallab, hayotda o‘z mustahkam o‘rningizni topishingiz, baxtli bo‘lishimiz uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan fikrlarni bildirgan. Bugungi kun yoshlari nafaqat faol, ma’naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan bilimdon, yuksak ma’naviyatli bo‘lishlari kerak. Buning uchun yoshlarning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechishda amaliy yordam ko‘rsatishimiz, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e‘tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifani samarali amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanmog‘imiz lozim. Shuni alohida ta’kidlashimiz joizki, yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib, hayotdan munosib o‘rin egallashlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etishimiz kerak.

Bir so‘z bilan aytganda, yoshlar – yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, g‘ayrat-shijoatli, vatanparvar, zamonaviy, kreativ, barkamol shaxs bo‘lmog‘i lozim. Yoshlarning har tomonlama barkamol va ma’naviy salohiyatli hamda huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish uchun quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish lozim deb xisoblaymiz.

1. Yoshlarning ma’naviy salohiyatini yanada takomillashtirish;
2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlarning ishtirokini oshirish;
3. Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini yanada mustahkamlash;
4. Yoshlarning ongi va qalbida mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik hissini yanada mustahkamlash;
5. Xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash.

Demokratik jamiyat rivojida yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirishning ma’naviy omillarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda yoshlarning faol ishtirok etishi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Bu avvalo davlatning maqsad

va vazifalari, yoshlarga bo'lgan munosabati va siyosati orqali amalga oshadi. Hamda yoshlar faoliyatini belgilaydigan muhim mezon va asosi hisoblanadi. Ayni paytda yoshlarning huquqiy ongi va sovodxonligining yuqoriligi jamiyat boshqaruvini demokratiyalashuvining muhim omili hisoblanadi. Yoshlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirok etishi uchun bugungi demokratik o'zgarishlar, tegishli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu yoshlarni o'zlarining salohiyatlari va imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga undamoqda. Ayni paytda dunyoda yoshlarning jamiyatdagi mavjud tartibotlar va qadriyatlarga bo'lgan munosabati har xil ekanligini ta'kidlash lozim. Shu nuqtai nazardan yondashganda, bizningcha, yoshlarning faollik darajasi, ularning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq xolda turli xil ekanligini ta'kidlash lozim. Jamiyat boshqaruvida ishtirokida yoshlar darajasi alohida ta'kidlanmoqda. Yoshlarning jamiyat hayotidagi faolligini fuqarolar va jamiyat oldida turgan umummilliy manfaatlarni anglashi, unga daxldorlik xissining mavjudligi orqali ko'rishimiz mumkin.

Mustaqillik tufayli jamiyatda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga nisbatan O'zbekiston davlatining maqsadi va mohiyati ham o'zgardi. Bu davlatning maqsadlarini o'zgarganligi, davlat monopoliyasiga barham berilganligi va huquqiy davlat mezonlari asosida davlatni bosh islohotchiga aylanganligi bilan bog'liq. Hamda uning yangicha g'oyaviy asosga qo'yilganligi, davlat mafkurasining ta'siridan xalos bo'lish imkoniyati yaratilganligi bilan aloqador. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, —O'zbekistonda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Hech qaysi mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilganligi, uning huquqiy asosini tashkil etadi. Natijada yoshlar yakka hukmron mafkuraning ta'siridan xalos bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi. Davlatning huquqiy asosida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bugun O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish bosh strategik vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlatda qonun ustuvor, fuqarolarning erkinligi va huquq-manfaatlari kafolatlangan. Jamiyat a'zolari, xususan yoshlar oldida yangi talablarni ko'yadi. Hamda tegishli zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan siyosat olib bordi. Jamiyatning ma'naviy xayoti negizlari o'zgardi. Ma'naviyat yoshlar huquqiy ongini oshirishda muhim omilga aylandi. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilinib, Senat tomonidan 2016 yil 24 avgustda ma'qullangan —Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini



safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish o'tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo'lib kelayotgan edi. So'nggi ikki yilda ko'rilgan choratadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizga oshirishga erishdik. 2019 yilda bu ko'rsatgich 20 foizga yetdi. Bugun O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha mo'ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra yoshlarni oliy ta'limga jalb etish kvotasini 50 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Bu yoshlarga jamiyatimiz tomonidan berilayotgan yangi imkoniyatdir.

Davlat xokimiyati va boshqaruvni oqilona tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, zamonaviy ilm-fan va tafakkur yutuqlarini joriy etishda yosh rahbar kadrlarning ma'naviyati va bilimiga tayanish muhim. Mustaqil milliy davlatchiligimiz taraqqiyoti yillar mobaynida izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinayotgan islohotlar tufayli bugungi kunda mamlakatimizda milliy va umuminsoniy demokratik qadriyatlar asosida shakllanayotgan davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini qaror toptirishda yoshlarning faolligini oshirishning ma'naviy omillarini yanada boyitish va undan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Buni yoshlarning aholi tarkibidagi ulushida ham ko'rish mumkin. "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda" Bu esa ularning nufuzli qatlam ekanligini ko'rsatib turibdi. Shuning uchun har bir davlat o'z siyosatida yoshlarga alohida e'tibor qaratadi va ularni qo'llab quvvatlaydi. O'zbekiston jamiyati hayotida ham yoshlar nufuzli qatlam sifatida o'z salohiyatiga ega. Aholining 60%i yoshlardan iborat ekanligi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bu yoshlarning O'zbekistondagi jamiyat boshqaruvidagi holatini, dinamikasini baholashda yetarli asos bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va mahalliy kengashlarda bo'lib o'tgan saylovda yoshlarga alohida e'tibor berilganligi va siyosiy partiyalar dasturlarida —Yoshlar qanotining mavjudligi ularga berilayotgan muhim e'tibordir. Jamiyat boshqaruvida yoshlarning yangi avlodiga mansub bo'lgan kadrlarni kirib kelishi o'z istiqboliga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish haqidagi taklifi xalqaro miqyosda keng qo'llab quvvatlandi. Mustaqillik tufayli yoshlar faolligini oshirishning yangicha ma'naviy omillari shakllandi va qaror topmoqda. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma'naviy yuksalishga erishish jamiyat boshqaruvida yoshlar

faolligini oshirish bilan bog‘liq xolda namoyon bo‘lmoqda. Bu yerda ma‘naviy yuksaklik yoshlar faolligini belgilovchi muhim mezondir. Yoshlarning ma‘naviy yuksakligi deganda, tuzilmaviy nuqtai nazardan yondoshib, quyidagicha belgilarini ko‘rsatish mumkin: Birinchidan, yoshlar ongi va tafakkurining o‘zgarib, mustaqillik tafakkuriga xos xususiyatlarga ega bo‘lib borayotganligi. Buni mustaqillik to‘g‘risida o‘ylash, mustaqillikni asrab-avaylash va mamlakat taraqqiyoti to‘g‘risida qayg‘urish tuyg‘ularida ko‘rish mumkin. Ikkinchidan, yoshlar ma‘naviy salohiyatining oshib borayotganligi va jamiyat hayotida iqtidorli, bugungi qonuniyatlarni yaxshi bilgan AKT yutuqlaridan habardor bo‘lgan yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etayotganligi bu o‘zgarishlarni xarakterlaydigan muhim jihatlardir. Shuningdek yoshlarni huquqiy ongi va madaniyatini oshirishni quyidagi yo‘nalishlar orqali ko‘rish mumkin bo‘ladi:

1. Davlat hokimiyati boshqaruvining ma‘naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari tubdan o‘zgardi. U milliy g‘oya negizlarida tayangan holda davlat boshqaruvida yangicha ma‘no-mazmun baxsh etmoqda hamda yoshlar muhim demokratik prinsiplarga tayanmoqda.

2. Yoshlarning jamiyat hayotiga qarashi o‘zgardi. Jamiyat rivojlanishida ma‘naviy va moddiy hayot uyg‘unligiga tayanish jamiyatdagi o‘zgarishlarda o‘ziga xos mazmun kasb etmoqda. Yoshlarning ong va tafakkurining o‘zgarishi, uni jamiyat hayotida faol ta‘sir etuvchi omilga aylandi. Ong va tafakkur o‘zgarmasa, hayot o‘zgarmaydi va yoshlar faollashmaydi. Shunday ekan yoshlarga yanada ko‘proq e‘tibor qaratish va ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, shakllantirish masalalariga maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlab katta e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan amaliy islohotlar tufayli yoshlarning ma‘naviy salohiyatini o‘zgartirish va undan oqilona foydalanishga alohida e‘tibor berilmoqda. Bu yoshlarning faolligini, huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan yangi besh tashabbusda aniq namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarning jamiyat hayotida faolligini oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Unga ko‘ra:

1. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha yagona ko‘rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish;

2. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi —O‘zbekiston yoshlari – 2025 konsepsiyasini ishlab chiqishi, unda ma‘naviy va jismoni barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi;

3. Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlashda hech

kim chetda turmasligi, - O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang! degan shior odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi;

of the cell membrane (Pic. 2). At the 5th minute of exposure, the destruction of the germinal membrane is observed with a thickening of the cellular structure and with partial staining in brown color (Pic. 3). Thus, our cytological studies indicate that the antiseptic solution of furacilin in combination with a hypertonic solution is an effective disinfectant when treating the cavity of the fibrous capsule during echinococectomy, but after 10 minutes the percentage of dead scolexes was 90% (Pic. 4).


The results of cytological studies in the 2nd group of patients are shown in Table 2.

Table 2


The results of the impact of disinfectant, antiseptic, antimicrobial, antifungal drug 80% glycerol on the viability of the fruiting elements of echinococcal cysts in group 2 patients.

Method of disinfection	amount of patients	Exposure (in minutes)% of dead scolex		
		3	5	10
Glycerin 80%	18	90,0	100,0	100,0


The use of an 80% solution of glycerin already at 3 minutes had a detrimental effect on scolexes, and 90% of dead scolexes were detected. This was manifested by the fact that the secondary elements of echinococcus were immobile, intensely stained brown, their internal structure was almost not differentiated. Studies conducted during exposures from 5 to 10 minutes did not reveal significant differences, all scolexes were dead. It was found that the optimal exposure time is 4-5 minutes. The results of cytological examination are presented in Pic.5-8. A live scolex with a whole germinal membrane with an integral internal cellular content (Pic. 5).




pic. 5. Live scolex before treatment with glycerin



pic. 6. 3 minutes after exposure to glycerin



pic. 7. 5 minutes after exposure to glycerol.



pic. 8. 10 minutes after exposure to glycerol

At the third minute of exposure, a change in the shape of the scolex was determined in the direction of stretching and swelling of the cell membrane (Pic. 6). At the 5th minute of exposure, the destruction of the germinal membrane was observed with a thickening of the cellular structure and with partial staining in brown color (Pic. 7,8). Summing up the results of cytological studies in group 2 patients, it can be assumed that 80% glycerin in its scolexicidal action is an effective disinfectant of the residual cavity of the fibrous capsule and is not inferior to 0.02% furatsilin solution and 30% hypertonic solution, which was the reason for us to use 80% glycerin solution in the clinic.

Along with the observance of the principles of aparasitism and antiparasitism during the operation, patients in the postoperative period underwent stimulation of specific immunity and chemotherapy with albendazole. In addition, detoxification, antioxidant and hepatoprotective therapy was performed in the postoperative period. It is well known that Echinococcus stimulating the immune on the one hand, on the other hand, causes suppression of the immune response and suppresses the host's defense mechanisms both against their own antigens (homologous immunosuppression) and antigens of other agents infecting organisms. It was found that most of the studied patients with ED are characterized by the presence of an immunodeficiency state of varying severity; the most pronounced immunodeficiency state is observed in patients with a long history of the disease, a severe course of the pathological process, and pronounced changes in biochemical tests. For the purpose of immunostimulation and preventive prophylactic treatment of immunodeficiency, immunomodulin was used in the complex of treatment for patients in the preoperative and postoperative period. Immunomodulin was used at a dose of 2.0 ml intramuscularly 2 times a day. One of

the effective methods of preventing postoperative complications and recurrence of the disease in operated patients was preventive antibiotic therapy with albendazole. The drug "Albendazole" was taken in two doses at a standard dosage of 10-12 mg/kg. Chemotherapy was also combined with the use of furazolidone 50 mg 3 times a day, metronidazole 250 mg 2 times a day. As hepatoprotectors, we used the drug Essentiale forte according to

300 mg intravenously, Hepa-Merz 10 mg per 400 ml infusion solution.

Thus, the purpose of prophylactic chemotherapy was to rehabilitate the body of a patient with echinococcosis with an anthelmintic chemotherapy drug in order to prevent the recurrence of the disease in the postoperative period.

CONCLUSION

Thus, the choice of treatment and diagnostic tactics for liver echinococcosis in most cases depends on the nature of the lesion, the number and size of echinococcal cysts, as well as on the choice of the most optimal access and methods for isolating the surgical field, antiparasitic treatment of the cyst and rational drainage of residual cavities, based on the principles aparasiticity and antiparasiticity of echinococcectomy, increase the radicalness of operations and sharply reduce the likelihood of recurrence of the disease. Conducted immune-stimulation improves the course of the early postoperative period. Pre- and postoperative chemotherapy with albendazole in combination with an immunostimulant immunomodulin and hepatoprotectors, as well as consistent, phased and effective treatment of echinococcal cysts, reduced the incidence of immediate complications by 2-3 times.

REFERENCES

1. Аззамов Ж.А. Современные взгляды на патологию эхинококкоза печени (обзор литературы) // Вопросы науки и образования. – 2018. – № 11(23). – С. 93–95.
2. Назыров Ф.Г., Акбаров М.М., Сайдазимов Е.М. Эндохирургия эхинококкоза печени, осложненного желчными свищами // Аллергология и иммунология. – 2016. – Т. 17, № 1. – С. 75–76.
3. Нишанов Ф.Н., Отакузиев А.З., Бозоров Н.Э., Абдуллажонов Б.Р., Нишанов М.Ф., Курбонов Х.А. Профилактика рецидива при множественном эхинококкозе органов брюшной полости // Научно практический журнал. «Инфекция, иммунитет и фармакология». - Узбекистан. Ташкент, 2015. - №3. – С. 146-153.

4. Шамсиев А. М. Особенности диагностики и лечения морфологических модификаций эхинококкоза печени : научное издание / А. М. Шамсиев, З. Б. Курбаниязов, К. Э. Рахманов, С. С. Давлатов // Медицинский журнал Узбекистана. - Ташкент, 2016. - №2. - С. 13-16.
5. Шевченко Ю.Л., Назыров Ф.Г. Хирургия эхинококкоза. – М. : Издательство «Династия», 2016. – С. 44–45.
6. Barzin Z., Sadjjadi S. M., Panjehshahin M. R. Protoscolicidal Effects of the Garlic Chloroformic Extract on the Protoscolices of Hydatid Cyst at a Short Exposure Time, up to Five Minutes // Iranian journal of medical sciences. – 2019. – Vol. 44, № 1. – PP. 28–34.
7. Farhadi M., Haniloo A., Rostamizadeh K. et al. Efficiency of flubendazole - loaded mPEG-PCL nanoparticles: A promising formulation against the protoscoleces and cysts of Echinococcus granulosus // Acta Tropica. – 2018. –№ 187. – PP. 190–200.
8. Lissandrin R., Tamarozzi F. Piccoli L. et al. Factors influencing the serological response in hepatic Echinococcus granulosus infection // Am. J. Trop. Med. Hyg. – 2016. – № 94. – PP. 166–171.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDA XORIJIY FIRMALAR FAOLIYATI TARIXIDAN

Bektosh Elmurodovich Raximov

Samarqand davlat universiteti

raximovbektosh@samdu.uz

ANNOTATSIYA

Maqola Turkiston general-gubernatorligi xorijiy firmalar faoliyatiga bag'ishlangan. Xorijiy investorlarning (Gergard va Gay, aka-uka Kraftlar, aka-uka Knoplar, Lui Zalma, aka-uka Shlossberg va "Beshbosh" aksionerlik jamiyati.) o'lka infrastrukturasi, mahalliy vinochilik, ipakchilik sohasidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turistan, xorijiy firmalar, aksionerlik jamiyatlari, xorijiy sarmoyalar, paxta firmalar, xorijiy tadbirkorlar, ipakchilik.

ABSTRACT

The article is devoted to the activities of foreign companies of the Turkestan Governor-General. The role of foreign investors (Gerhard and Guy, the Kraft brothers, the Knop brothers, Louis Zalma, the Schlossberg brothers and Beshbosh JSC) in the country's infrastructure, local winemaking, and silk production is analyzed.

Keywords: Turkestan, foreign companies, joint-stock companies, foreign investments, cotton companies, foreign entrepreneurs, silk industry.

KIRISH

O'zbekistonning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi tarixi haqida so'z ketganda, o'lkada sanoat korxonalarining yuzaga kelishi, ularning faoliyat sohalari va mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni borasida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Ayniqsa, ushbu davrdagi xorijiy firmalarning faoliyatini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro kapitalistik munosabatlarning tobora rivojlanib borishi ta'sirida Turkiston xalq xo'jaligiga rus va chet el kapitalining kirib kelishi yanada kuchaydi. O'lka xalq xo'jaligiga monopoliya kapitalining kirib kelishi bir qator omillarga asoslangan bo'lib, ular paxtani qayta ishlash va yog ishlab chiqarish korxonalarining ko'plab qurilishi, o'lka xududidan temir yo'l o'tkazilishi, konchilik sanoatining ishga tushirilishi va boshqalardan iborat edi. Rossiyani o'lka bilan bog'lagan temir yo'llar ishga tushirilgach,



rus va chet el kapitalining Turkistonga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi. Nisbatan qisqa vaqt, ya'ni 20 yil ichida o'lkaning tub viloyatlari va yirik shaharlarini Rossiyaning markaziy rayonlari bilan bog'lovchi temiryo'llar qurildi, turli firmalar, shirkatlar tuzilib, ular mustamlaka bilan metropoliya o'rtasida savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turkiston paxtasini sotib olish bilan shug'ullangan dastlabki firmalar metropoliya ip-gazlama sanoatiga tegishli bulib, ular "Katta Yaroslavl manufakturasi", "S.Morozov", "N.Kudrin va kompaniyasi" hamda boshqa idoralardan tashkil topgan edi. Bu firmalarni paxta savdosida ishtirok etishlariga qarab quyidagi uch guruxga bo'lish mumkin:

1. Rossiyaning Yevropa qismiga tola jo'natish bilan chegaralangan firmalar (masalan, Rossiya xazinalarni joylashtirish jamiyati", "Kavkaz va Merkuriy shirkati");

2. Xususiy paxta zavodlari bo'lgan paxta jo'natuvchi shirkatlar (masalan, "Aka-uka Kamenskiylar shirkati");

3. Paxta maydonlari, paxta tozalash zavodlariga ega bo'lgan va paxta bilan bog'lik turli operatsiyalarni bajargan firmalar (masalan, "Katta Yaroslavl manufakturasi", Meyerkort firmasi, "N.Kudrin va kompaniyasi" shirkati va boshkalar).

Bundan tashqari o'lkadagi banklar bilan keng aloqalari yordamida katta miqdorda paxta sotib olish bilan shug'ullangan «Aka-uka N. va A.Ter-Mikrtichevlar», «Fors shirkati», «S.X.Kevorkovlar», «B. Arzumanov», «Vadyayevlar savdo uyi», Ashxabod va Marv shaharlarida faoliyat yurgizgan Germaniyaning «Gerxard va Gey Aksionerlik jamiyati» kabi paxta firmalari yaxshi foyda ko'rgan. Turkistonda tuzilgan firmalar va shirkatlar orasida paxta bozorida tutgan o'rni va sarmoya muomalasining xajmi jixatidan "Katta Yaroslavl manufakturasi" yetakchilik qilar edi. Bu shirkat 1881-yildan 1884-yilgacha faqat mahalliy navli paxtani sotib olish bilan shug'ullangan. U fakat 1884 yilning o'zidagina Toshkent va Qo'qondan 40 ming pudga yaqin, Buxoro amirligidan 100 ming pud paxta sotib olgan. 1888-yilga kelib shirkat o'zining xususiy fabrikasi uchun o'lka bozorlaridan 450 ming pud, 1889-yili qariyb 590 ming pud tozalangan paxta sotib oldi. Shirkat o'lkada paxta yetishtirish va tayyor gazlamaparni sotish bilan ham shug'ullandi. XIX asrning oxirida shirkatning Sirdaryo viloyatida 450 ga yeri bo'lgan.

Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi 1894 yilda qabul qilingan qonunda «Turkiston o'lkasida yer va umuman

ko'chmas mulkni sotib olishga faqatgina nasroniy dinidagi rus fuqarolaridan Turkiston va u bilan chegaradosh O'rta Osiyo davlatlari fuqarolaridan tuzilgan paychilik asosidagi shirkatlar va aksiyadorlik jamiyatlarigagina ruxsat etiladi» - deyilgan. Shu qonunda chet elliklarga yoki yahudiy diniga e'tiqod qiluvchi shaxslarga ko'chmas mulkni sotib olish ta'qiqlangan, ularni faqat vaqtincha foydalanish uchun sotib olishiga ruxsat berilishi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, 1907 yili Turkiston o'lkasidagi aksiyadorlik jamiyatlari o'zlarining Nizomlaridan «jamiyatning aksiyalariga chet ellik shaxslar egalik qilishlari taqiqlanadi» - degan jumlaning olib tashlashni so'rab, Savdo va sanoat vaziriga murojaat qilganlar¹. 1907 yil 30 oktabr kuni ministrlar: «Rossiya hududida ko'chmas mulkka egalik qiluvchi jamiyat boshliqlari faqat yahudiy diniga mansub bo'lmagan shaxslar bo'lishlari mumkin» - degan qaror chiqargan. 18 dekabrda Nikolay II ning imzosi bilan Savdo va sanoat ministri orqali Fransiya, Angliya, Germaniya va Belgiya davlatlari aksiyadorlik jamiyatlarining Rossiya hududida ish olib borishiga ruxsat berildi. Oqibatda Turkiston o'lkasiga xorijiy firmalar va ularning kapitalari ham kirib keldi. Ular orasida jahonga mashhur «Zinger» firmasi alohida o'rin tutadi. Rossiyani o'lkasi bilan bog'lagan temir yo'llar ishga tushirilgach, rus va chet el kapitalining viloyatga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi. Nemis siyosiy doiralari, ayniqsa, tadbirkorlari Turkiston bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdan manfaatdor edilar. Ruslar bu yerlarni egallashidan ancha avval ular o'z savdo firmalarini ochib Turkistonda keng savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yganlar. Masalan, xorijiy firmalar bilan bo'lgan savdo operatsiyalari nemis-mennonit (Emil' Rizen va boshqalar)larning yordamida amalga oshirilgan. Xonning yozgi qarorgohi Nurillaboy saroyi, shifoxona va savdo-telegraf kontorasining qad rostlashi uchun qurilish materiallarini Moskva va Germaniya firmalari yetkazib bergan. Xon saroyi uchun bezak material va elektr jihozlarni, shu jumladan, qandillar ham Pollak, Vestingauz va Umumjahon elektr kompaniyasi kabi nemis firmalari orqali Berlindan keltirilgan. Nemis tadbirkorlarini Turkiston foydali qazilmalari hamda shifobaxsh o'simliklari juda qiziqtirgan. Ushbu tadbirkorlar ularni sotib olib, Germaniyaga jo'natganlar. Nemis farmatsevt tadbirkorlarining ichida eng mashhuri Dragendorf bo'lgan. Foydali qazilmalar ichida ozokerit (tog' tabiiy mumi) ga talab katta bo'lgan. U nemis firmalari tomonidan sotib olinib, Boku va Botumi orqali Germaniyaga

¹ Bu masala xususida Turkiston general-gubernatori o'lkaga chet ellik sarmoyadorlarning kirib kelishiga qarshilik bildirgan. Bundan ko'zlangan maqsad rus tadbirkorligini xorij kapitalidan himoya qilish bo'lgan. Lekin Savdo va sanoat vaziri Rossiyaning ichki pul bozorini og'ir ahvoli xorij kapitali hisobidan yaxshilanadi, deb Nizomlardan yuqoridagi jumlaning olib tashlagan. 1 iyul kuni esa bu masala yuzasidan Nikolay II o'z roziligini bildirgan (Qarang: Jamolhoji I. Turkistonda rus va xorijiy neft' shirkatlarining faoliyati // O'zbekiston tarixi, 2004 yil 2-son. - B. 61.



yuborilgan. 1912 yilda ozokerit qazib olish bilan faqat bitta Lyuborad firmasi shug'ullangan. 1913-1914 yillarda Lyuborad bilan birga Feysflog, Baxshi-Baxshiyev firmalari ham ozokerit qazib olishgan.

O'lkada ko'plab chet el firmalari faoliyat yuritgan. Germaniya va Avstro-Vengriya fuqarolari bo'lmish savdo va sanoat firmalarining egalari (Gergard va Gey, aka-uka Kraftlar, aka-uka Knoplar, Lui Zalma, aka-uka Shlossberg va h.k.) soxta savdolar, rus familiyalik shaxslarni, rus fuqarolarni aksiyadorlar tarkibiga kiritish, o'z korxonalarini qayta nomlash kabi choralar yordamida o'z mol-mulklarini qisman yoki to'liq sekvestr qo'yilishidan saqlab qoladilar va daromad olishda davom etganlar. Misol uchun, 1915 yil may oyida «Aka-uka Knoplar» savdo uyi «Volokno» («Tola») jamiyatiga qayta nomlagan, «Gergard va Gey» firmasi - «Russkoye transportnoye obshestvo» («Rus transport jamiyati»), 1917 yildan boshlab harbiy kiyimlar tikuvchi «Lui Zalma» fabrikasining egasi, deb Petr Vaxrushev e'lon qilingan.

Manbalarda tadbirkorlik maqsadida viloyatga kelib hayoti fojiviy yakun topgan nemislar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Kaspiyortiga kelgan Gustav Gustavovich Granberg Ashxabod shahri go'sht ta'minotini yaxshilash maqsadida 1905 yilda hukumatdan besh yilga o'z tadbirkorligi uchun ruxsatnoma va imtiyozlar olishga muvaffaq bo'lgan. Ashxabodda katta go'sht do'koni, shahar tashqarisida unga Kurtsu degan joydan dehqonchilik va qoramol ko'paytirish uchun bepul yer maydoni berilgan. Granberg shijoat bilan o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ya boshlagan. Ijobiy natijalarga erishilsa, hokimiyat unga imtiyozlarni besh yildan keyin ham uzaytirishga va'da bergan. Qisqa fursatlarda u ferma, suv hovuzlari, Kurtsudan toqqa olib boradigan yo'l qurdirgan. Uchta quduq qazdirgan. Ashxabod aholisiga do'konidan sifatli go'shtni davlat tomonidan belgilangan tarifda yetkazib bergan. Biroq ushbu muvaffaqiyatli tadbirkor 1906 yilda o'ldirilgan. Ushbu holat Turkistonning iqtisodiy rivojlanishida xorijiy tadbirkorlar faoliyatining naqadar katta ahamiyatga ega bo'lishini yaqqol ko'rsatadi. Ashxabod shahri o'sha paytda imperiya manfaatlariga xizmat qilgan yirik siyosiy va harbiy markaz bo'lgan.

Bundan tashqari Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyatida mahalliy vinochilikning tezkor sur'atlarda rivojlanishida ham Shmidt, Gladishev, Shustov, Agriyev, Alishev va Filatovlar kabi firmalarning o'rni bo'lgan. Shuningdek, 1915 yilda Vogau, Rizayevlar, Tagiyevlar, Kuznetsov, Kin-Chongolar kabi choy firmalari tomonidan 11 mln pud choy qadoqlangan.

Bundan tashqari Rossiya sarmoyadorlari Turkistonda ipakchilik sohasiga katta qiziqish bilan qaraganlar. Shuningdek, Turkistonda jami 583 ta ipakchilik punktlari bo'lib, ulardan 84

tasi Sirdaryo, 157 tasi Samarqand, 304 tasi Farg‘ona viloyatida joylashgan edi. Ipak tolalari firmalar tomonidan sotib olinar va Rossiyaga jo‘natilardi. Birgina Farg‘ona viloyatida shunday firmalardan 3 tasi faoliyat yuritar, ulardan Tumanyans firmasi eng ko‘p ipak sotib olar edi. Firmalar orqali 1904 yilda Farg‘ona viloyatidan 84246 pud ipak olib ketilgan. Ipak tolasini nafaqat ruslar, balki fransuzlar ham ko‘plab sotib olishgan. Bu davrda hududga Yevropa ipak qurtlaridan yuqori sifatli bo‘lgan O‘rta Osiyo ipak qurtlarini olib chiqish uchun uringan Barbkeri, Mozer, Adamoli, Govaldi, Sukeli, Nogaro, Janjone, Bryume, Deurlar kabi italyan, fransuz va ingliz ipakchilik firmalari vakillari tashrif buyurganlar.

Vatanimiz bilan Germaniya firmalari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar an‘analari chuqur ildizga ega ekanligini O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha ta‘kidlaydi: “Asrimiz boshidayoq “Simens” firmasi Toshkentdagi birinchi telefon stansiyasini barpo qilishda ishtirok etgan edi”. Afsuski o‘shanda boshlangan aloqalar keyinchalik rivojlanmay qoldi.

1914-yili 5 ta yirik firma: “Vl. Alekseyev”, “Aka-uka Shlossberg”, “Moskva savdo-sanoat shirkati”, “Fors”, “Katta Yaroslavl manufakturasi” Turkistonda paxta tozalash va yog sanoati ustidan yakka xukmronlikni qo‘lga kiritish maksadida “Beshbosh” aksionerlik jamiyatini ta‘sis etdilar. Jamiyat tuzilganida uning ixtiyorida 39 ta paxta tozalash va 5 ta paxta yogi ishlab chiqaruvchi zavod bo‘lgan. “Beshbosh” jamiyatining aksiyalari quyidagicha taqsimlangan. Uning 14/60 tasiga “Aka-uka Shlossberglar savdo uyi”, 12/60 tasiga “Moskva savdo - sanoat shirkati”, 11/60 tasiga “Katta Yaroslavl manufakturasi”, 9/60 tasiga Eron va O‘rta Osiyoda savdo va sanoat shirkati” ega bo‘lgan. O‘lkada chet el shirkatlari xam tobora o‘z faoliyatlarini kengaytirib bordilar. Masalan, jun tozalash sanoatida 5 ta yirik shirkat: “Rus juni”, “Aka-uka Asyevlar”, “Stupen va K”, “Yakobi va Zorganin”, “El Trilling va o‘g‘illari” shirkatlari xukmronlik qilish uchun kurash olib bordilar. “Stupen va K”, “Yakobi va Zorganin” shirkatlarining asosiy xissadorlari Angliya, Amerika, Germaniya va Belgiya kapitalistlari edilar. Bu sarmoyadorlar nafakat mahalliy, balki Rossiya va jaxon bozorlarida ham faol xarakat qildilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytsak, 1904 – 1905 yillardagi Rus – Yapon urushida Rossiyaning mag‘lubiyatidan keyin Yevropaning moliyaviy sarmoyalari Turkiston o‘lkasiga kirib kelishi kuchaydi. Xorij kapitalining kuchayib ketayotganidan xavfsiragan Turkiston general- gubernatori Samsonov 1911 yili: “o‘lkadagi ko‘pgina korxonalar ruslarning emas, chet elliklarning qo‘liga o‘tyapti” deb yozgan. Mazkur ma‘lumot negizida sanoatga

xorij kapitalining kirib kelayotganidan imperiya ma'murlarining xavotirlanayotganligini va Turkistonni "faqat ruslar uchun" saqlash yo'llarini qidirganini sezishimiz mumkin. Lekin bu voqealarni umumiy tarzda olib tahlil qilsak, Turkiston iqtisodiyotida tub yerlik va rus sarmoyadorlari tomonidan tuzilgan barcha turdagi shirkatlarning iqtisodiy salohiyati xorij moliyasi bilan bog'liq shirkatlardan ancha kuchsiz edi. Bu jihatni hukumat tan olishga majbur edi, binobarin, u xorij sarmoyadorlari bilan o'zaro kelishuvchilik yo'lini tutgan va birgalashib Turkiston o'lkasini yer usti va yer osti tabiiy boyliklarini talon – taroj qilgan.

REFERENCES

1. Musayev N.U. XIX asr II-yarmi - XX asr boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chikarishning shakllanishi. - Toshkent: Iqtisodiyot-moliya, 2008. 143- bet.
2. O'zMA, F-I-3, 461-ish, – B. 115.
3. O'zMA, F- I, 461-ish , 30-varaq va uning orqasi, F.- I, 1496-ish, 31- varaq va uning orqasi.
4. Musayev N.U. XIX asr II-yarmi - XX asr boshlarida Turkistonda sanoat ishlab chikarishning shakllanishi. - Toshkent: Iqtisodiyot-moliya, 2008. 143- bet.
5. G'afforov SH.S. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. –Toshkent, 2006. – B. 98.
6. Raximov B.E. XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Turkistonda yahudiylar faoliyatidan (Kaspiyorti viloyati misolida)// "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot: transformatsion jarayonlar" mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Termiz, 2013. – B. 244-246.
7. Садиқов А. С. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX – начале XX вв. –Ташкент. 1965. – С.160.
8. Обзор Закаспийской области за 1912-1913-1914.-Асхабад. 1916 -С.88
9. Матвеев А. М. Зарубежные виходси в Туркестане на путях к Великому Октябрю.... – С. 36.
10. Б.А.Алимджанов История банковского дела в Центральной Азии. «Замон-Полиграф» Ташкент. 2022.- С 97-98.
11. Векселман М. И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конетс XIXначало XX в.) –Ташкент: Фан, 1987. –С 28.
12. I.A. Karimov "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" T., Manaviyat – 2003. 236-bet.



SIYOSIY DISKURSDA METAFORALARNING ISHLATILISHIGA DOIR MULOHAZALAR

F. J. Yakubov

Samarqand davlat universitet Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada siyosiy nutqda metaforalardan foydalanish ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari chet ellik talabalarga siyosiy nutqda yashirin ma'nolarni tushunishga o'rgatishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: siyosiy nutqdagi metafora, kognitiv va kommunikativ paradigma, metaforalarning lingvistik nazariyasi, izomorfik metafora.

ABSTRACT

The article deals with use of metaphors in political discourse. The results of the research can be used in teaching foreign students to understand hidden meanings in political discourse.

Keywords: metaphors in political discourse, cognitive and communicative paradigm, linguistic theory of metaphors, isomorphic metaphors.

KIRISH

Hozirgi davrda metaforaning lingvistik nazariyasi siyosiy diskursni tahlil qilish usullaridan biri bo'lib qoldi. Metaforada har qanday matni to'liq tushunishni ta'minlovchi ma'nolar bor. Xorijiy talabalar siyosiy diskursdagi niqoblangan, yashirin ma'nolarni tushuna olishlari uchun ular adekvat bilim va ko'nikmalarni egallagan bo'lishlari talab qilinadi. Metaforaning lingvistik nazariyasida bu yashirin ma'nolarni tushuntirish usullari ishlab chiqilgan, bungacha metaforaning ontologik va konseptual rolini tushuntirishda uzilishlar bor edi. XX asrning so'ngi o'n yilliklarida Jon Lakoff, V.N. Teliya, A.N. Baranov, N.D. Arutyunova, A. Vejbitskayaning ilmiy ishlari tufayli bu murakkab lisoniy fikrlash turli tomonlardan o'rganila boshlandi.

Og'zaki va yozma nutqning paydo bo'lishi, nutqiy muloqotda matnlarni tushunish muammolari tilshunoslarning diqqat markazida turibdi. Tilshunoslikda kognitiv-kommunikativ yo'nalish paydo bo'ldi. Olimlar matni anglashning kognitiv jarayonlariga e'tibor qaratdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslik fanida metafora o'rganilish ob'ekti sifatida bir qancha o'zgarishlarga uchradi. Klassik tilshunoslikda metafora



leksik-grammatik darajada o'rganilgan, keyin adabiyotshunoslikda nutqning stilistik figurasi sifatida qarala boshlandi. Faqat XX asrning 70 – yillari oxiri, 80- yillari boshidagina metafora insonning tashqi olamni bilishning muhim kognitiv vositasi sifatida tushunish shakllana boshladi. N.D. Arutyunova fikriga ko'ra, metaforani o'rganish “amaliy nutqni o'rganish sohasiga va bilish va anglashga, konseptual tizimlarga va, nihoyat, sun'iy intellektni modellashga” o'tdi [1.S. 5-32].

Frazeologizmlar, konseptlar, nutqiy harakatlar sxemalari va stsenariyalari, nutqiy muloqotdagi taktika va strategiyalar hamda metaforalar muloqot jarayonida takrorlanaveradi, va shunga muvofiq ravishda ular muloqot ishtirokchilari tomonidan tushuniladi. Bu shuni anglatadiki, muloqotchilarning tushunish uchun kognitiv harakatlari ham ma'lum bir qoidalarga bo'ysunadi, tadqiqotchilarning, metakuzatuvchilarning vazifasi shundan iboratki, bu qoidalarni tushunish uchun ularni tushunish va anglash yo'llarini ishlab chiqishdir. Til egasi, qoidaga ko'ra, metaforani og'zaki va yozma nutqda tushuna olish ko'nikmasiga ega, lekin bu kognitiv ko'nikmalar ong ostida yashiringan bo'ladi. Hozirgi davrda tilshunoslarning bu qoidalarni aniqlash va tasvirlashga urinishlarini ko'p ham muvaffaqiyatsiz deb bo'lmaydi.

A. N. Baranovning ishlarida metaforaning kognitiv nazariyasi asosiy tezisi quyidagicha beriladi: metaforlashish jarayonlarining asosida yangi ma'noni so'zlarning eski ma'nolari bilan ifodalash imkonini beradigan bilimlar strukturasi qayta ishlash jarayoni yotadi [3].

Lekin biz boshqa konsepsiyaga qo'shilamiz. Bu konsepsiyaga ko'ra so'zning obrazi metafora tuzilishida ishtirok etadigan “eski” chuqur ildizli semalardan olingan odatiy ma'nolarni qayta joylashtirish va ajratib olish asosida yaratiladi [2. S.155].

Shunday qilib, ilk holatdagi so'zdan yoki ifodadan semani ajratib olishga asoslangan kognitiv proseduralar natijasida yangi obraz yoki yangi hodisaning nomi paydo bo'ladi. Agar biz ilk manba-so'z metaforaga qanday kalit belgilarni berganligini bilsak, shunda biz metaforani o'rganib, uning “tuzilishi”ni tushunishimiz mumkin. Bunday yondashuv metaforaga turli rakurslardan qarashga, ya'ni uni “tepadan-pastga”, butun holida, ichki mazmunini ochib, metaforaning “qurilish g'ishtchalarini” aniqlab, keyin uning yangi semantikasi haqida hukm qilishga imkon beradi.

Metaforalar odatdagi so'z va ifodalardan tuzilgan, lekin ular shunday tuzilganki, odatdagi so'zlar yangicha ko'rinishda aks etib, obrazli jaranglaydi. Barcha metaforalar atrofimizni o'rab turgan dunyodagi va til muhitidagi voqea va hodisalarga, faktlarga bog'langan va ulardan kelib chiqadi. Bu metafora tushunchasi asosida tabiat tuzilishi va sotsium haqida inson tasavvuri yotadi degan fikrlashga olib keladi. Ko'pchilik metaforalar asosida arxetip yotadi. Arxetip deyilganda birinchi obraz, dunyoni qabul qilishning boshlang'ich modeli tushuniladi [4].

Ontologik nuqtaiy-nazarda bo'lgan olimlar metaforaning ona tilida gapiruvchi barcha kishilarga tanish bo'lgan bir qancha universaliya va arxetiplarga asoslangan ma'lum bir guruhlarini tuzishgan. Metaforaning siyosiy diskursdagi tasniflanishiga bir qancha misollar keltiramiz.

1. Izomorf metaforalar (hayvonot dunyosi bilan bog'liq).

*Ну а пока в интернете идёт **мышинная возня**, Путин продолжает укреплять позиции России на международной арене.*

Internetda **kalamush poygasi** ketayotgan bir paytda, Putin xalqaro arenada Rossiya pozitsiyasini mustahkamlashda davom etmoqda.

2. Somatik metaforalar

*Чье **“мохнатая рука”** прикрыла бывшего лейтенанта милиции?*

Kimning “baquvvat qo'li” sobiq militsiya leytenantini himoya qilib qoldi?

3. Qarindoshlik metaforalari.

*Кандидат в президенты США от Демократической партии Хиллари Клинтон назвала президента России Владимира Путина **“крестным отцом”** крайнего национализма.*

Demokratik partiyadan AQSH prezidentligiga nomzod Xillari Klinton Rossiya Prezidenti Vladimir Putinni ashaddiy natsiyonalizmning **“cho'qintirgan otasi”** deb atadi.

4. Tabiat bilan bog'liq metaforalar.

К счастью для грузинского народа, близок закат политической карьеры этого человека, чье психическое состояние требует профессиональной оценки, - объяснил демарш постпред России в ООН Виталий Чуркин.

Gruzin xalqining baxtiga bu insonni siyosiy kar'erasi quyoshining botishi yaqin, uning ruhiy holati professional tekshiruvga muhtoj, - deb tushuntirdi Rossiyaning BMT dagi vakili Vitaliy Churkin o'z diplomatik notasida.

5. Makon va mo'ljal metaforalari.

*Мы видим проблемы с региональными бюджетами, мы видим резкий рост цен. Правительство об этом не говорит или делает вид, что этого нет, но даже Высшая школа экономики, которая, в общем, считает, что она это правительство переживёт, позволила себе написать, что экономический спад продолжается в стране, и более того, достигнуты рекордные показатели спада. То есть, иными словами, наш известный **“водолаз”** Улюкаев в очередной раз **“дна”** не нашёл.*

6. Emotiv metaforalar (insonning his-tuyg'usi va tashqi muhit o'rtasidagi bog'lanishlar).

Дело даже не в том, что украинский кризис довёл дурной запах мертвых слов про свободу (не только экономическую) до невыносимого смрада.

7. Gastronomic metaforalar.

Как Клинтон и Трамп варят “компот демократии”. Комментарий Георгия Бовта.

Ma'lumki, so'zlar kishilarning fikr va emotsiyalarini ifodalaydi va nutqiy muloqot qatnashchilarining emotsiya va fikrlariga ta'sir qiladi. Metaforalar o'quvchi/hamsuhbatning hissiyotiga ta'sir qilishning eng muhim vositasi. Metaforik matnni tushunish va uning diskursda ishlatilish maqsadini tushunish uchun interpretator lug'aviy aniqlashtirishdan tortib, so'zlarning chuqur ma'nosini ochish uchun etimologiyasiga murojaat qilishgacha, uning qo'llanilishining nutqiy taktikasi, adresatning hissiyoti, yurish-turishi, e'tiqodlariga ta'sir qilishini o'rganishgacha yo'lni bosib o'tadi.

Metafora ma'nosini ochishdan keyingi bosqichda kommunikativ kenglikda metaforaning rolini aniqlash fazasi keladi. So'ngi amaliy ishlarning maqsadi metaforaning diskursda qo'llanilishining mumkin bo'lgan variantlarini aniqlashdir. Bunda bizni gapiruvchi metaforani qanday maqsadda ishlatgani, retsiptiyent uni qanday qabul qilgani va hokozolar qiziqtiradi. Masalan, tabiatga oid metaforalar hissiy holatni ifodalashi mumkin, “*norozilik to'lqini*” metaforasi bir kishining emas, kishilar guruhining holatini bildiradi, shuning uchun suv harakati belgisi, uning ko'tarilishi, pasayishi, balandligi, pastligi, kuchi tanlab olingan. Qahr-g'azab emotsiyasini beradigan bu metafora asosida suv mavjlari bilan bo'g'liq analogiya yotibdi. Tabiat bilan bog'liq metaforalar siyosiy diskursda ko'p ishlatiladi, *siyosiy iqlim, turg'unlik epoxasi, muzlatilgan narxlar, siyosiy kar'era quyoshining botishi, qahr-g'azab bo'roni, olqishlar momaqaldirig'i*.

Metafora semantik va emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lganligi uchun siyosiy diskursda keng ishlatila boshladi. Bunda debat ishtirokchilari faqat faktlarga emas, emotsional baholarga ham e'tiborlarini qaratadilar, faktlar haqidagi fikrlar, odatda, buzib ko'rsatiladi. Amerika ommaviy axborot vositalari Trampning seksual majburlashi “qurbonlari” dan intervyu oladi. Bu ayollarning har bir “so'ziga” ishonishdi, va Trampning salbiy obrazini yaratishdi. Respublikachilar partiyasidan AQSH Prezidentligiga asosiy nomzod Donald Tramp o'z raqibi demokrat Xillari Klintonni isbot keltirmasdan “dunyo miqyosidagi yolg'onchi” deb atadi.

New York Times nashri Respublikachilar partiyasidan AQSH perzidentligiga nomzod Donald Trampning Floridadagi nutqini misol keltiradi.

Bilasizmi, ular (terroristlar) Prezident Obamadan ko'p narsada qarzdordirlar. U ID (Islom davlati) asoschisi, demokratik patiyadan nomzod Xillari Klinton esa, birgalikdagi asoschidir.

Neytral, hatto ijobiy ma'noli so'z "asoschi" bu yerda salbiy bahoga ega bo'ladi. Bu gapni ayblash taktikasini keltirib chiqaradigan so'z o'yini deb tushunish mumkin. Misol qilib keltirilgan metaforalar siyosiy ta'sir ko'rsatishning kuchli vositasiga aylanadi. Bu so'zlar asosan ong va ongostining hissiy sohasiga ta'sir qiladi. "Yorliq yopishtirish" prinsipi bahslashishning eng g'irrom usullaridan biridir [6]. Bu taktika asosida assosiativ bog'lanishlar, avtoritetning dalil-isbotsiz obro'si pasaytirilishi yotadi. Bu usullar kishilar ongiga ta'sir qiladi, ularning siyosiy shaxslarga ishonchsizligini oshiradi.

Zamonaviy jamiyatda siyosiy hayot siyosiy partiyalar, ularning liderlari, turli siyosiy g'oyalar bilan bog'langan [7]. Bu kontekstda fikrlar turli-tumanligini ifodalaydigan siyosiy metafora siyosiy diskursning ajralmas qismiga aylanadi.

XULOSA

Siyosiy diskursdagi metaforalar tahlili quyidagi savollarga javob berishi kerak: metaforalar qanday maqsadda ishlatilayapti, ular nimani bildiradi, ular kishilarning yurish-turishi, kayfiyati va ongidagi axborot maydoniga qanday ta'sir qiladi? Metaforalar metafikrini tushunish jarayoni bir qancha bosqichdan o'tadi. Avval metaforalarning "qurilish materiallari" aniqlanadi, keyin kommunikativ kenglikda metaforaning pragmalingsvistik roli oydinlashtiriladi. Metaforalarni tushunishning bu bosqichlari xorijiy talabalarga siyosiy diskursda metaforani ishlatilishini o'qitish uchun mashqlar tizimini yaratishga asos bo'ladi.

REFERENCES

1. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. М.: Прогресс, 1990.
2. Шляхов В.И. Саакян Л.Н. Текст в коммуникативном пространстве: Монография. М., 2015.
3. Баранов А.Б. Дескрипторная теория метафоры. Языки славянской культуры, 2014.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. Высш. Учеб. Заведений. М.: Академия. 2001.
5. Толковый словарь живого великорусского языка. URL: <http://slovardalja.net/word.php?wordid=5688>
6. Поварнин С.И. Искусство спора. URL: [http://www/goldentime.ru/wfb_01.htm](http://www.goldentime.ru/wfb_01.htm) (дата обращения: 15.03.2012).
7. Linkevisiute Vilma. Conceptual metaphors in Gordon Brown's Political Discourse (2007-2008). URL: http://www.kalbos.lt/zurnalai/23_numeris/11.pdf



CONTENTS

1. Bebitov, M. A., & Rahmanova, M. R. (2023). JALOLIDDIN XORAZMSHOHNING CHINGIZXONGA QARSHI KURASHIDA DEHLI SULTONI SHAMSIDDIN ELTUTMUSHNING ROLI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 5–12.
2. Қўзибаев, Ф. А., & Мадрахимов, Ш. Н. (2023). ГОЛШТИН ЗОТЛИ БУҚАЧАЛАР ВА ДУРАГАЙЛАРИНИНГ ТИРИК ВАЗНИНИ ОЗИҚЛАНТИРИШ ОМИЛИГА БОҒЛИҚЛИГИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 13–20.
3. Ражабов, Ф. Т., & Хидиров, Р. Х. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА ЧЎЛ-ЯЙЛОВ ЧОРВАЧИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 21–26.
4. Самиева, М. Ф. (2023). ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ДИФФУЗИИ В НЕОДНОРОДНОЙ СРЕДЕ С ПОМОЩЬЮ ПАКЕТА МАТЛАВ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 27–35.
5. Далакъян, Ж. С. (2023). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА В РЕЗУЛЬТАТЕ МИГРАЦИЙ НА ПРИМЕРЕ АРМЯНСКОЙ ДИАСПОРЫ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 36–43.
6. Зойиров, К. А., & Махмудов, А. А. (2023). ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ГРАФИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО АРХИТЕКТОРА С ПРИМЕНЕНИЕМ КОМПЬЮТЕРНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 44–51.
7. Botirov, A., & Otajonova, N. (2023). MOMORDIKANING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA XALQ XO'JALIGIDAGI ANAMIYATI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 52–55.
8. Расулов, А. Н., Абдухакимова, Н. Х., Вафоева, Г. Б., Бегматова, Л. Ш., & Фарходова, М. Ф. (2023). УМУМИЙ ЎРТА-ТАЪЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ҲОЗИРГИ ДАВР ТАЛАБИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 56–60.
9. Мусурмонов, Р., Мусурмонова, М., & Хуррамов, К. М. (2023). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАҲБАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 61–67.
10. Botirov, A. E., Xalmirzayeva, L. B., & Allaberdiev, X. G. (2023). ZAYTUN: BOTANIKASI VA FIZIOLOGIYASI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 68–71.
11. Палванов, Н. С., & Атамуратова, Н. Р. (2023). КОНДУКТОМЕТРИЧЕСКОЕ ТИТРОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОДНООСНОВНЫЕ АМИНОКАРБОНОВЫХ КИСЛОТ В НЕВОДНЫХ И СМЕШАННЫХ РАСТВОРАХ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 72–76.



CONTENTS

12. Daminov, N. K. (2023). SIMULTANEOUS TRANSLATION INTERPRETING AS A MODERN TYPE OF TRANSLATION. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 77–81
13. Назаров, А. А. (2023). МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИНИНГ ХАЛҚ ТАЪЛИМИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШ ЙЎЛИДАГИ ҲАРАКАТЛАРИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 82–88.
14. Jurayev, A. K., & Tojiboyev, S. J. (2023). POSSIBILITIES OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN CONTROL AND MANAGEMENT OF HYDRAULIC FACILITIES. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 89–92.
15. Хашими, С. А., & Хассани, С. (2023). ПЫЛЬ ЭЛЕКТРОДУГОВЫХ СТАЛЕПЛАВИЛЬНЫХ ПЕЧЕЙ (ЭДСП) ОСКОЛЬСКОГО ЭЛЕКТРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМБИНАТА (ОЭМК) БЕЛГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ, И ЕЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В КАЧЕСТВЕ КОАГУЛЯНТА ПРИ ОЧИСТКЕ СТОЧНЫХ ВОД. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 93–102.
16. Саидова, У. (2023). ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА МАҚБУЛЛАШТИРИШ – ТАЪЛИМНИНГ МАЪҚУЛ ТИЗИМИ. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 103–107.
17. Абдурахимов, Б. А., Тохтаев, Г. Ш., Сафаров, Х. Х., & Улмасов, Ж. М. (2023). ПРИНЦИПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ФОТОХИМИОТЕРАПИИ В ДЕРМАТОЛОГИИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 108–127.
18. Zokirov, S. U. (2023). ILMIY TADQIQOTLARDA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY METODLARINI TATBIQ ETISH. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 128–145.
19. Sulstonova, N. E., & Sulstonova, M. (2023). O‘ZBEK YOSHLARI DUNYOQARASHIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA AXLOQIY KAMOLOT MASALALARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 146–149.
20. Qarshiyev, A. A. (2023). SURXON VOHASINING MA’MURIY HUDUDIY HOLATI VA BOSHQARUV TIZIMI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 150–157.
21. Karimova, N. M., & Mamatkulova, N. F. (2023). NEW TEACHING METHODS AND THE BENEFITS TO MODERN EDUCATION. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 158–162.
22. Umarova, Z. K. (2023). THE CONCEPT OF TOURISM, ITS FORMATION AND HISTORY. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 163–167.
23. Muinov, A. M. (2023). JANGOVAR STRESSNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(2), 168–174.



CONTENTS

24. Turayev, O. S., Baxadirov, U. S., Norbekov, J. K., Erjigitov, D. S., Dolimov, A. A., Tursunmurodova, B. T., Ziyayev, Z. M., & Kushanov, F. N. (2023). DNK MARKERLAR TEXNOLOGIYASINING O'ZBEKISTONDAGI YUMSHOQ BUG'DOY (TRITICUM AESTIVUM L.) TADQIQOTLARIDA QO'LLANILISHI. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 175–185.
25. Khidirova, M. H. (2023). METHODS OF IMPROVING STUDENTS' SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES (IN THE EXAMPLE OF ABDULLA QADIRI'S NOVEL "MEKHROBDAN CHAYON". Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 183–191.
26. Хикматов, Х. С. (2023). ТАЪЛИМИ МУБТАДО ДАР СИНФИ 7. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 192–201.
27. Хажйев, I. O., & Umirova, D. I. (2023). UCHINCHI TARTIBLI TUZILMALI TURDAGI TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY MASALANING SHARTLI KORREKTLIGI. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 202–208.
28. Abdurakhimov, B. A., Khaitov, J. B., Safarov, K. K., & Ulmasov, J. M. (2023). A SYSTEMATIC APPROACH TO MANAGING THE HEALTH AND RISK FACTORS OF THEIR WORKERS. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 209–213.
29. Мамajanov, R. Y. (2023). OLIY TA'LIMDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISH MUAMMOLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 214–220.
30. Radjabkulov, O. R., & Radjabova, G. G. (2023). THE ROLE OF DATA-DRIVEN LEARNING APPROACH IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO INTERMEDIATE LEARNERS. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 221–231.
31. Ergashov, N. I., & Mo'minova, X. R. (2023). TO'RT O'LCHAMLI NILPOTENT UNAR LEYBNITS ALGEBRALARINING TASNIFI. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 232–246.
32. Akbarov, A. (2023). TALABA YOSHLAR SALOMATLIGI VA HARAKATLANISH FAOLLIGINING IJTIMOY MUAMMOLARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 247–255.
33. Xolmirzayev, F. S., Tillayev, A. T., Nurqulov, F. N., & Djalilov, A. T. (2023). BUTILAKRILAT VA STIROL MONOMERLARINI SOPOLIMERLANISHIDAN OLINGAN SOPOLIMERLARNI TERMİK TAVSIFI VA IQ – SPEKTROSKOPIYA TAHLILINI O'RGANISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 256–266.
34. Ташметов, Т. Х. (2023). ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ТАРҒИБОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 267–273.



CONTENTS

35. Atakulov, L. N., Kayumov, U. E., & Pardayeva, S. S. (2023). NASOS USKUNASINING ISHCHI G'ILDIRAKLARIDAGI KURAKCHALARINING ENG MUQOBIL BURILISH BURCHAGINING PARAMETRLARINI MODELLASHTIRISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 274–284.
-
36. Shodiyev, O. A., Yuldashev, E. U., Uralov, J. T., & No'monov, A. B. (2023). KONVEYER TRANSPORTINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI VA TEXNIK YECHIMLARINI ISHLAB CHIQISH. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 285–291.
-
37. Xaydarov, K. A. (2023). YOSHLAR HUQUQIY ONGINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 292–302.
-
38. Ahmady, F., & Inanch, S. (2023). GEOLOGY AND PETROLEUM POTENTIAL OF THE SEDIMENTARY BASINS, AFGHANISTAN. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 303–313.
-
39. Kasimov, A. I., Shayhova, G. I., Butabaev, J. M., Mansurov, S. S., & Butabaeva, M. M. (2023). IMPROVING THE METHODS OF DISINFECTION OF THE RESIDUAL CAVITY OF THE FIBROUS CAPSULE IN COMPLICATED AND UNCOMPLICATED ECHINOCOCCAL CYSTS OF THE LIVER. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 314–320.
-
40. Raximov, B. E. (2023). TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGIDA XORIJIY FIRMALAR FAOLIYATI TARIXIDAN. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 321–326.
-
41. Yakubov, F. J. (2023). SIYOSIY DISKURSDA METAFORALARNING ISHLATILISHIGA DOIR MULOHAZALAR. Academic Research in Educational Sciences, 4(2), 327–331.
-

